

Innovative Development in Educational Activities

INTERNATIONAL CONFERENCE DEDICATED
TO THE ROLE AND IMPORTANCE OF
INNOVATIVE EDUCATION IN THE 21ST CENTURY
2022/10

ISSN: 2181-3523

25 DECEMBER, 2022 YEAR

International Scientific Conference



PKP | INDEX

Innovative Development in Educational Activities



“INTERNATIONAL CONFERENCE DEDICATED TO THE ROLE AND IMPORTANCE OF INNOVATIVE EDUCATION IN THE 21ST CENTURY 2022/10”

openidea.uz

Languages of publication: o‘zbek, english, русский, қазақ, точик, қарақалпақ

TASHKENT, UZBEKISTAN

2022/ DECEMBER 25

**ELEKTRON AXBOROT TA'LIM RESURSLARI VA ULARNI
MOSLASHUVCHANLIGIDAN FOYDALANISHGA PEDAGOGLARNI
TAYYORLASH**

Buriyeva Xansuluv Baxtiyorovna

Oriental universiteti Ta'lim menejmenti magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida elektron axborot ta'lim resurslarini loyihalashtirish mexanizmidan foydalanish, ushbu resurslarni umumlashtirish, tahlil olib borish, tizimlashtirish, tarkiblashtirish va boshqaruvni amalga oshira oladigan o'qituvchilarni tayyorlashning, samarali vositasi hisoblanishi to'g'risida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: *Elektron, axborot, ta'lim, resurslari, maktab, pedagogik.*

ABSTRACT

This article talks about the use of the mechanism of design of electronic information educational resources in general education schools, which is considered an effective tool for training teachers who can generalize, analyze, systematize, organize and manage these resources.

Key words: *Electronic, information, education, resources, school, pedagogical.*

Elektron axborot ta'lim resurslari dan foydalanish, ta'limning innovatsion metodlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi. Hozirgi vaqtda AKTlar yordamida tayyorlangan elektron axborot ta'lim resurslari umumiy o'rta ta'lim maktablarining ta'lim jarayoniga tatbiqi qiziqish bilan amalga oshayotganligini kuzatish mumkin.

Elektron axborot ta'lim resurslari ta'rifini keltiradigan bo'lsak, u bizningcha quyidagicha bo'lishi mumkin: Elektron ta'lim resurslari deb, raqamli taqdim

etiladigan ma'lumotlar, video fayllar, statik va dinamik modellar, virtual taqdimot va interfaol modellashtirilgan ob'ektlar, ovozli yozuvlar, matnli hujjatlar va elektron ta'lim vositalari orqali o'quv jarayonini tashkil etish uchun zarur bo'lgan barcha o'quv materiallari (xususan, elektron ilovalar)ga aytiladi.

Umuman olganda Elektron axborot ta'lim resurslari tatbiq etilish doirasida uch guruhga bo'linadi:

1. Ko'rgazmali o'quv qo'llanmalar, ularga multimediali taqdimotlar, ta'lim beruvchi filmlar, elektron darsliklar, kompyuter lug'atlar va malumotnomalar, animatsiyalar va shu kabilar kiradi.

2. O'quvchilar bilim va ko'nikmalarini nazorat qilish uchun mo'ljallangan resurslar: testlar o'tkazish, bilimlarni baholovchi dasturlar va shu kabilar.

3. Ta'limni tashkil etishning avtomatlashtirilgan tizimlari: elektron jurnallar, dars jadvallar, o'zlashtirish qaydnomalari va shu kabilar.

Elektron axborot ta'lim resurslaridan foydalanish mashg'ulotlarni o'tishni takomillashtirib, ularni shaxsga mo'ljallangan jihatini oshiradi, masalan loyihani multimediali taqdimot ko'rinishida himoya qilish shular jumlasidandir. Uyga vazifani so'rash vaqtida o'quvchi javobi bilan birgalikda mazkur mavzuga tegishli videoqator ekranda namoyish etiladi, bu esa tayyorgarligi bo'sh bo'lgan o'quvchi multimediali materialga tayangan holda yaxshi javob berishiga, o'ziga ishonchni ortishiga va yaxshi ball olishiga imkon beradi. Shunday qilib, mashg'ulotda o'quvchi bahosini va faolligini oshirishga imkon beruvchi muvaffaqiyat holati yaratiladi hamda yangi taqdim etiladigan material yaxshi o'zlashtiriladi.

Shuni ham qayd etishimiz joizki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida kompyuter texnologiyalari yetarli darajada o'z tatbiqini topgan emas. Kompyuterlardan foydalangan holda darslarni o'tilishi ko'p hollarda o'z ixtisosligi nuqtai nazaridan informatika o'qituvchilari zimmasiga to'g'ri keladi. Ana shu nuqtai nazardan umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilarini yangi ta'limiy natijlarga erishishlariga yo'naltirilgan Elektron axborot ta'lim resurslaridan foydalanish metodik tizimini takomillashtirish zarurati mavjud.

Metodika nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, elektron axborot ta'lim resurslarida taqdim etilayotgan materialning optimal tarkibini aniqlash ham zaruratdir.

O'quv ma'lumotlarini chiziqli tarzda taqdim etilganda, o'quv materialining bayon etilish tarkibi materialni taqdim etilish tartibida bir qiymatli aniqlanadi. Lekin, ta'lim oluvchilarga taqdim etilayotgan ma'lumotlarni tanlangan klassifikatsiyalar mezonlariga bog'langan holda tushunchalarni tur va ko'rinishlarga ajratish nuqtai nazaridan mazkur metod unchalik ham samarali hisoblanmaydi. U analogiyadan kelib chiqib, tushuntirilayotgan ob'ekt haqidagi ma'lumotlarni shu sinf ob'ekti bilan qiyoslagan holda taqdim etish va umumiy xulosalar chiqarish imkoniyatini bermaydi.

Eng yaxshisi, axborot va telekommunikatsion texnologiyalar vositasi yordamida yaratilayotgan, taqdim etilayotgan, vizuallashtirilayotgan, qayta ishlanayotgan, saqlanayotgan, uzatilayotgan va boshqarilayotgan ma'lumotlarning ierarxik tarkibidan foydalanish qulaydir. Ta'limning original metodlari ta'lim oluvchilarda topshiriq sifatida shajarada yetishmayotgan elementni alfavit ro'yxatida turganini topgan holda uni to'ldirish orqali yaratishni tavsiya etish imkoniyatini beradi. Ta'lim sohasidagi turli tushunchalar ierarxiasini qurish imkoniyati ta'limga ijodiy yondashuvni amalga oshiradi: ta'lim oluvchilar ular uchun ma'lum ob'ektlar, dalillar haqidagi ma'lumotlarni ierarxik ko'rinishda shakllantirib, guruhlar ko'rinishi va darajalari ierarxiasini tanlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Elektron axborot ta'lim resurslarini axborotlar bilan to'ldirilishi ta'lim oluvchilar diqqatini o'ziga jalb etishi lozim. Axborotlar bilan to'ldirilish shakli auditoriyaga mos, ya'ni ma'lumotlar qisqa, tushunarli va real bo'lishi kerak. Ta'lim beruvchining elektron axborot ta'lim resurslari bilan dialogini tushunarlilikini ta'minlash uchun foydalaniladigan interfeys ratsional tashkillashtirilishi lozim. Elektron axborot ta'lim resursida dialogni tashkil etish o'zida ikkita funksiyani namoyon etadi: boshqaruv uchun dialog va predmet atamalarida yoki ta'lim sohasidagi dialog.

Elektron axborot ta'lim resursining g'oyasi va mazmuni fan o'qituvchisi tomonidan taklif etiladi, boshqarilib hamda takomillashtirilib boriladi.

Ta'lim jarayonida tatbiq etilayotgan elektron axborot ta'lim resurslarining nafaqat pedagogik, balki dasturiy vosita hisoblanishiga bog'liq tarzda, o'quv materialini puxta tarkiblashtirilishi amalga oshirilmasdan turib, ular orqali o'quv kursining mazmuniy qismi uzatilishi mumkin emas. Shunday qilib, Elektron axborot ta'lim resurslarini ratsional loyihalashtirish uchun o'qituvchi o'quv fani materiali mazmunini konstruksiyalashning maxsus vositalari va texnologiyalari haqida yaxlit tarkibiy-tizimli tasavvurga ega bo'lishi kerak.

Elektron axborot ta'lim resurslarini loyihalashtirish jarayoni – tushunarli va tartibli tarzda bayon etilgan, guruhlashtirilgan, ketma-ket bajariladigan qator bosqichlardan iboratdir. Ularni yaratish asosan besh bosqichni tashkil etadi:

- tahlil, ta'lim berishni qanchalik zarurat ekanligi ya'ni talabni tahlili, maqsadni tahlili, shartlar tahlili;

- loyihalashtirish - rejalarni tayyorlash, timsolni ishlab chiqish, asosiy yechimlarni tanlash, ssenariyni tuzish;

- ishlab chiqish va boshqarish – rejani, ssenariyni, o'quv materiallari to'plami asosida timsolni amalga oshirish;

- tatbiq etish – o'quv materiallaridan ta'lim jarayonida foydalanish;

- baholanish – o'quv mashg'ulotlari natijalarini baholash, ulardan o'quv materiallarini aniqlashtirishda, to'ldirishda foydalanish.

Elektron axborot ta'lim resurslarini yaratishda ta'lim oluvchilarni elektron axborot ta'lim resurslari bilan muloqotining psixologik jihatlari albatta hisobga olinishi lozim.

Elektron axborot ta'lim resurslari yaratish texnologiyasini amalga oshirishda ma'lumotlar ko'rgazmaliligini rangli tavsiflarini shakllantirish, kompyuter ekranida vizuallashtiriladigan axborotlar bo'yicha tavsiyalarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Monitor ekranidagi vizual muhit sun'iyliigi nuqtai nazaridan ko'p

parametrlariga ko'ra odatiy holdagidan farq qiladi. Bunda inson tomonidan monitor ekranidagi ma'lumotlarni idrok etilishi tabiiydir.

Grafikaning to'g'ri rasmiylashtirilishi ta'lim oluvchida yaxshi taassurot qoldirishini pedagoglar unutmashliklari kerak, komfortlilik esa monitorda yorug'likni to'g'ri taqsimlanishi orqali erishiladi.

O'quv materiallarini optimallashtirish uchun elektron axborot ta'lim resurslarini yaratuvchilarga mantiqiy ketma-ketlik va urg'u berishdan foydalanish tavsiya qilinadi. Mantiqiy urg'u deyilganda, foydalanuvchi diqqatini aniq ob'ektga yo'naltirilgan psixologik apparat usullariga aytiladi. Mantiqiy urg'ularning psixologik ta'sirlari ma'lumotni vizual izlashda vaqtni kamaytirish bilan bog'liqdir.

Mantiqiy urg'ularni yaratishda ko'p ishlatiladigan usullar:

- yorqin rangda asosiy ob'ektni tasvirlash;
- joylashishni, yorqinlikni, o'lchovni o'zgartirish;
- yorug'lik nurini ajratishdan iborat.

Elektron axborot ta'lim resurslaridan foydalanib mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish qator talablarni qanoatlantirishi lozim, ular:

- predmet sohasini to'liq qamrab olinishi;
- qo'llanilayotgan atamalarning muvofiqlashtirilganligi;
- mashq va topshiriqlarni tanlashda didaktik tizimlashtirilishdan foydalanish;
- mashq va topshiriqlarni taqdim etishda metodik ketma-ketlikni tatbiq etish;
- o'quv topshiriqlari bilan ishlashda interfaollik;
- ta'lim traektoriyasini erkin tanlanishidan iborat.

Kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, fan o'qituvchilarining ko'pchiligi ta'lim jarayonida bunday texnologiya va vositalardan foydalanish bilan birga uni yaratish tarafdorlaridir. Ammo, buni maxsus tayyorgarlik ko'rmasdan turib amalga oshirib bo'lmaydi. Elektron axborot ta'lim resurslarini yaratish va ulardan foydalanish metodikasi pedagoglarning kasbiy faoliyati darajasini oshirishga mo'ljallangandir.

Elektron axborot ta'lim resurslari ni loyihalashtirish mexanizmidan foydalanish: umumlashtirishni, tahlilni, tizimlashtirishni, tarkiblashtirishni va boshqaruvni amalga

oshira oladigan o'qituvchilarni tayyorlashning samarali vositasi hisoblanadi. Insoning turli faoliyatida zaruriy maqsad qo'ya olishiga imkon berib, shaxsiy faoliyatida refleksiyaning va boshqa qobiliyatlarni shakllantiradi.

Demak, o'qituvchilarni malaka oshirish tizimida elektron axborot ta'lim resurslarini yaratish va foydalanish metodik tizimini takomillashtirish zarurati mavjud. "Uzluksiz kasbiy ta'lim"(onlinedu.uz) maxsus elektron platformasi ishga tushirilishi nima berdi?

Foydalanuvchiga:

- ish faoliyatida uzilish bo'lmaydi.
- xodimlarning yashash va ishlash joyidan bir oyga ajralishiga hojat qolmaydi;
- mustaqil ta'lim shaklida "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasidan foydalangan holda malaka oshirishda o'qish muddatlarini xodimning o'zi belgilaydi;

- malaka oshirishning turli muqobil shakllari joriy etilishi natijasida o'qituvchi kasbiy ehtiyojlari asosida xohlagan kursni tanlab malaka oshirish va unga belgilangan kredit ballarini jamlash imkoniyati paydo bo'ldi;

- o'quvchilar ta'lim olishi va ta'lim sifati uzilishlarining oldi olindi;
- o'qituvchilar kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyatlari (o'quvchisi fan olimpiadalarida o'rin olsa, ilmiy faoliyat yuritsa, xalqaro kurslarda o'qisa va h.k.) malaka oshirishning muqobili sifatida tan olinishi;

- tizimning eng yaxshi amaliyotlari va eng sifatli hamda jozibador ta'lim kontentlari bilan tanishish imkoniyati;

- bir vaqtning o'zida platformadan kompyuter, planshet yoki telefon orqali tas-ix tarmog'i orqali foydalanish imkoniyati.

Xalq ta'limi tizimiga:

- Xalq ta'limi tizimi xodimlarining ishdan ajralmagan holda doimiy malakasini oshirish imkoniyati yaratildi;

- Korrupsiya omillari bartaraf etildi. Tizimda korrupsiya holatlari bilan bog'liq bo'lgan bitiruv malaka ishi, yakuniy attestatsiya va chiqish testi, turli oraliq

imtihonlardan voz kechildi. Ularning o‘rniga tinglovchilarning bilimni diagnostika qilish va o‘zlashtirish darajasini aniqlashning avtomatlashtirilgan mexanizmlari joriy qilindi;

- o‘qituvchilar malaka oshirishga borganda o‘rnini boshqa o‘qituvchi bilan qoplash muammosi bartaraf etildi;

- har bir tuman xalq ta’limi bo‘lim rahbarlari hamda fan metodisti o‘ziga birlashtirilgan hudud va fan kesimida o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini monitoring qilish va baholash imkoniyati yaratildi;

- amaliyotda pedagoglarning malaka oshirishdan chetda qolib ketishi holatlari mavjud edi. Platformada tizimdagi barcha xalq ta’limi xodimlarining ma’lumotlar bazasi shakllantiriladi. Har bir pedagog har yili muntazam ravishda uzluksiz malakasini oshirishga jalb etiladi. Biror pedagog e’tibordan chetda qolmaydi!

Jamiyatga

- O‘qituvchining bir oyga malaka oshirishga ketishi bilan bog‘liq oilaviy, ruhiy, moliyaviy masalalar bilan bog‘liq muammolar bartaraf etiladi (12000 nafar tizim xodimlarining so‘rovnoma natijalari asosida).

- Malaka oshirish tizimida nodavlat ta’lim sektorining kirib kelishi natijasida malaka oshirish ta’limida raqobat muhitining shakllanishi ta’lim sifatini oshirishga sabab bo‘ldi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 1992.–46 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. /Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: O‘zbekiston, 1997. –214 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. //O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2017 yil, 3-son, 79-modda.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoni. //O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari
5. Ismoilova Z.K. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning nazariy va eksperimental-metodik asoslari. Ped. fanlari doktori diss. –T., 2006. -345 b.
6. Красин В.В. Модели дистанционного обучения // Путь к мастерству: Научно-методическое пособие / Под общей научной редакцией проф. А.Г.Казаковой. - М.: Экон-информ, 2011. - 298 стр.С.92-94
7. <https://lex.uz/docs/-5239538>

ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССА ВЫПАРКИ МАТОЧНЫХ РАСТВОРОВ В ПРОИЗВОДСТВЕ КАРБОНАТА КАЛИЯ АМИННЫМИ СПОСОБАМИ

Камбаров А., Мансуров Т.

Ташкентский химико-технологический институт янгиерский филиал

Аннотация: В настоящее время в мире уделяется большое внимание производству карбоната калия (поташ) аминными способами. В то же время в мире имеются достаточные разведанные запасы калийсодержащего сырья, которые по технологическим, экономическим и, что особенно важно, рациональным уровням использования предоставляют возможность получать поташ для обеспечения внутреннего и внешнего рынков потребления с доступными по энергетическим и технологическим показателям точка зрения.

В связи с этим, разработка способа получения поташа на основе специфичного местного сырья является актуальной.

Ключевые слова: хлорид калия, диэтиламин, упарка, фильтрация, параметр, степень, разрежение, время, процесс, норма.

Перспективы применения карбонатов калия, в особенности, как бесхлорного калийного минерального удобрения, создают определенные условия организации их производства в Узбекистане. В настоящее время в Узбекистане отсутствует производство карбонатов калия, хотя в Узбекистане имеются месторождения местного калийсодержащего сырья, который даст возможность получать собственный карбонат калия [1].

Все существующие промышленные способы производства карбоната калия можно разделить на две группы. Первая группа-получение карбоната калия методом электролиза растворов хлорида калия с последующей переработкой гидроксида калия в карбонат калия характеризуется сложностью

процесса из-за многостадийности, большим потреблением энергии [2-3] и высокой стоимостью получаемого гидрокарбоната и карбоната калия.

Вторая группа схем основана на получении гидрокарбоната калия (KHCO_3) подобно аммиачному способу получения соды карбонизацией хлорида калия (KCl) в присутствии различных алифатических аминов и их солей [4-5].

Известно что, в производстве карбоната калия аминным способом [6] на первой стадии в процессе карбонизации в присутствии хлорида калия и ДЭА в твердой фазе образуется бикарбонат калия, а в жидкой фазе остается не прореагировавшая часть хлорида калия и ДЭА, а также образуется диэтиламин гидрохлорид. Как было отмечено, при упарке и дистилляции ДЭА из маточных растворов в течение процесса система постепенно концентрируется и в конце в зависимости от степени упарки образуется густая суспензия.

Для определения состояния системы, последовательности процессов, подбора оборудования и контроля технологии необходимо изучить влияние Ж:Т, и температуры на вязкость, плотность, показатели светопреломления и электропроводности реакционной системы, а также скорости отстоя и фильтрации суспензии.

Данные (табл.1) показывают, что со снижением остаточного давления в выпарном аппарате от 740 до 284 мм.рт.ст температура кипения раствора снижается от 83,0, 85,0°C до 63,5 и 67,0°C соответственно при концентрации 10,0-45,0%. Показатели светопреломления и электропроводности образцов в зависимости от степени упарки колеблются в интервалах 1,409-1,433 и 61,59-27,12 $\mu\text{S}/\text{cm}$ соответственно. С повышением степени упарки от 10 до 45% показатель светопреломления повышается на 0,020, а электропроводность наоборот снижается на 34,47 $\mu\text{S}/\text{cm}$.

С повышением концентрации и снижением температуры вязкость системы повышается. Влияние температуры на процесс усиливается при ее снижении до 18°C и повышении концентрации ДЭА более 40%. Проведение линии вязкости (рис 1) для 26,5 сПз ($d_2^1-d_1^1$), с получением ортогональной проекции (d_2-d_1)

показывает, что для сохранения значения вязкости 26,5 сПз с повышением степени упарки до 10,20,30% температура системы должна быть не менее 12,15,16°C соответственно.

На скорость фильтрации сильно влияют Ж:Т и температура процесса фильтрации (табл.2). С повышением Ж:Т при температуре 60°C скорость фильтрации снижается в 2,40; 5,20 раза при Ж:Т 4:1 и 8:1 соответственно чем при Ж:Т=2:1. Эта тенденция усиливается со снижением температуры процесса до 20°C, при которой скорость фильтрации уменьшается в 2,70 , 7,15 раза соответственно. При упарке образуется шлам с Ж:Т более 20:1 и с температурой 80-90°C. Исходя из вышеизложенного Ж:Т необходимо уменьшать до не более 8:1, в связи с чем нами была изучена кинетика процесса декантации (рис.2).

Таблица 1

Физико-химические свойства упаренных маточных растворов

№	Степень упарки, %	Упругость, мм.рт.ст				n ²⁰ ,	Электропроводность при 20°C, μS/cm
		740	588	436	284		
1	0	82,0	78,0	72,0	63,0	1,410	62,66
2	10	83,0	78,5	73,0	63,5	1,424	57.75
3	20	83,5	79,0	73,5	64,0	1,428	54.46
4	30	84,0	80,0	74,0	65,0	1,430	48.87
5	40	84,5	81,0	74,5	66,0	1,437	39.96
6	45	85,0	82,0	75,0	67,0	1,440	28.12

Таблица 2

**Влияние Ж:Т и температуры на фильтруемость
упаренных маточных растворов**

№	Ж:Т	Скорость фильтрации при 20°C, кг/м ² с		Скорость фильтрации при 40°C, кг/м ² с	
		Жид, фаза	Твер, фаза	Жид, фаза	Твер, фаза
1	1:0	-	-	-	-
2	16:1	858,59	63,29	1789	147
3	8:1	1069,54	156,18	2078	303
4	4:1	1330,31	414,28	2677	678
5	2:1	2032,22	1116,97	3034	1453




Рис.1. Изменение вязкости маточных растворов в зависимости от степени упарки и температуры




Рис. 2. Изменение вязкости 30%-ного упаренного маточного раствора в зависимости от температуры и соотношения Ж:Т.




Рис.3. Кинетика осаднения осадков, образующихся при упарке маточных растворов.

В течение 3 мин степень осветления суспензии достигает более 70% и 75% при снижении Ж:Т от 9:1 до 13:1 соответственно (рис.3).

Таким образом, маточный раствор после процесса упарки перед подачей на фильтрацию отстаивают в течение 10-15 минут и образующаяся густая масса с Ж:Т не более 8:1 подаётся на стадию фильтрации с обеспечением скорости фильтрации не менее 435 кг/м²*ч.

По реологическим свойствам в системе образуются суспензии и растворы, которые без затруднений перекачивать существующими устройствами.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. A.N.Vobogulov., A.U.Erkaev., Z.K.Toirov. Исследование процесса получения гидрокарбоната кальция с применением диэтиламина.// UNIVERSUM:Химиya i biologiya,№ 10, Moskva-2017g.

2 Пат. 7514060 US, МКИ C01D 7/12. Porous potassium carbonate having special pore structure and method for its production [Текст] / Nachiro Hirano, Yasunori Yamaguchi, Minako Okamura, assignor to Asahi Glass Company, Limited, Tokyo (JP); Application 30.12.04; Published 07.04.09.

3. Беньковский С.В. Технология содопродуктов [Текст] / С.В. Беньковский, С.М. Круглый, С.К. Секованов. – М.: Химия, 1972. – 352 с.

4. Чернов В.Ф. Производство кальцинированной соды [Текст] / В.Ф. Чернов. – М.: Госхимиздат, 1956. – 316 с.

5. Wasag T. Zastoswanie amin do produkcji weglanow alkalicznych / T. Wasag, T. Wasag, G. Poleszczuk // Chemik. – 1976. – Vol. 29, № 9. – P. 293 – 297.

6. A.N. Bobogulov., A.U. Erkaev., Z.K. Toirov., Kucharov B.Kh. Investigation of the process of carbonization of potassium chloride solutions in the presence of diethylamine. // Modern problems and prospects of chemistry and chemical and metallurgical industries, Republican scientific and technical conference, Navoi-2018, 38-39 Art.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLARNING “OMMAVIY MADANIYAT” TAHDIDIGA QARSHI KURASHI

Erkaboyev Oybek Muxammadjonovich,

Farg‘ona davlat universiteti matematika-informatika fakulteti yoshlar
masalalari va ma’naviy-marifiy ishlar bo‘yicha dekan o‘rinbosari.

G‘aniyev Oybek Toshpo‘latovich,

Farg‘ona davlat universiteti matematika-informatika fakulteti tyutori.

Gmail: oerkaboyev@gmail.com

Bugungi kunda insonning ma’naviy omili uchun kurash hal qiluvchi masala bo‘lib borayotganligi hech kimga sir emas. Globallashuv jarayonlarining tezlashib borishi hozirgi davrning xarakteri va mazmunini belgilovchi omilga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o‘zining “Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g‘oyamizning poydevoridir” nomli asarida hozirgi davrni quyidagicha xarakterlab beradi: “Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana birov yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamoqdalar... Ammo ko‘pchilikning ongida bu davr globallashuv davri tariqasida taassurot uyg‘otmoqda. Bunday ta’rif, meningcha, ko‘p tomondan masalaning mohiyatini to‘g‘ri ifodalaydi. Nega deganda, hozirgi paytda yer yuzining qaysi chekkasida qanday voqea yuz bermasin, odamzot bu haqda dunyoning boshqa chekkasida zudlik bilan xabar topishi hech kimga sir emas. Shu ma’noda globallashuv – bu, avvalo, hayot sur’atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir”.

Globallashuv tez sur’atlar bilan kengayib, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-ma’naviy hayotning barcha sohalarini qamrab olayotgan sharoitda, uning ijobiy va salbiy tomonlari yuzaga chiqmoqda. Ma’lumki, XXI asrda davlatlar va xalqlar

o'rtasida integrasiya, o'zaro hamkorlik aloqalari, chet el investisiyalari, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar yaratilishi, axborot kommunikasion texnologiyalarini misli ko'rilmagan tarzda kengayishi va rivojlanishi, inson intellektual salohiyatining o'sishi, sivilizasiylararo muloqotning yangicha sifatlarini yuzaga kelishi ro'y beradi va yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bular globallashuvning ijobiy tomonlari.

Bu jarayonning salbiy tomoni shundaki, "ommaviy madaniyat" mafkura qiyofasiga kirib, yoshlarni, umuman, insonlarni qalbi va ongini egallash, odamlarni zombiga aylantirish, ma'naviy qashshoq qilib qo'yishning dahshatli quroliga aylangan.

Bugungi kunda mafkuraviy hurujning eng xavfli va yovuz ko'rinishi – bu "erkinlik va demokratiyani olg'a siljitish" niqobi ostida ma'naviy tajovuzni amalga oshirayotgan "ommaviy madaniyat"dir. Yurtboshimiz shu munosabat bilan ana shunday tajovuzkor tahdidlarning oldini olish, ta'sirini zararsizlantirish uchun "...yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi tamoyillarini qaror toptirish, ularni giyohvandlik, ahloqsizlik, chetdan kirib kelayotgan har xil zararli ta'sirlardan, "ommaviy madaniyat" niqobi ostidagi tahdid va xatarlardan asrash masalalari bir zum ham e'tiborimizdan chetda qolmasligi darkor", deb uqtiradi.

"Ommaviy madaniyat" mafkuraviy poligondan o'z maqsadlari yo'lida turli axborot informasion vositalari – radio, televideniye, kino, matbuot, uyali telefon, internet tizimidan, turli bezak-rasmlı jurnallardan, arzon "cho'ntak" kitoblardan, pornografik nashrlardan foydalanmoqda. Asosiy e'tiborni ular hali dunyoqarashi shakllanib ulgurmagani g'o'r yoshlarning hayot tarzini buzish, ongini zaharlashga qaratadi.

"Ommaviy madaniyat" vositasida inson hayoti va faoliyatining barcha tomonlarini, shuningdek, turmush tarzi, yashash sharoiti va usuli, kiyinishlaridan tortib, uning qiziqishigacha, mafkuraviy qarashlaridan tortib to diniy, ruhiy, hattoki oilaviy-intim munosabatlarigacha egallab olish rejasini tuzdilar. Bu ham yetmagandek, "ommaviy madaniyat" yetakchilari butun dunyo madaniyatini

bo'ysundirish siyosatini amalga oshirish uchun barcha axborot informasion tarmoqlarini egallab olishga intilmoqda.

Mamlakatimizda yoshlarni informasion madaniyatini, ularning g'oyaviy-mafkuraviy sog'lomligini saqlashning mustahkam tizimi shakllangan. Yoshlarimiz hayotidan zamonaviy IT texnologiyalari sohasidagi yutuqlari tobora mustahkam o'rin egallayotganligi quvonarli holdir. Bu haqda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o'z nutqida ta'kidlab o'tdi va ulardan IT tizimidan foydalanish madaniyatni oshirish yo'lida foydalanish zarurligini qayd etdi. Shu ma'noda, uyali telefon va internet tizimidan foylanuvchining odob-axloqi, dunyoqarashi, ma'naviyati qay darajada ekanligiga e'tibor berish kerak. "Ommaviy madaniyat" o'zining targ'ibot-tashviqotini ayni ma'naviyati past, dunyoqarashi zaif yoshlar qatlamiga qaratilayotganini unutmash kerak.

Bizning fikrimizcha, "Ommaviy madaniyat"ga qarshi kurash muntazam va barcha usul-vositalardan samarali foydalangan holda olib borilishi zarur.

Birinchidan, "ommaviy madaniyat" olib borayotgan g'oyaviy-mafkuraviy tashviqot-targ'ibotning asl mohiyatini ko'zlagan yovuz maqsadlarini yoshlarga ochiq-oydin tushuntirish;

ikkinchidan, yoshlarning axborot olish va undan foydalanish tizimini atroflicha o'rganish, mazkur turdagi tizimlarni tartibga solishning yangicha huquqiy va madaniy mexanizmlarini ishlab chiqish;

uchinchidan, yoshlarda axborot-informasion jarayonlarga yondashishning ilmiy va amaliy asoslangan, ularda axborotni saralash hamda keraksiz ma'lumot va behayo ko'rsatuvlardan o'z ixtiyori bilan voz kecha olish ko'nikmasini shakllantirishga erishish;

to'rtinchidan, "ommaviy madaniyat"ning mudhish mohiyatini to'la-to'kis fosh etishda asrlar osha xalqimizda shakllangan mahalla, o'zaro yordam, ezgulik va beg'uborlik tamoyillaridan, ta'lim-tarbiya, suhbat-muloqot jarayonlaridan unumli foydalanish;

bashinchidan, ma'naviyatni kemiruvchi "ommaviy madaniyat" kabi zararli ta'sirlardan saqlash va ularga qarshi turish uchun yoshlarda sog'lom mafkuraviy immunitetni shakllantirish, ogohlikni bir daqiqa ham boy bermaslik kabi vazifalardan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш. М. Инсонпарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик-миллий ғоямизнинг пойдеворидир [Матн] : Маъруза / Шавкат Миромонович Мирзиёев.— Тошкент : Tasvir, 2021. – 36 бет :
2. О.М. Эркабоев. Наука в системе высших школ Республики Узбекистан. Архивариус. с 24-27
3. E.O. Muhammadjonovich. Determination of the physical status of secondary school students through sociological research. Berlin Studies Transnational Journal of Science and 2022. 1-5

MA'NAVIY TAHDID - YOSH AVLOD KELAJAGIGA TAHDID

Erkaboyev Oybek Muxammadjonovich,

Farg'ona davlat universiteti matematika-informatika fakulteti yoshlar masalalari va
ma'naviy-marifiy ishlar bo'yicha dekan o'rinbosari.

Mamatqulov Ilhom Abdumannonovich,

Farg'ona davlat universiteti matematika-informatika fakulteti tyutori.

Gmail: oerkaboyev@gmail.com

Ta'lim-tarbiya ishlarida ota-onalar, ustozlar, butun jamiyat birgalikda harakat qilishlari lozim bo'ladi. Afsuski, ko'pincha ota-onalar bu ustozlarning ishi, deya loqayd bo'ladilar. Ular, bola tarbiyasi izdan chiqib, jinoyat sodir qilgandagina, nega shunday bo'ldi, kimlar uni yo'ldan urdi, deb yana aybni boshqalardan qidira boshlaydilar.

Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, "Oldimizga qo'ygan olijanob maqsad-muddaolarimizga yetish, eski mafkuraviy asoratlardan batamom xolos bo'lish, g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, begona va yot g'oyalarning hurujidan himoyalanih, bunday tajovuzlarga qarshi tura oladigan har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazish zarurati xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlariga mos yangi mafkurani shakllantirishni taqozo etmoqda".

Ayniqsa, yoshlar atrof-muhitdagi salbiy holatlar ta'sirida jinoyat qilishga moyil bo'lib boradilar. O'g'irlik, bosqinchilik va chayqovchilik bilan shug'ullanayotgan kishilar orasida ba'zan talabalar va maktab o'quvchilarining uchrab turishi achinarli hol, albatta. Ma'lumki, islom ta'limotida harom hamda halol tushunchalari mavjud bo'lib, g'iybat, zino, poraxo'rlik va ichkilikbozlik kabi illatlar qoralangan. Shunday bo'lishiga qaramasdan, yoshlar orasida ichkilikbozlik, giyohvandlikka moyil yoshlar ham bor. Giyohvandlik domiga tushib qolgan yoshlar har qanday vaxshiyliklardan

ham qaytmaydilar. Buning natijasida jamiyatda turli jinoyatlar sodir bo'ladi. Ularning oilasida tinchlik va farovonlik yo'qoladi. Bunday holatlar oldini olish uchun, avvalo, yoshlarning bo'sh vaqtlarida nimalar bilan mashg'ul bo'layotganliklariga, qanday fikr-o'y va hayollar bilan yashayotganliklariga, ularni nimalar qiziqtirishiga va ular kimlar bilan aloqa qilayotganliklariga jiddiy e'tibor berish lozim.


Ma'naviy tahdidlardan yana biri odamlarning diniy mutaassib oqimlar ta'siriga tushib qolishidir. Diniy ekstremistik guruhlar o'z maqsadlariga yetishishlari uchun nega yosh yigit va qizlarni tanlaydilar, ularni bunday ishlardan ko'zlagan asosiy maqsadlari nima, natijada nimaga erishmoqchilar kabi savollarga yoshlarimiz aniq javoblarni bilishlari kerak bo'ladi.

Hozirgi kunda dunyo xalqlari uchun katta tahdidlardan biri OITS (Orttirilgan immun tanqisligi sindromi) kasalligi – o'ta xavfli virus qo'zg'atuvchi kasallik bo'lib, bu kasallik natijasida insonning umri qisqarib, oxiri o'lim bilan tugaydi. "OITS organizmga jinsiy aloqa, parenteral muolajalar (nosteril igna, shpris va boshqa tibbiy anjomlar ishlatilganda), infisirlangan qon va uning o'rnini bosuvchi dorilarni qo'llash, a'zo va to'qimalarni ko'chirib o'tkazish (transplantasiya) vaqtida, shuningdek, virusni yuqtirib olgan onadan homilaga homiladorlik davrida, tug'ish jarayonida va go'dak emiziladigan bo'lsa, ko'krak suti bilan yuqib qolishi mumkin".

Yoshlarning kelajagiga salbiy ta'sir etuvchi bunday kasalliklardan himoyalash uchun ular ongida oilaga, Vatanga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, bu tushunchalarning nechog'lik muqaddas ekanligini anglatish va ular ongini bunyodkor g'oyalar bilan boyitish zarur.

Bizga ma'lumki, g'oyalar ikki guruhga bo'linib, bunyodkor g'oyalar insonni ulug'lab, ezgu ishlar qilishga, ona yurti, xalqi, oilasi uchun fidoiy inson bo'lishga undaydi. Masalan, vatanparvarlik, ozodlik, mustaqillik, diniy bag'rikenglik, ezgulik va shu kabilar. Vayronkor g'oyalar esa insonni tuban fikrlashga, uni yo'ldan ozdirishga, xalqlar o'rtasiga nizo solishga hamda yoshlar dunyoqarashini salbiy g'oyalar bilan buzishga qaratilgan bo'ladi. Masalan, yovuzlik, shovinizm, bosqinchilik, tajovuzkorlik va xakozolar? Tan olish kerakki, dunyoda son jihatidan

olinsa, mutloq yovuz odamlar juda kamchilikni tashkil qiladi. Shunday ekan, qanday qilib juda ozchilik bo‘lgan bu toifa ba’zan millionlab insonlar ustidan o‘z hukmini yurgiza boshlaydi? Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning “Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir” kitobida mazkur masalalar atroflicha yoritilgan bo‘lib, jumladan, “ommaviy madaniyat” hodisasi haqida ham batafsil ma’lumot berilgan.



“Ommaviy madaniyat” hodisasi asosida bir necha omillarning chatishuvi yotadi. Ulardan birinchisi - imonsizlik, o‘z insoniy burchi va mas’uliyatini tan olishni istamaslik, befarqlik va loqaydlik. Ikkinchisi - sanab o‘tilgan qusurlarni oqlashga xizmat qiluvchi “dunyoni manfaat boshqaradi” (demak, bu dunyoda har kim o‘z foydasi uchun qo‘lidan kelgan harakatini qilsa, bo‘laveradi, degan) dahriyona (aniqrog‘i, xudbinona) tezis (“qoida”) asosida yashash. Bu ikki omil azaldan bo‘lgan. Uchinchisi – oldingilaridan kelib chiqadigan axloqiy relyativizm, ya’ni dunyoda azaliy va abadiy qat’iy axloqiy me’yorlar mavjud emas, ko‘pchilik o‘zini qanday

tutayotgan bo'lsa, biz ham shunga qarab ketaveramiz, degan o'ysizlik, fikriy dangasalik tamoyili. Va nihoyat to'rtinchisi - befarqlik va o'ysizlik botqog'iga botgan kimsalarning dunyoni boshqarishga intilayotgan kichik bir guruh qo'lida qo'g'irchoqqa aylanib, o'zlarining eng tuban hayvoniy xohish va istaklarini ochiqdan-ochiq namoyon qilishni "umuminsoniy axloqiy meyorlar" darajasiga ko'tarishga urinishlaridir.

Tabiiyki, "ommaviy madaniyat" degan niqob ostida axloqiy buzuvchilik va zo'ravonlik, individualizm, egosentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylilik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlarini, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш. М. Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir [Матн] Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi
2. О.М. Эркабоев. Наука в системе высших школ Республики Узбекистан. Архивариус. с 24-27
3. E.O. Muhammadjonovich. Determination of the physical status of secondary school students through sociological research. Berlin Studies Transnational Journal of Science and 2022. 1-5

XALQARO BAHOLASH DASTURLARINING TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI

F.O.Mirzayeva

Nizomiy nomidagi TDPU Pedagogika kafedrasida dotsenti

Xoshimov Shoxruxbek Muzaffarovich

Toshkent davlat yuridik universiteti qoshidagi akademik

litseyning II-kurs o'quvchisi

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lgan yoshlarning bilim, ko'nikma va malakalarini, kompetentsiyalarini, ijodiy g'oyalari va ijodkorligini shakllantirish, hamda ilg'or horijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lda xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish muhim ahamiyatga egadir.

Yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash, ta'lim sifatini oshirish, xalqaro nufuzli reytinglarda munosib o'rinlarni egallash masalalariga davlat siyosati darajasida, alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada "Ta'lim to'g'risida"gi qonun¹, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda 997-son qarori², 2019-yil 29-aprelda «O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-son Farmonlari, 2020-yil

¹ "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. O'RQ-637, 23.09.2020y. <https://lex.uz/docs/-5013007>

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish to'g'risida" gi 997-son Qarori.

27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

“Bugungi kunda, ta’lim - nafaqat o’quvchilarga biror narsani o’rgatish, balki ularga tobora murakkablashib va o’zgarib borayotgan dunyoda, o’ziga bo’lgan ishonch bilan ildam harakatlanish uchun yordam beradigan zaruriy vositalar (imkoniyatlar) bilan ta’minlash jarayonidir”³. Ta’lim sifati va samaradorligini oshirish yo’lida xorijiy ilg’or tajribalarni o’rganish, xalqaro standartlarni joriy etish, mavjud tizimni qiyosiy tahlil qilish va zamon talablariga javob beradigan milliy baholash tizimini takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega.

Ushbu maqsad yo’lida O’zbekiston Respublikasi hukumatining qarori⁴ qabul qilinib, unga muvofiq, o’quvchilar savodxonligini baholash bo’yicha xalqaro PISA⁵, Matnni o’qib tushunish darajasini baholash bo’yicha PIRLS⁶, Matematika va tabiiy-ilmiiy fanlar bo’yicha xalqaro o’rganish tendentsiyasi TIMSS⁷, O’qitish va o’rganish bo’yicha xalqaro so’rovnoma TALIS⁸ tadqiqotlarida O’zbekiston Respublikasi umumta’lim muassasalarining ishtirokini ta’minlash vazifalari belgilandi.

Mazkur tadqiqotlar nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan amalga oshirilib, professional va ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida tashkil etiladi. O’z navbatida ushbu tadqiqotlarda ishtirok etish uchun kirishgan davlatlarda alohida tuzilmaning (ko’p hollarda Milliy markaz deb yuritiladi) mavjud bo’lishi tadqiqotlar muvaffaqiyatli amalga oshirilishining asosiy omillaridan hisoblanadi. Chunki, xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko’rish va uni tashkil etish uchun alohida ilmiy va professional darajadagi yondashuv talab etiladi. Ushbu maqsad yo’lida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tizimida

³Andreas Schleicher, Иктисодий ҳамкорлик ва тараққиёт ташкилоти, Таълим ва кўникмалар департаменти директори, PISA дастури асосчиси. <https://www.oecd-ilibrary.org/sites/2c0d9903-en/index.html?itemId=/content/component/2c0d9903-en>

⁴O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida” 2018-yil 8-dekabrda 997-son qarori. www.lex.uz

⁵Program for international student assessment. <https://www.oecd.org/pisa/>

⁶Progress in international reading literacy study. <https://pirls.bc.edu/>

⁷Trend in international Mathematics and Science study. <https://timss.bc.edu/>

⁸Teaching and learning international survey. <https://www.oecd.org/education/talis/>

Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etildi.

Milliy markazning asosiy vazifalari etib, xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish va muvofiqlashtirishda O'zbekiston Respublikasining vakili sifatida ishtirok etish(1); o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish(2); ta'lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o'rnatish, loyihalar ishlab chiqish va amalga oshirish(3); fundamental va amaliy tadqiqotlar o'tkazish(4); tadqiqotlarni ilmiy va uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash(5); umumiy o'rta ta'lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash(6); xalqaro baholash dasturlarida qayd etilgan natijalarni dunyo mamlakatlari bilan qiyosiy taqqoslash va boshqalar belgilandi. Qarorda belgilangan vazifalarni «Yo'l xaritasi»ga muvofiq tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda amalga oshirib borilmoqda.

“O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi” asosida ushbu dasturlarda ishtirok etish masalasi yanada mustahkamlab qo'yildi hamda o'quvchilarning bilim darajasini baholashda PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish ko'zda tutildi. Shuningdek, kontseptsiyaning maqsadli ko'rsatkichlari belgilangan bo'lib, unga ko'ra PISA baholash dasturi reytingida O'zbekistonning 2030 yilga kelib, birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlar qatoriga kirish maqsadlari ilgari surilgan. Ushbu maqsadli ko'rsatkichlar ortida, O'zbekistonning milliy ta'lim tizimini rivojlantirish, jozibadorligini oshirish, o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan milliy baholash tizimini yaratish maqsadlari ilgari surilgan⁹.

Xulosaga qilib aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida xalqaro baholash dasturlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim sifatini xorijiy mamlakatlar bilan taqqoslash, shuningdek, solishtirma tahlillar asosida ta'lim

⁹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi farmoni. Toshkent shahri, 2019-yil 29-aprel, www.lex.uz

sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan strategik qarorlar qabul qilish, tadqiqotlarda uzluksiz ishtirok etish va davriy ravishda o'zgarishlarni kuzatib borishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan. Shu bilan birga, ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun zaruriy hujjatlar tasdiqlangan, mazkur sohada salohiyatni va kasbiy rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan o'quv-metodik va video materiallar ishlab chiqilgan.

БАЪЗИ КЕТМА - КЕТЛИКЛАР ЙИҒИНДИСИНИ АЖОЙИБ ЛИМИТЛАР ЁРДАМИДА АНИҚЛАШНИНГ БИР ИННОВАЦИОН УСУЛИ

Қўшмуротова Нуржахон Ибодиллаевна

Навоий шаҳар 10-умумий ўрта таълим мактаби

математика фани ўқитувчиси

Ушбу маърузада ажойиб лимитларни бевосита татбиқ этиш ёрдамида $\lim_{n \rightarrow \infty} \sum_{k=1}^n f(k_r, n)$ кўринишда йиғиндини ҳисоблашни осонлаштирувчи теорема келтирилади ва унга оид масалаларнинг ечимлари аниқланади. Бунинг учун қуйидаги теоремани исботсиз келтирайлик [1].

Теорема. Агар $\lim_{x \rightarrow 0} \frac{\varphi(x)}{\psi(x)} = 1$, $\alpha_{kn} \rightarrow 0$ бажаралиб, k ва n лар шундай α_{kn}

кетма-кетлик мавжуд бўлсаки, у қуйидаги шартларни қаноатлантирса

а) $k \in N, n \rightarrow \infty \alpha_{kn} \rightarrow 0$

б) $|\alpha_m| < \varepsilon > 0$,

у ҳолда қуйидаги муносабат ўринли

$$\lim_{n \rightarrow \infty} (\varphi(\alpha_{1n}) + \varphi(\alpha_{2n}) + \dots + \varphi(\alpha_{mn})) = \lim_{n \rightarrow \infty} (\psi(\alpha_{1n}) + \psi(\alpha_{2n}) + \dots + \psi(\alpha_{mn}))$$

Бу ерда $\varphi(\alpha_{kn}) > 0$ ва $\psi(\alpha_{kn}) > 0$

Энди теоремани кетма-кетликлар йиғиндисини аниқлашга татбиқ этайлик:

1. $\lim_{n \rightarrow \infty} \sum_{k=1}^n \left(\sqrt[3]{1 + \frac{k}{n}} - 1 \right)$ (2) ни ҳисобланг. (2) йиғиндини ҳисоблаш учун

қуйидаги муносабатлардан фойдаланайлик.

$$\lim_{n \rightarrow \infty} \frac{\sqrt[3]{1 + \frac{k}{n^2}} - 1}{\frac{k}{3n^2}} = 1 \quad (3)$$

Теорема шартини ва (3)ни ҳисобга олсак,

$$\lim_{n \rightarrow \infty} \sum_{k=1}^n \left(\sqrt[3]{1 + \frac{k}{n^2}} - 1 \right) = \lim_{n \rightarrow \infty} \left(\frac{1}{3n^2} \sum_{k=1}^n k \right) = \frac{1}{6} \lim_{n \rightarrow \infty} \frac{(n+1)n}{n^2} = \frac{1}{6}$$

2. $\lim_{n \rightarrow \infty} \sum_{k=1}^n \left(\sqrt[m]{1 + \frac{k\alpha}{n^2}} - 1 \right)$ (4) ни ҳисоблайлик.

Бу ерда $\alpha \geq 0$, $m \in N$ (яъни умумий ҳолни қарайлик)

$$\lim_{n \rightarrow \infty} \frac{\sqrt[m]{1 + \frac{k\alpha}{n^2}} - 1}{\frac{k\alpha}{n^2}} = 1 \quad \lim_{n \rightarrow \infty} \sum_{k=1}^n \left(\sqrt[m]{1 + \frac{\alpha k}{n^2}} - 1 \right) = \lim_{n \rightarrow \infty} \frac{\alpha}{mn^2} \sum_{k=1}^n k = \frac{\alpha}{m} \lim_{n \rightarrow \infty} \frac{n(n+1)}{2n^2} = \frac{\alpha}{2m}$$

3. Қуйидаги кетма-кетликни йиғиндисини аниқланг.

$$\lim_{n \rightarrow \infty} \sum_{k=1}^n \ln \left(1 + \sin \frac{ka}{n^2} \right) = 1 \quad (5)$$

(5) дан фойдаланиб (4) ни қуйидаги кўринишдаги йиғиндини аниқлашга олиб келиш мумкин.

$$\lim_{n \rightarrow \infty} \sum_{k=1}^n \ln \left(1 + \sin \frac{ka}{n^2} \right) = \lim_{n \rightarrow \infty} \sum_{k=1}^n \sin \frac{ka}{n^2} \quad (6)$$

$$\lim_{n \rightarrow \infty} \frac{\sin \frac{ka}{n^2}}{\frac{ka}{n^2}} = 1 \quad \text{ни ҳисобга олиб, энди (6) ўнг томондаги лимитни топайлик:}$$

$$\lim_{n \rightarrow \infty} \frac{\sin \frac{ka}{n^2}}{\frac{ka}{n^2}} = 1 \quad \text{дан фойдаланамиз.} \quad \lim_{n \rightarrow \infty} \sum_{k=1}^n \left(\sin \frac{ka}{n^2} \right) = \lim_{n \rightarrow \infty} \left(\frac{a}{n^2} \sum_{k=1}^n k \right) = \frac{a}{2} \lim_{n \rightarrow \infty} \frac{n(n+1)}{n^2} = \frac{a}{2}$$

Демак, $\lim_{n \rightarrow \infty} \sum_{k=1}^n \ln \left(1 + \sin \frac{ak}{n^2} \right) = \frac{a}{2}$

Умумий ҳолда юқоридаги теоремани бир неча марта қўллаб, қуйидаги муносабатларни ўринли эканлигини исботлаш мумкин.

$$1^0 \lim_{n \rightarrow \infty} \sum_{k=1}^n \left(\sqrt[m]{1 + \frac{k^2}{n^4}} - 1 \right) = \frac{1}{4m} \quad 2^0 \lim_{n \rightarrow \infty} \sum_{k=1}^n \left(\sqrt[m]{1 + \frac{k^p}{n^{p+1}}} - 1 \right) = \frac{1}{m(p+1)}$$

$$3^0 \lim_{n \rightarrow \infty} \sum_{k=1}^n \sin \frac{k^p x}{n^{p+1}} = \frac{x}{p+1} \quad \text{бу ерда } p \in N$$

АДАБИЁТЛАР

1. Ляшко и др. Справочное пособие по математическому анализу Изд. «Выща школа» Киев 1984.

INVESTIGATION OF THE EXCITATION OF SUBHARMONIC OSCILLATIONS IN THREE-PHASE ELECTROFERROMAGNETIC CIRCUITS

Tovbayev Akram Nurmatovich, Boynazarov G‘ayrat

Navoi State Mining and Technological University

In this work the properties three-phase electroferromagnetic circuit opisyvajushhejsja using systems of nonlinear differential equations in general form a mathematical model of the phenomenon avtoparametricheskij oscillation. The adequacy of the developed mathematical model is achieved, taking into account the key factors and conditions in which covered the process. With increasing the adequacy of mathematical model is complicated by its appearance, algorithmization tasks on a PC.

Keywords: nonlinear circuit avtoparametricheskie oscillation, frequency converter, finite-difference methods numerical methods, mathematical models.

Considered three-phase electroferromagnetic chains described using systems of nonlinear differential equations (a combination of differential operators), forming a mathematical model of the phenomenon. the adequacy of the developed mathematical model is achieved, taking into account the key factors and conditions in which occurs the process under consideration. With increasing the adequacy of mathematical model is complicated by its appearance, algorithmization of tasks on a PC.

When this special place is given to the adequacy of the mathematical model and the efficiency of the algorithm implemented on the PC.

The adequacy of the model are closely related to the ability to get almost important conclusions and recommendations. You should note that if a mathematical model is adequate, it allows not only to determine the quantitative characteristics of

the studied processes, but also to discover new phenomena considered processes. [1,2, 3].

One of the basic techniques, which makes it possible to determine the trend of the desired variables is finite-difference approximation of differential operators of the mathematical model of the process. The widespread use of the finite-difference methods for solving the problems of technological process resulted in a comprehensive study of them, both in terms of forecasting the object over time and the impact on them through a set of technical and mathematical parameters.

Solve complex problems using finite-difference methods tend to represent a combination of differential build analogues tasks, how to implement them. Therefore, progress in constructive theory of finite-difference methods must mutually agree development of these two areas of research. When developing numerical methods should involve all available methods of studying tasks: analytical, accurate decisions asymptoticheskie evaluation, dimensional analysis, and experimental data [4, 5]. Numerical methods implemented on the PC in terms of computational experiment must be economical, versatile, also shodimymi and stable relative to rounding errors. When dealing with complex tasks, should pay particular attention to the conservative finite-difference analogues of the considered processes, based on the law of conservation of energy.

In order to write the differential scheme of approximating describes the differential equation with specified initial conditions, you must take the following steps: you must select the step of integrating temporary layer which provides a conservative course-difference model; spot area of flux argument (time) in the area of discrete it changes; replace the differential operators some differential operator, as well as formulate a Delta equivalent to primary data.

As a result, on the basis of the above procedure, you can solve a math problem using PC. Look at the technology of computing experiment, with which you can solve the technological problem. Lately, both in the domestic and foreign research

great attention is given to the numerical experiment as a method of research using new information technology [6, 7,8].

To conduct numerical experiment, you must select the specific method and algorithm for solving the problem. Analytical methods for solving technological challenges suitable for simplified models of the process in which it is impossible to take into account all the natural factors, boundary and initial conditions. With the advent of a new generation of PC with great speed and memory began to develop, and numerical methods are effectively implemented on PC for the decision of tasks of technological processes.

The focus of computational experiment is the control and analysis of the results of the calculations on the basis of certain criteria for the evaluation of numerical calculations. Under the supervision of the computational experiment should understand numerical experiment complex activities which provide reliable results with a given degree of accuracy. Numerical experiment control procedure computing experiment includes the material balance equation, the conservation laws of various types, etc.

Another issue holding numerical experiment is saving time implementation of this task and memory PC. This goal is achieved by increasing the integration time step. But here it must be emphasized that increasing the integration step can lead to a wrong result because of rounding error accumulation.

To avoid such situations in the present work used uneven step integration to a temporary variable, resulting in fewer nodes, thereby decreasing the amount of processing on the PC, which leads to slower growth errors rounding errors. To achieve this goal, measure error of approximation should be changed in the interval.

$$2^{-g} \cdot \varepsilon \leq \Delta t \leq \varepsilon,$$

where - $\varepsilon > 0$, $g \geq 1$

Constant parameters defined in the course of computing experiment. Given the above conditions, integration time step is selected as follows:

$$\Delta t_p = \begin{cases} 0.5\Delta t_{p-1}, & \Delta t > \varepsilon, \\ 2\Delta t_{p-1}, & \Delta t < 2^{-g} \cdot \varepsilon. \end{cases}$$

Definition Δt must run from the condition

$$\Delta t' < \Delta t_p < \Delta t'',$$

Where is $\Delta t''$ - -determined by demand conditions of stability and convergence of the computational algorithm; $\Delta t'$ Select from reasons to limit the growth of rounding errors.

Thus, identifies the main criterion for holding numerical calculation on a PC with which you can implement the tasks sequentially.

LITERATURES

1. А.Н. Товбаев. Частотно-энергетические соотношения при анализе автопараметрических колебаний. Горный вестник, Узбекистан, 2017 стр.165-170,
2. Kadomskaja K. N., Markvjavichus L. V. Studying of internal overvoltage in distant jelektropredachah to EDCM//Electricity. –М.: 1967. -№ 7
3. A Tovboev, M Ibodulaev, M Baranova, I Grishina IOP [Analysis of autparametric oscillations in three-phase electro-ferromagnetic circuits](#) Conference Series: Materials Science and Engineering 862 (6), 062041
4. Ibadullaev M.I, Tovbaev A.N, Esenbekov A.Z. [Self-oscillations at the frequency of subharmonics in nonlinear electric chains and systems](#)// E3S Web of Conferences 139, 01054
5. Ибадуллаев М.И., Товбаев А.Н., Есенбеков А.К. - [Автоколебания на частоте субгармоник в нелинейных электрических цепях и системах](#) E3S Web of Conferences, 2019 стр.181-187.

6. M Ibadullaev, AN Tovbaev. [Research of ferr-resonance oscillations at the frequency of subharmonics in three-phase non-linear electric circuits and systems](#)

E3S Web of Conferences 216, 01113, 2020

7. А.Н Товбаев, А.А Хамзаев, О.У Зохидов, А.А Идиева [Выбор оптимального электропривода для подвода электроэнергии карьерных одноковшовых экскаваторов](#) - Интернаука, 2018 стр.54-56

8. Хафизов Р.Р., Гусаков Д.В., Зарипов Р.Ф. Феррорезонансные явления в сетях различного класса напряжения и методы борьбы с ними// Вторая российская молодежная научная -конференция «Энергетика, электромеханика и энергоэффективные технологии глазами молодежи» г. Уфа 2014 с. 249-250.

O‘QUVCHILARNING DASTURLASHGA BO‘LGAN QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHDA SCRATCH DASTURLASH TILIDAN FOYDALANISH

Sadoqat Xoliqulovna Normurodova

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Sadoqatnormurodova33@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalar uchun dasturlashni o‘rgatishda Scratch dasturlash tilidan foydalanishning bir qator afzalliklari keltirib o‘tilgan. Scratch orqali o‘qitishning muammo va loyiha usulidan foydalanish mumkinligi, afzalliklari ko‘rsatib o‘tilgan. Scratch dasturlash tili bolalar uchun maxsus ishlab chiqilgan oson va intuitiv dasturlash muhiti ekanligi asoslanib berilgan.

Kalit so‘zlar: Metodika, dasturlash, vizual rivojlanish, Scratch, ijodiy fikrlash, ta’lim, o‘yin, animatsiya, xarakter, sahna.

Abstract: This article highlights some of the benefits of using the Scratch programming language to teach programming to children. The possibility and advantages of using the problem and project method of teaching through Scratch are shown. The Scratch programming language is based on the fact that it is an easy and intuitive programming environment specially designed for children.

Keywords: Methodology, programming, visual development, Scratch, creative thinking, education, game, animation, character, stage

KIRISH


Bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri yoshlarimizni ijodiy fikrlashga yo‘naltirish hisoblanadi. Bu esa tayyor mahsulotlarni ishlatish emas, balki mahsulotni o‘zini ishlab chiqishni rivojlanishiga olib keladi. Buni informatika faniga

bog'laydigan bo'lsak o'quvchilar tayyor dasturlarni ishlatishni emas balki dastur tuzishni o'rganishlari kerakligini anglatadi. Bugungi kunda yosh avlod axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida katta tajriba va bilimlarga ega, ammo yangi texnologiyalar yordamida dasturlarni yaratish, o'zlarini yangi texnologiyalar yordamida ifoda etish sezilarli darajada emas. Xuddi ular o'qiy oladi-yu, ammo yozolmayotgandek.

Agar o'quvchilar kompyuter dasturlari, mobil ilovalar, veb-saytlar, o'yinlar yoki boshqa dasturlarni yaratishni o'rganishni istahsa dasturlashni o'rganishlari kerak. O'quvchilar kompyuterda mavjud barcha imkoniyatlarining asosi dastur ekanligini yaxshi bilishadi, lekin ular dasturlash tillarini murakkab hisoblashib o'rganishdan chetlashishadilar. O'quvchilar dasturlash tillari haqida o'ylashganda, sintaksis qoidalarini o'rganish kerakligi, to'rtburchak qavs va nuqta qo'yish joylari to'g'risida doimo bosh qotiradilar. Hozirda esa ushbu muammoni bartaraf etadigan, dasturlashni oson va qiziqarli o'rgatadigan Scratch dasturlash tili maktabning 5-sinf informatika darsligida kiritildi. Bu dasturlash tili o'quvchilarni ijodiy fikrlab, dinamik o'yinlarni yaratib, dasturlashni o'rganishlarida ilk qadamlarini tashlashlarida yordam beradi. Asta-sekin odamlar dasturlash ko'nikmalarining muhimligini anglay boshlamoqlar. Dasturlash bolalar uchun ko'plab yangi hodisalarni, o'rganish uchun ko'plab yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Xuddi o'qish va yozish kabi: agar siz o'qish va yozishni bilsangiz, siz juda ko'p turli xil narsalarni o'rganishingiz mumkin. Avval o'qishni o'rganasiz, keyin esa o'rganish uchun o'qiysiz. Xuddi shu narsa dasturlash bilan sodir bo'ladi: avval siz dasturlashni o'rganasiz, so'ngra o'rganishni dasturlashtirasiz. Raqamli dunyoda eng muhim va zarur til bu dasturlash tili.

Shu o'rinda Scratch dasturi haqida qisqacha to'xtalib o'tsak. Scratch - bu sodda va ishlatilishi oson, bolalar va o'spirinlar uchun yaratilgan vizual voqealarga yo'naltirilgan dasturlash muhiti. Scratch rivojlantirish muhiti - bu nisbatan yaqinda ishlab chiqilgan, 8 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar uchun o'yin dasturlari, animatsiya, animatsion personajlar va turli xil qiziqarli narsalarni ishlab chiqish imkoniyatini beradigan vizual dasturlarni ishlab chiqish tizimi [1]. Avvalo quyidagi

dastur interfeysi (1-rasm) ko‘rinishi o‘quvchilarda ilk bor ko‘rishning o‘zidayoq qiziqish uyg‘otishi tabiiy. Chunki, intefeysdagi mushukcha sprayti o‘quvchida ular sevib tomosha qiladidan multfilm qahramonini gavdalantiradi. Uning harakati esa kompyuter o‘yinlarini o‘quvchi ongida akslanishiga sabab bo‘ladi.




1-rasm. Scratch interfeysi ko‘rinishi

Scratchda kompyuter dasturlari deyarli LEGO konstruktori kabi yaratiladi: ekranga animatsion belgilarni boshqaradigan grafik bloklar yig‘iladi. Shunday qilib, hikoya yoki o‘yin yaratish va grafik bloklarni ulash orqali turli xil belgilarning xatti-harakatlarini boshqarish mumkin. LEGO to‘plamidan turli xil konstruktsiyalarni yig‘ish singari, "Scratch" da ham interaktiv hikoyalar va o‘yinlar yaratish mumkin.

Scratch Logo tili va Lego konstruktori g‘oyalarining davomi sifatida yaratilgan. Scratch 1.4 Squeak tilida yozilgan, 2.0 va 3.0 Internetda ishlashga qaratilgan. Scratch 2.0 Flash va ActionScriptda qayta yozilgan. Scratch 3.0 (hozirgi versiyasi) Scratch 2.0 ning takomillashtirilgan versiyasidir va HTML5-da WebGL dvigatelidan foydalangan holda tayyorlandi, bu unga mobil qurilmalar va planshetlarda ishlashga imkon berdi. Scratch bolalar uchun Massachusetts texnologiya institutida dasturchilarning kichik guruhi tomonidan ishlab chiqilgan [2]. Amaldagi

versiyasi Scratch 3.0 bo'lib, 2019 yil yanvar oyida chiqarilgan. Scratch dasturlari grafik bloklardan iborat bo'lib, ularning sarlavhalari interfeys uchun tanlangan tilga bog'liq. O'zbek tilini ham o'z ichiga olgan 50 ta interfeys tilidan birini tanlash mumkin (2-rasm). Bundan ko'rinib turibdiki o'quvchi o'z ona tilida berilgan bloklarni tushunishi juda oson.



2-rasm. Scratchda til tanlash imkoniyati

Scratch dasturining asosiy tarkibiy qismlari sprite moslamalari. Sprite-kostyumlar ramkalari to'plami va skript grafik tasvirdan iborat. Scratch dasturining harakatlari sahnaning o'rtasida koordinatalar markazi bilan 480×360 (an'anaviy) piksel o'lchamdagi sahnada (bosqichda) sodir bo'ladi. Scratchda skriptlarni dasturlash uchun sudrab olib tashlash uslubi qo'llaniladi: bloklar palitrasidagi bloklar skriptlar maydoniga tortiladi.

Funksional maqsadi bo'yicha bloklar 10 guruhga bo'linadi, ma'lum bir guruhga tegishli blok uning rangi bilan ko'rsatilgan. Lego konstruktorlarida turli xil rangdagi elementlardan turli xil konstruktsiyalar yaratilgandek, turli xil rangdagi buyruqlar bloklaridan "tarkib topgan". Scratchda dasturni ishlab chiqish vizual dastur bloklarini bir-birining ostiga o'rnatish orqali amalga oshiriladi. Bu ham uning afzallik

tomonlaridan hisoblanib o'quvchi xotirasida ranglar orqali yaxshiroq saqlanishida yordam beradi.

Bundan tashqari, ushbu bloklar faqat to'g'ri sintaktik tartibda to'planishi mumkin, bu xato qilish imkoniyatini deyarli istisno qiladi. Dasturni o'zgartirish imkoniyati, shu jumladan u ishlayotgan paytda, bu vazifani hal qilishda turli g'oyalar bilan tajriba o'tkazishga imkon beradi. Eng oddiy buyruqlarni bajarish natijasida ko'plab elementlar bir-biri bilan bog'langan, bir-biridan xususiyatlari bilan ajralib turadigan murakkab model yaratiladi.

Steklarni nusxalash va bitta blok sifatida ko'chirish mumkin. Bu esa o'quvchiga yengilliklar yaratadi. Bitta stekga o'rnatilgan bloklar tizimini ikkinchi bir stekga ham nusxalash yo'li bilan o'rnatish mumkin. Bu qayta algoritmlashni bekor qilib vaqtdan yutish imkonini beradi. O'quvchida bu dasturlashga bo'lgan qiziqishini oshishida yana bir omil bo'lib xizmat qiladi.


Bugungi kunda muvaffaqiyatga erishish uchun, yangi narsalarni o'rganishingiz kerak, nostandart muammoning ijodiy yechimini topish zarur. Jamiyatda tobora ko'proq nostandart vaziyatlarga duch kelmoqdamiz, unda ijodiy fikrlash zarur. Shunday qilib, ijodiy fikrlash va harakat qilish qobiliyati har qachongidan ham muhimroqdir. Scratch yordamida bolalar o'z qobiliyatlarini rivojlantirish, boshqalarning ishlarida yordam berish va shunga o'xshash narsalarni qilish imkoniyatiga ega, lekin o'zlariga xos, o'z g'oyalarini ifoda etishlari va dunyo bo'ylab boshqalar bilan bo'lishishlari ham mumkin.


Bundan tashqari, ular Scratch tilida dasturlashni o'rganganlarida, bolalar nafaqat mantiqiy va algoritmik fikrlashni, balki multimedia bilan ishlash ko'nikmalarini ham rivojlantiradilar, faol, izlanuvchan o'rganish va har xil dasturlash uchun sharoitlar yaratiladi. Bolalar kompyuter dasturlarini tushunishni va yaratishni, turli muammolarni yechishda kompyuterdan foydalanishni o'rganadilar. Shunday qilib, eskirgan "kompyuter foydalanuvchisi" tushunchasidan "axborot makonining yaratuvchisi va hammuallifi"ga o'tishni amalga oshiradilar.

Massachusetts Texnologiya Institutining Media-laboratoriyasining LEGO Papert professor-o'qituvchisi Mitchell Resnikning fikricha – “ Dasturlash - o'qish va yozish savodxonligi kabi yuqori darajada bo'lishi kerak”. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni ijodiy fikrlashni o'rganishga jalb qilish, yangi texnologiyalar va texnikalarni vujudga kelishiga sabab bo'ladi [4].

Darhaqiqat, maktab yoshidagi bolalarda ijodiy fikrlash yuqori darajada bo'ladi. 7 dan 10 yoshgacha - intellektual va bevosita o'quv faollik, 11 dan 15 yoshgacha - tengdoshlari bilan muloqotga intilish, jamiyatda mavjud munosabatlarni o'zlashtirishga harakat, 16 dan - 18 yoshgacha - bilim va ta'lim olish, kasb egallashga harakatlar kuzatiladi [3].

Ko'rib chiqilayotgan dasturiy ta'minot muhitining asosiy afzalliklaridan yana biri, u bepul dastur bo'lib, har bir o'quvchi Internetdan dastur yuklab olib, ushbu dasturlash studiyasida o'qishni va ishlashni boshlashi mumkin. Chunki dasturlash tili mihi kutubxonasida uni o'rganish uchun dastur namunalari berilgan bo'lib, o'quvchilar ushbu namunalar orqali ham dasturlashni mustaqil o'rganishlari mumkin (3-rasm).





3-rasm. Mustaqil o‘rganish uchun namunaviy dasturlar jamlanmasi.

Scratch dasturi o‘qitishda muammo va loyiha usuli deb nomlangan o‘qitish usullarini qo‘llashga imkon beradi. Tilning asosiy konstruktsiyalarini o‘rganib chiqib, dasturning imkoniyatlarini o‘rgangandan so‘ng, kerakli dasturni ishlab chiqish va loyihalashtirish vazifasi beriladi. Ular turli xil senariylarni o‘z ichiga olishi mumkin, mavzular o‘qituvchi o‘quvchilarning yosh mezonlarini hisobga olgan holda beriladi, masalan, "Mening sevimli qahramonlarim", "Mening sevimli mashg‘ulotim", "Yangi hikoyalar"; reklama uchun animatsion kliplar; she’riy va ertakdagi hikoyalar; ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan fanlar asosida animatsion loyiha ishlab chiqish va boshqalar. Bu imkoniyatlarning barchasi o‘quvchida dasturlashni o‘rganishdagi qiziqishini ortishiga sabab bo‘ladi.

Taqdim etilgan o‘qitish texnologiyasi o‘quvchilarga dasturiy til imkoniyatlarini o‘rganish, "Informatika va Axborot texnologiyalari" fanini o‘rganish, ularning amaliy va texnologik ahamiyatini aniqlash uchun turtki beradi. Scratch ishlanmalarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ushbu dastur juda oson va tez o‘rganiladi va bola uchun intuitivdir. Biroq, ko‘rsatilgan soddaligiga qaramay, Scratch o‘quvchiga turli xil multimedia tizimlari bilan ishlashga imkon beradi, bu o‘quvchilarning qiziqishini

uygʻotadi, bolani umuman dasturlashni va xususan Scratch tilini oʻrganishga undashga yordam beradi. Bularning barchasi Scratch dasturlash tilining afzalliklaridan yana biri ekanligini koʻrsatadi.

Dasturiy taʼminot loyihalarini yaratish uchun Scratchda barcha kerakli vositalar mavjud: dasturlash tili, til mexanizmi (tarjimon), grafik muharriri, yordam tizimi, namunaviy loyihalar, rasmlar va ovozli fayllar kutubxonasi. Xulosa qilib aytganda, Scratch - bu turli xil dasturiy loyihalarni yaratish uchun vosita: multfilmlar, oʻyinlar, reklama roliklari, musiqa, "jonli" rasmlar, interaktiv hikoyalar va taqdimotlar, kompyuter modellari, muammolarni hal qilish uchun oʻquv dasturlari: trening, maʼlumotlarni qayta ishlash va namoyish qilish, modellashtirish, asboblarni boshqarish va koʻngil ochish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Super Scratch Programming Adventure! Learn to Program. — No Starch Press, 2012. — 160 p. — [ISBN 978-1-59327-409-2, 978-1-59327-531-0](#).
2. *Sam Patterson*. Ch. 6. Scratch and Other Web-Based Programming Platforms // [Programming in the Primary Grades: Beyond the Hour of Code](#). — Rowman & Littlefield, 2016-03-21. — 121 c. — P. 49—58. — 98 p. — [ISBN 9781475825459](#)
3. Выготский Л. С. Воображение и творчество в детском возрасте. 1997 г. (7 стр)
4. A. G. Gʻaniyev. Taʼlim jarayonida oʻquvchilarda «ijodiy fikrlash» koʻnikmalarini rivojlantirishning ahamiyati. Фалсафа ва ҳуқуқ. №2 2020 (118-122 bet)
5. A. G. Gʻaniyev. Oʻquvchilarda ijodiy fikrlash koʻnikmalarini shakllantirish. Kasb-hunar taʼlimi. 2012.№2 (27-28 bet)

DUDUQLANISH. DUDUQLANUVCHI O‘SMIR VA KATTALAR BILAN OLIB BORILADIGAN ISHLAR METODIKASI

Sarimsoqova Maftuna Obidjon qizi

NamDU Pedagogika-Psixologiya fakulteti
Defektologiya yo‘nalishi 3-bosqich talabasi.

Ilmiy rahbari **Nizamova Muyassar Nuriddinova**

Ta’lim menenjementi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada duduqlanish turlari, duduqlanish sabablari, moyillik sabablari va keltirib chiqaruvchi sabablar, duduqlanishni olib borish metodikalari, olimlar olib borgan ishlar samaradorligi, denas apparati xususiyatlari, denas apparatining foydali tomonlari, duduqlanishni bartaraf etish, maktab o‘quvchilarda duduqlanishni bartaraf etish, arterapiya usullaridan (qum terapiya, ertak terapiya, musiqa terapiya) foydalanish, duduqlanishni oldini olish va oldini olish uchun qilinadigon logopedik ishlar metodikasi haqida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: duduqlanuvchi bolalar, asab kasalliklari, moyillik, keltirib chiqaruvchi sabablar, denas apparati, arterapiya, ertak terapiyasi, san’at terapiyasi, musiqa terapiyasi.

Annatation: In this article types of stuttening, causes of stuttening, tendencu causes and causes of stuttening methods of work carried out by scientists effectiveness features of phusical apparatus, usefulness of sides, elemenation of stutering phusical apparatus, elemination of stuttering in school children, methods (sand art therapy, fairy therapy, tale therapy) therapy, use of music, methods of logopedic work to prevent and prevent stutering are diclosed.

Ключеные слова: заикание у детей, неврологические заболевания, склонность причина, причены, тело аппарат, арт-терапия, сказка терапия, музыка терапия.

Ma'lumki hozirgi davrga kelib rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar soni keskin ko'paymoqda. Xo'sh bu qanday kasallik? Qanday sabablar orqali kelib chiqadi? Bunday savollar ko'plab ota-onalarni qiziqtirib kelmoqda. Ayniqsa duduqlanish butunlay tuzalib ketadimi deb murojaatlar qilishadi. Yo'q bu kasallikni butunlay korreksiya (tuzatish) qilib bo'lmaydi. Ma'lum miqdorda korreksiya qilinadi.

Duduqlanish nutqning tempi, ravonligi, harakatining buzilishi bo'lib, nutq apparatining turli xil joyidagi tutqanoq natijasida kelib chiqadigan buzilishdir. Duduqlanish nutq buzilishlari haqidagi ta'limotning rivojlanishi tarixida eng qadimiylaridan biri xisoblanadi. Duduqlanish paydo bo'lishida bosh miya qobig'idagi nerv jarayonlarining buzilgan o'zaro munosabatlari muhim ro'l o'ynaydi. Duduqlanish bu asab tizimiga bog'liq kasallik hisoblanadi.

Duduqlanishda olib boriladigan metodlar

Duduqlanishni ko'plab olimlar turli xil metodlar orqali o'rganishgan. Hozirgi davrga qadar tadqiqotchilar duduqlanish mexanizmini nafaqat tibbiy-fiziologik jihatdan, balki neyropsixologik, psixologik nuqtayi nazarlardan ham o'rganishga harakat qilishmoqda. Chunki nutq faoliyatini tashkil etishda duduqlanishni neyrofiziologik jihatdan qiziqish uyg'otmoqda. Duduqlanishning dastlabki to'liq alomatlarini I.A. Sikorskiyning "Duduqlanish" nomli ilmiy ishida ko'rsatib berilgan edi. Duduqlanish sabablari hozirgi vaqtda 2 guruhga bo'linadi: moyillik sababi va keltirib chiqaruvchi sabablar.

Moyillik sababiga quyidagilar kiradi:

- Ota-onalarning nevropatik kasallanishi.
- duduqlanuvchining o'zidagi nevropatik xususiyatlar.
- nasliy buzilish.
- bosh miyaning turli davrlardagi rivojlanishida, ko'plab salbiy omillar ta'sirida shikastlanishi.

Keltirib chiqaruvchi sabablar guruhida anatomik-fiziologik ruhiy va sotsial sabablarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin.

Duduqlanuvchi o'smirlar va kattalar bilan olib boriladigan logopedik ishlarning o'ziga xos xususiyatlari quyidagi mualliflar tomonidan o'rganib, yoritib bergan: N.Yu.Abedeva, L.Z.Andronova, A.Ya.Yevgenova, M.I.Merlis va hokozolar.

S.S.Lyapidevskiy rahbarligida o'smirlarda tibbiy statsionar sharoitida duduqlanishni bartaraf etishning 6 bosqichini ajratib ko'rsatgan:

- 1) Tayyorlov (2-3 kun)
- 2) Tashkiliy
- 3) Nutqni maksimal darajada cheklash (10-14 kun)
- 4) Nutqiy malakalarni qayta qurishni faollashtirish (3-5hafta)
- 5) To'g'ri nutqiy malakalarni mustahkamlash (3-5hafta)
- 6) yakunlovchi bosqich (maxsus tavsiyalar)

Ko'p hollarda o'smir va kattalarda uchraydigan duduqlanish holatlari bolalik davrida yuzaga kelgan uzoq davom etgan jarayon oqibati hisoblanadi. Bu yosh davrida nutq nuqsoni yaqqol namoyon bo'ladi. Duduqlanuvchi o'smir va kattalarga maxsus yordam bizning mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimida ko'rsatiladi: psixonevrologik dispanserlar, shifoxonalar.

Duduqlanishni bartaraf etish, uni korreksiyalash, duduqlanishni oldini olish uchun olimlarimiz ko'plab izlanishlar natijasida turli usul va metodlar orqali denas usulini ham yaratishdi. Denas dan nutq terapiyasi uchun foydalanish buzilish belgilari bo'lgan joylarga bevosita ta'sir qilish orqali artikulyar organlarning funksiyalarini faollashtiradi va shakllantirishga yordam beradi. DENAS-davolash faqat inson organizmiga ta'siri shuning uchun eng so'ngi texnik ifoda etadi.

Denas usuli xususiyatlari.

Davolaydigon vositalar energiya turtki talab qilinadi. Bu fiziologik nervlarni ta'siri tabiiy ogohlantirish bo'ladi. Denas qurilmada elektrotlar bor va u orqali tananing ma'lum bir sohaga ta'siri natijasida, terapevtik ta'siri yanada kuchli his etiladi. DENAS apparatining foydali tomonlari azab tizimi kasalliklari, avtonom kasalliklar,

epilepsiya va parkinson kasalligi, shu jumladan tayanch harakat tizimi sohalari, teri kasalliklarini davolashda qo'llaniladi. Shuning uchun ham duduqlanishni davolashda DENAS usulidan foydalaniladi. DENAS usuli duduqlanuvchi bolada nerv tolalarini tinchlantirishda qo'llaniladi. Hozirgi kunda samarali usullardan biri hisoblanadi.

Duduqlanishni bartaraf etish samaradorligi

Yuqorida biz duduqlanish nima ekanligi, uning kelib chiqish sabablari haqida batafsil to'xtaldik. Xo'sh endi duduqlanishni qanday bartaraf etamiz? N.A.Vlasova ma'lumotiga ko'ra infeksiya natijasida ruhiy jarohat yoki qo'rqish natijasida vujudga kelgan duduqlanish osonroq bartaraf etiladi. Buning sababi ko'p hollarda infeksiya funksional-dinamik o'zgarishga olib keladi. Shuningdek maktabgacha yoshdagi bolalarda duduqlanishni bartaraf etish ham samaraliroq bo'ladi. Malumotlarga ko'ra maktabgacha yoshdagi bolalarning 70 % duduqlanishdan qutilishlari mumkin. Ammo duduqlanishni bartaraf etishda duduqlanuvchi bolaning yoshi kattalashib borishi yoki duduqlanishning kechish vaqtini ko'payib borishi bilan murakkablashib boradi. Vaqt o'tib borishi bilan noto'g'ri nutq ko'nikmalari bolada shakllanib qoladi. Shu sababli bolani yoshligidan korreksiya qilish lozim.

Maktab o'quvchilarida duduqlanishni bartaraf etish

Bunda maktab o'qituvchisining roli kattadir. Avvalo duduqlanuvchi bolalarga g'amg'or munosabatda bo'lish muhitini yaratish lozim. Asta-sekin duduqlanuvchi bolani doska oldida mustaqil javoblar berishga olib kelish, bolada to'g'ri nafas olishni to'g'rilash lozim. Duduqlanuvchi bola bilan korreksiya ishini olib borishda logoped, psixolog, nevrapatolog, ota-ona doimiy aloqada ish olib borish lozim. Shundagina samarali natijaga erishsa bo'ladi. Maktab yoshidagi duduqlanuvchi bolaga uyda hikoya, ertaklarni o'qib kelib so'zlab berish tavsiya etiladi. Bolani ko'proq chuqur nafas oldirib, so'ng gapirtirish tavsiya etiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, eng avvalo duduqlanishga sabab bo'ladigon muammolardan saqlanish lozim. Ya'ni onaning xomiladorlik davrining to'g'ri o'tishi, (har xil qo'rquvlar, setress holatlar, asabiylashishlardan saqlanish), maktabgacha yosh

davrlarida bolani stress holatlardan uzoqlashtirish, kuchli erkalatish va kuchli qo'rqitish asosida tarbiya qilmaslik tavsiya etiladi. Duduqlanishga chalingan bolada korreksiya ishlarini olib borishda eng avvalo bolada to'g'ri nafas olishni to'g'rilash lozim. Bolani basenlarda cho'miltirish orqali uni asab tizimini tinchlantirish mumkin. Har hil o'yin metodikalar orqali bolani gapirtirish, bolada qum va ertak terapiyasidan foydalangan holda davolash ishlarini olib borish lozim. Bolani tinchlantirish uchun musiqa terapiyasidan ham foydalaniladi. Sokin musiqalar bolani tinchlantirishga yordam beradi.

Zero, sog'lom avlod kelajak uchun tayanchdir. Shuning uchun bola paydo bo'lishi bilan unga extiyotkor bo'lib tarbiya qilish, rivojlanishiga bee'tibor bo'lmaslik muhim vazifalardan biri hispblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.Y. Ayupova. Toshkent nashriyoti 2007y.
2. K.P. Bekker, M. Sovak Logopediya 1981y.
3. L.R. Mo'minova Tutilib gapiruvchi o'smirlar uchun qo'llanma. O'qituvchi nashriyoti 1980.

NODIRA IJODIDA FIROQ

Mamajonova Shahnoza G‘ayratjon qizi

O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi

doktorshahnoza@email.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada shoira Nodira ijodida uchrovchi xijron motivlari haqida so‘z yuritiladi. “Firoqnoma”ga e‘tibor qaratamiz.

Kalit so‘zlar: Salotin sarvari, firoqnoma, muashshar, falak, oshufta xol, qahrabo, xurshid, muhabbat, vafo, sadoqat.

Annotation: This article discusses the motives of hijra in the works of the poet Nodira. Let’s focus on the “Firoknoma”.

Keywords: Salotin sarvari, firoqnoma, muashshar, falak, oshufta hol, amber, Khurshid, love, fidelity, devotion.

Аннотация: В данной статье рассматриваются мотивы хиджры в творчестве поэта Нодира. Остановимся на “Фирокноме”.

Ключевые слова: Салотин сарвари, фирокнома, муашшар, фалак, ошuftа хол, янтарь, хуршид, любовь, верность, преданность.

Turli mavzularda qalam tebratgan shoira Nodira ijodi bizni qayta va qayta o‘zining rangin olamiga olib kirmoqdaki, bu olam aro sayr etmoq ko‘ngilga huzur, orom bag‘ishlashi, muhabbat, vafo, sadoqat tuyg‘ularining qalbga singdirilishi, o‘ynoqi ko‘ngilga rohat baxsh etishi, nafaqat biz, balki, biz orqali o‘qiguvchining ham jismiga ko‘chsa ne ajab. Shu niyatda quyida Nodira ijodidagi shoh asarlardan biri “*Firoqnoma*”ni tahlil qilishga ojizona urindik.

She‘riyat olamida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan Nodira ijodida turfa mavzular g‘azal, muxammas, musaddas, musamman, tarji‘band, tarkiband, firoqnomalar qalamga olingan bo‘lib, hozir tahlil qilmoqchi bo‘lganimiz “*Firoqnoma*” bunga misol bo‘la

oladi¹⁰. Umr yo‘ldoshi Amiriy, Nodiraga ham ustoz, ham turmushda maslakdosh edi. Uning erta vafoti shoiraga qattiq ta’sir qilgani holda, uning ijodida ham o‘z izini qoldirdi. Nodira davlat ishlarida ham, o‘zining dono maslahatlari bilan umr yo‘ldoshiga suyanch, tirkak edi. Shoirani har on sahovatli bo‘lishga, xalqni adolat bilan boshqarishga davat etar ekan, shunday go‘zal jumlar dunyoga keladi:

*Shoh uldurki, raiyatga tarahhum qilsa,
Yo‘q esa qoidai amnu amon barcha abas,
Fuqaro holig‘a gar boqmasa, har shoh, anga,
Hashmatu, saltanatu, rif‘atu shoh barcha abas.*

Umr yo‘ldoshiga benihoya muhabbat tuygan Mohlaroyim, Amiriyga har sohada hamfikir bo‘lgan. Shoiraning muhabbat, vafo, odamiylik, poklik, sadoqat g‘oyalariga yo‘g‘rilgan asarlari, Amiriyning vafotidan so‘ng hijron dardi, ayriliq azobi, sog‘inch xissi motivlari bilan o‘rin almashgani ham, bizning fikrimizni tasdiqlaydi.

Odatda ijodkor muhabbatdan so‘z ochar ekan, yorining nozik bel, sarv qomat, shakar lab, gul yuzli kabi sifatlar bilan mengzaydi. Nodira muhabbat ta’rifida mashuqaga emas, balki, mashuqqa murojatlari endi uning odatdagi tashbixlarni ishlata olmasligi, butunlay o‘zga yo‘ldan borishga, yangi, ohorli tashbixlarni qo‘llashga majburligi, bu uning ijodidagi o‘ziga xos qiyinchiliklardan biri edi. Nodira ishqi majoziy bilan, ishqi ilohiyini nazardan chetga qochirmagan holda shunday go‘zal baytlar keltiradiki, bu ham uning izlanishda naqadar zukko, so‘zda topqirligidan dalolat. Mana shunday go‘zal baytlardan birida u shunday deydi:

*Doda keldim, ey salotin sarvari, dodim eshit,
Sen shah-u, men benavo, lutf ayla, faryodim eshit.*

“Salotin sarvari”¹¹ **podshohlar boshlig‘i**, deya avvalo Haqni nazarda tutar ekan, bu so‘zlar bilan Amiriyni ham ma’no ostiga olib ketishi, bir jumlada ikki xil ma’noni yaratish shoiraning ijodda mohirona so‘z qo‘llay olishidan dalolat.

¹⁰ Orzibekov.R “O‘zbekiston adabiyoti tarixi (XVII-XIX (I yarmi) asrlar) O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. – T.: 2006, –B 217. Quyida keltirilgan she’riy baytlar ham shu manbadan olindi.

¹¹ O‘zbekiston FA “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” T.: 1983. –B 543. Quyidagi eski turkiy so‘zlar tarjimasi ham shu manbadan olindi.

Amiriyning vafotidan so‘ng Nodira ustoz, hamfikridan ayrilgach, uning ijodiga “*Firoqnoma*” asarlarning kirib kelishi, bu shoiraning ichki tug‘yonlari xosilasidir. “*Firoqnoma*”, boshqacha aytganda hijronni bosh mavzuga olish, tug‘yonlarning jilovdan chiqishi hisoblanadi. Bunda hijron motivlari shoiraning turli lirik janrlarda bitilgan asarlarida kuchli sezilib turadi. Shoira ijodidagi bunday tub burilish, uning asarlariga yangicha ruh olib kirdi. Firoqnomada ilohiy ishq tilga olinish bilan birga, Amiriydan ayrilish, hijron azobi ham so‘z ortiga shoirona singdirilgan. Firoqnoma “*muashshar*” shaklida yozilgan bo‘lib, yakundagi baytlar takrori g‘azalning o‘qilishdagi ohangdorlikni yuzaga keltirgan holda, mazmunning ochib berilishi, fikrning to‘liqligini taminlagan. Muashshar o‘n misradan, o‘n bandga jamlangan bo‘lib, jami yuz misra bir-biriga ohandosh, qofiyador qilib yig‘ilgani ham, shoiraning istedodidan darak beradi. Shoira tuyg‘ular dengizini to‘lqinlantirib, o‘quvchini ham o‘z dardiga sherik qilib, uning qalbidagi tuyg‘ularini o‘ynatadigan so‘zlarni shunday ijodkorona qo‘llaganki, g‘azal bir-birini ma’nosini ochib beruvchi tashbixlardan tarkib topganiga o‘qish jarayonida guvoh bo‘lamiz. Quyida “*Firoqnoma*”dan parcha keltirish bilan, o‘quvchiga fikrimizni to‘la bayon etamiz, bu bilan uni ham izlanishga undash, so‘zlar jilosidan bahramant etish niyatidamiz.

*Oh kim behad mengo javru jafo aylar falak,
Furqat ichra qismatim dardu balo aylar falak,
Yordin ayru mengo ko‘p mojaro aylar falak,
G‘am bila guldek yuzimni qahrabo aylar falak,
Bevafodur oqibat kimga vafo aylar falak,
Hasratu dardu alamga muftalo aylar falak,
Yorning, albatta, yoridin judo aylar falak,
Gul bila bulbulni be bargu navo aylar falak,
Hech kim yorab jahonda yoridin ayrilmasun,
Jondin ortuq mehribon dildoridin ayrilmasun.¹²*

¹² Qodirova.M Toshken FAN “Nodira devoni” T.: 1963. – B 237. Quyidagi “Firoqnoma” baytlari ham shu manbadan olingan.

Firoqnomada “*falak*” so‘zi **taqdir** ma’nosida keltirilgan bo‘lib, shoiraga behad jabru jafu aylaganidan “*oh urish*”, “*nola qilish*” bilan boshlanadi. Ikkinchi misrada shoira o‘z fikrini dalillab “*furqat*” **ayriliq, hijron** uni azoblayotganini bildiradi, bu bilan birinchi misra ma’nosi yanada ravshanlashadi. Uchinchi misrada holatning sababi yanada ochiq, to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytiladi “*Yordin ayru mengo ko‘p mojaro aylar falak*” manashu joyda shoira Amiriya bo‘lgan hislarini nazarda tutayotgani yaqqol ko‘zga tashlanadi. To‘rtinchi misrada tashbix san’ati qo‘llangan bo‘lib, yuzni “*qahrabo*” ranggiga o‘xshatib, mashuqa hijron azobidan o‘zining abgor xolatini to‘la ochib beradi. Shoira falakning bevafoigidan shu darajada ko‘p sitam chekdiki, uning yorni yoridan albatta judo aylashiga ishonchi komil. Nodira bu holatni shunday keltirgan “*Yorning, albatta, yoridin judo aylar falak, gul bila bulbulni be bargu navo aylar falak*”. Muashshar oxiri “*Hech kim yorab jahonda yoridin ayrilmasun, jondin ortuq mehribon dildoridin ayrilmasun*” baytlari bilan tugatilgan. Bu bandda “*aylar falak*” so‘zi radifga olingan bo‘lib, u **osmon, samo** ma’nosini bildirib, muashshar bandlarida **taqdir** ma’nosida qo‘llanilgan bu so‘z ortiga, taqdir avvalo Ollohdan ekanligi mohirona berkitilgan.

Keyingi bandda ham shoira fikrlar zanjirini uzmagani xolda, “*Kasbi hush etsam junun be ixtiyor aylar meni*” bunda “*kasbi hush etsam*” **aqlimni yig‘ib olsam**, u meni yana “*junun*” **jinni, telbalik** holiga soladi “*xajr dog‘i*” **xijron o‘ti** qalbimni kuydiradi, bu azob meni “*firoq ilgida*” ya’ni **xijron qo‘lida** qoldiradi, deya xolatining darajasini bildiradi. Muashshar oxirida Majnunning yodga olinishi talmeh san’atini yuzaga keltirgan. Talmeh (nazar solmoq) she’r yoki narsa mashhur tarixiy voqealar, afsonalar, adabiy asarlar yoki maqollarga ishora qilmoq san’atidir. O‘quvchi u yoki bu nomga ishorani ko‘rar ekan, uning ko‘z oldida o‘sha holat jonlanib, shoir demoqchi bo‘lgan g‘oyani, fikrni, tuyg‘uni yorqinroq tasavvur qiladi¹³. Shoira ham bu san’atdan o‘z o‘rnida mohirona foydalanib, o‘z xolatini o‘quvchiga yaqqolroq, aniqroq bayon etadi.

¹³ Hojiahmedov.A “She’riy san’atlar va mumtoz qofiya” T.: 1998. –B 14.

Navbatdagi muashsharda soʻzboshi mashuqaning holati tasviridan boshlanadi, oshiq oʻzini “*oshufta xol*” yaʼni **gʻam bosgan, parinshon xol** boʻlganligini aytib oʻtadi. Keyingi misralarda kitobat sanʼatidan mohirona foydalanilgan, yaʼni “*Gʻam yuki oxir alifdek qomatimni qildi dol*” arab alifbosidagi **alif** tik qomatga qiyoslangan boʻlsa, **dol** xijron yukidan egilgan, bukilgan oshiq qomatini esga soladi. Shuningdek **nuqson** va **kamol** soʻzlari tazodni vujudga keltirgan, bunday soʻz oʻyinlari butun band maʼnosini ochishga qaratilgan. Bunday bir-biriga uygʻun fikrlar muashsharning har bandida koʻzga tashlanadi.

“*Qaydasen yorim*” deb yorga murojat bilan boshlanuvchi keyingi band ham fikrlar zanjirida bir shoda vazifasini oʻtagan. Shoira **kechadan** to “*subh*” yaʼni, **tonggacha** gʻam chekib ozorlanganini yorga bayon etmoqda. Bu yerda ham tazod sanʼatini koʻrishimiz mumkin. “*Parizoli charx*” **charxning zolim kampiri** uning dardiga yana dard qoʻshganidan bagʻri **yara** boʻlganini aytib nola qilmoqda.

Keyingi band toʻlaligicha talmeh sanʼatini oʻz bagʻriga singdirgan holda goʻzal tashbixlarning yaratilishiga sabab boʻlgan:

*Bir kelib holimni sultonim tamosho qilmadi,
Bedavo dardimga rahm aylab, mudavo qilmadi,
Ayrilib andin koʻngul tarki tamanno qilmadi,
Tosh bagʻirlik yor faryodimgʻa parvo qilmadi,
Yusuf ishqida bu ishlarni Zulayho qilmadi,
Oʻtti Vomiq dahrdin yodini Uzro qilmadi,
Motami Farhodni Shirin taqazo qilmadi,
Layli hijronida Majnun men kabi yoqilmadi,
Hech kim yorab, jahonda yoridan ayrilmasun,
Jondin ortiq mehribon dildoridin ayrilmasun.*

Bu bandeda oʻtmishda bir-biriga yetisholmagan har bir oshiq yodga olinib, bu bilan shoira oʻz holati ulardan ham ogʻirroq ekanligini aytib, oʻz fikrini ortiqcha soʻzlarsiz yetkaza olgan. Bu ismlar hech qanday taʼrifsiz ham bizda shoira holatini

tushunib olishimiz uchun namuna vazifasini o'tagani shoira so'zdan to'g'ri foydalanganini bildiradi.

So'zlarning ichki takrori, ohangdosh so'zlarning qo'llanilishi orqali shoira keyingi bandda shunday jozibali misralarni yaratganki, ohangdorlik qulog'imizga hech qanday malolsiz yoqimli sizib kiradi, "*Menga sensiz dard uza dardu alam uzra alam*", "*Dard-yoru g'ussa-hamdami, g'am farovon, aysh kam*" bunday misralar shoiraning mahorati mevasidir.

Toleyimga raxbarlik bitilgani bilan, yorning vasli muyassar bo'lmadi, bunday davlatning menga keragi yo'q, men bunday davlat ichra baxtimni topolmayman deya so'z yuritiluvchi keyingi bandda "*rahbarlig*", "*davlat*", "*iqbol*" kabi so'zlar tanosub san'atini yuzaga keltirgan. "*Menga hamdam bir kun ul xurshid manzar bo'lmadi*" misralarida yorning "*xurshid*" quyoshga o'xshatilishi lekin mashuqa "*manzar*" muyassar bo'lmaganiga dalolat bor.

Keyingi muashshar mazmunida "*Menga ul kun kim vafog'a ahdu paymon ayladi, So'ngra qilg'on vadalarni barcha yolg'on ayladi*" bunda, yorning vada berib, so'ng u vadadan qaytgani, balki, u bergan vadasidan pushaymon bo'ldimi degan so'roq berilgan bo'lsa, undan keyingi bandda "*Aylamasman saltanatni yorsiz manzurman*" deya mashuqiga bo'lgan sog'inchning yuksakligi, hatto qo'lidagi davlati ham mashuqani shod etolmasligini tasirchan bayon etadi. So'nggi band "*Ey mug'anniy*" ya'ni **sozanda qizga** murojat bilan boshlanadi. "*Nogahon bir oh agar cheksa dili afgoridin, Charx bunyodini hokistar qilur osoridin*" mashuqaning bir ohi "*charx*" **falakni** "*hokistar*" **kul** qilar darajada kuchli bo'lajagini aytadi. Bu mubolag'aning, g'uluv ya'ni aql ham bovar qilmaydigan, hayotda ham yuz berishi umkin bo'lmaydigan tarzda tasvirlash san'atidir¹⁴. Shoira butun muashshar mazmuniga singdirgan xijron dardi uni o'qish mobaynida o'qiguvchi qalbiga ham ko'chishi bu uning so'zlar, va misralar zanjirini to'g'ri tuzaolganidan dalolat.

Xulosa qiladigan bo'lsak, muashsharni o'qish jarayonida biz tuyg'ularning bir-biridan uzilmagan xolda bir butunlik xosil qilganiga guvoh bo'lamiz.

¹⁴ Hojiahmedov.A "She'riy san'atlar va mumtoz qofiya" T.: 1998 –B 11.

Gʻazal tili sodda, tushunish oson, tuygʻular ketma-ketligi esa bagʻoyat goʻzal. Mohlaroyim bizga 10 ming misraga yaqin ijodiy meʻros qoldirgan boʻlib, toʻla boʻlmagan oʻzbekcha devoni, 1962-yilda Namangandan topilgan mukammal devoni bizgacha yetib kelgan. Shuning oʻzi ham shoiraning katta ijodiy toʻplamga ega ekanligidan nishona bilamizki, devon tuzish uchun arab alifbosidagi harflar bilan tugaydigan ijod namunalariga ega boʻlish zarur. Nodira “*sohibi devon*” shoira edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hojiahmedov.A “Sheʻriy sanʼatlar va mumtoz qofiya” T.: 1998, – B 158.
2. Qodirova.M Toshken FAN “Nodira devoni” T.: 1963. – B 619.
3. Orzibekov.R “Oʻzbek adabiyoti tarixi (XVII-XIX (I yarmi) asrlar) Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamgʻarmasi nashriyoti. – T.: 2006, – B 272.
4. Oʻzbekiston FA “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lugʻati” – T.: 1983, – B 644.

YERDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA EKIN MAYDONLARINI JOYLASHTIRISH VA TRANSFORMATSIYALASH

Toyirov Abdukarim Komil o'g'li

Buxoro tabiiy resurslarni

boshqarish instituti magistranti.

Qishloq xo'jalik yerlarining tarkibi va maydonlari fermer xo'jaligining ixtisosligiga va intensivlik darajasiga bog'liq holda belgilanadi. Asosiy talab shundan iboratki, yer turlari tarkibi nafaqat, xo'jalik samaradorligini oshirishni, balki, yerlardan asosli foydalanishni, ekologik jihatdan turg'un bo'lmagan haydalma yerlar, yaylovlar, pichanzorlar, ishlov beriladigan daraxtzorlar va tabiiy landshaftning ekologik jihatdan turg'un ob'ektlari orasidagi oqilona nisbatni ta'minlash nazarda tutiladi.

Qishloq xo'jaligi uchun o'zlashtirish, transformatsiyalash va yaxshilashga faqat o'zining tabiiy xususiyatlari bo'yicha oshirilgan yuklamani ko'tara oladigan, xo'jalikning asosiy qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirish uchun yaroqli uchastkalar mo'ljallanadi. Shu bilan bir qatorda, qishloq xo'jaligida foydalanishdan buzilgan yerlarni chiqarish kerak. Ularni o'tloqlashtirish, ayrim hollarda esa - o'rmonlashtirish belgilanadi.

Amaliyot ko'rsatishicha, fermer xo'jaliklarining haydalma yerlarini almashlab ekish tizimida foydalanish ko'proq maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu, ekinlarning vaqt va hudud bo'yicha oqilona almashishining ularni yetishtirishning ilmiy asoslangan texnologiyalari, qo'llaniladigan o'g'itlash tizimi bilan o'zaro bog'liqligi hisobiga, hosildorlikning o'sishi va tuproqlar unumdorligi oshishi uchun eng yaxshi sharoit yaratish imkonini beradi.

Fermer xo'jaliklari, odatda, kichik o'lchamlarda (100 gektargacha) tashkil etilishini hisobga olib, ularda bitta almashlab ekishni tashkil etish maqsadga muvofiq

bo'ladi. Mazkur almashlab ekish tipi xo'jalikning ixtisosligi va ekiladigan ekinlar tarkibi bo'yicha aniqlanadi. Chorvachilik yo'nalishidagi xo'jaliklarda - bu yem-xashak almashlab ekishi, sabzavotchilikda - sabzavot, dalachilikda - dalachilik almashlab ekishidir.

Bog'-poliz va rezavor ekinlarini joylashtirish tamorqa yerlarida mo'ljallanadi.

Bozor kon'yunkturasi yillar bo'yicha bir xil bo'lmaganligi sababli, fermer xo'jaliklari uchun har bir mustaqil ishlov beriladigan haydalma yer uchastkasiga mos qishloq xo'jalik ekinlarining faqat vaqt bo'yicha almashinishini ko'zlaydigan almashlab ekishlarni ishlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun xo'jalikning barcha haydalma yerlari birinchi navbatda agroekologik xususiyatlari (tuproqlar tiplari, joyning reliefi, eroziyalanish darajasi va boshq.) bo'yicha bir xil va mexanizmlar bilan ishlov berishga yaroqli birlamchi ekologik turg'un, uchastkalarga (almashlab ekish dalalariga) bo'linadi, keyin ekiladigan ekinlar tarkibini hisobga olib, ularni uchastkalar bo'yicha joylashtirishning eng yaxshi yechimi tanlanadi. Joylashtirish yerlarning sifatini, oldin ekilgan qishloq xo'jalik ekinlarini va ularning o'zgarib turuvchi tarkibini e'tiborga olib har yili o'tkaziladi.

Cognitive interest that arises in the process of learning is the motive of learning activity, since it not only activates mental activity at the moment, but also directs it to solve other problems. Cognitive interest is, in my opinion, a strong learning tool that leads to an increase in the quality of education. It is possible to successfully solve the difficult task of improving the quality of education, its improvement, based on the effective construction of the process of education and upbringing, which is based on an objective analysis of the activities of the teaching staff. The quality of knowledge in the lesson depends on the organization of the educational process, it is formed directly in the lesson and is determined by the integrity of the lesson structure, the effectiveness of the methods and technologies used, the system for assessing students' knowledge, compliance with uniform pedagogical requirements and their discipline.

CONCLUSION

Improving the quality of education in modern conditions is the main task in education, which worries all participants in the educational process, such as the state, teacher and student. In conclusion, I would like to give some recommendatory measures to improve the quality of education.

These include:

- it is necessary to update curricula every 5-10 years, as foreign countries do;
- it is important that educational institutions are provided with the necessary educational materials and highly qualified teaching staff, so that students have the opportunity to receive a quality education;
- some professions may not be in demand in 20 years, so you need to change the focus when drawing up academic disciplines and plans;
- students need to be taught to seek knowledge, and not just give them ready-made knowledge.

REFERENCES

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated April 20, 2019 “On approval of the Concept for the development of the public education system of the Republic of Uzbekistan until 2030”.

2. Бордовский Г.А., Нестеров А.А., Трапицын С.Ю. Управление качеством образовательного процесса. – СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И. Герцена, 2001.

3. Гусинский Э.Н., Турчанинова Ю.И. *Введение в философию образования*. -- М.: Издательская корпорация «Логос», 2000.

4. Салахова Э. Внедрение кредитной системы образования и её особенности. // Международная научно-практическая интернет-конференция «Тенденции и перспективы развития науки и образования в условиях глобализации». Киев 27 апреля 2019 года.

УДК 571

**ЖАНУБИЙ ОРОЛБЎЙИ (МЎЙНОҚ ТУМАНИ) ХУДУДИДА
ТАРҚАЛГАН СУҒОРИЛАДИГАН ТУПРОҚЛАРНИНГ ЭКОЛОГИК-
МЕЛИОРАТИВ, АГРОКИМЁВИЙ, ФИЗИКАВИЙ ХОССАЛАРИ ВА
КИМЁВИЙ ТАҲЛИЛИ**

Р.Х.Аллабердиев¹, О.Д.Эшонқулов², Ш.Р.Зиядов³

Ўзбекистон Миллий университети Экология кафедраси доценти¹,
Ўзбекистон Миллий университети Экология кафедраси катта ўқитувчиси²,
Ўзбекистон Миллий университети Экология кафедраси ўқитувчиси³.

E-mail: otabekeshonqulov80@mail.ru

АННОТАЦИЯ

Мақолада Қорақалпоғистон Республикаси Жанубий Оролбўйи худудида тупроқларнинг ҳосил бўлиши ва шўрланиши тўғрисида тушунчалар берилган.

Ушбу мақолада Кўнғирот ва Мўйноқ туманларидаги тупроқларнинг шўрланиш даражаси бўйича қисқача маълумотлар берилган.

Калит сўзлар: Жанубий Оролбўйи, тупроқ, қатлам, таркиб, худуд, шўрланган, механик, шароит, рельеф.

Ҳозирги кунда Ўзбекистон Республикасининг Оролбўйи худудларидаги ер майдонларини илмий ёндошувлар асосида ўзаштириш учун Ўзбекистон Республикаси ва Халқаро ташкилотлар томонидан тизимли ишлар амалга оширилмоқда.

БМТ шафелигида 2018 йилда ташкил этилган Оролбўйи минтақаси учун Инсон хавфсизлиги бўйича Кўпшериклик Траст жамғармаси инновацион молиявий механизми ва Ўзбекистон Республикаси ташаббуси билан 2021 йил 18 майда БМТ Бош Ассамблеяси 75-сессиясида қабул қилинган «Оролбўйи

минтақасини экологик инновациялар ва технологиялар ҳудуди деб эълон қилиш тўғрисида»ги махсус резолюциясини ҳамда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 25 ноябрдаги 745-сонли «Республика ҳудудларида ўрмонзорлар, шунингдек, Орол денгизи ва Оролбўйи ҳудудларида «Яшил қопламалар» барпо этиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги қарори ҳамда мазкур фаолиятга тегишли бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар асосида қатор ишлар олиб борилмоқда.

Қорақалпоғистон Республикаси рельефи ва тупроқ ҳосил қилувчи она жинслар ўта мураккаб бўлиб, тупроқларининг литологик ва геоморфологик шароити турлича бўлиши унинг мелиоратив ҳолати ва тупроқ сифат кўрсаткичларини ҳам турлича бўлишига олиб келган.

Қорақалпоғистон Республикаси Жанубий Оролбўйи ҳудудидаги тупроқларни ўрганиш ишлари XX-асрни бошларидан бир қанча олимлар томонидан ўрганила бошланган.

Қуйи Амударё ҳудудларида биринчи марта систематик тупроқ тадқиқот ишлари 1915 йилда Н.А.Димо раҳбарлигида олиб борилган бўлиб, бу ишларда асосан суғоришга яроқли бўлган ер майдонлари аниқланган. Шунингдек, Н.А.Димо тупроқларнинг пастки қатламларининг зичланиши ва тупроқ профилларида гипс ҳосил бўлишининг сабабларини кўрсатиб берди [1].

1930-50 йилларда олиб борилган дала ва лаборатория тадқиқотларида В.А.Ковда ва бошқа олимларнинг таъкидлашича, тупроқ қопламида туз тўпланишининг асосий омиллари – бу грунт сувларининг тупроқ эритмаси ва тупроқдаги капилляр йўллар орқали тупроқнинг устки юза қатламига яқинлашувидир. Ер ости (грунт) сувларининг тупроқнинг устки юза қисмига яқин келиши тупроқларнинг механик таркибига ҳам боғлиқ. Механик таркиби энгил бўлган тупроқларда капилляр найчалар орқали сувнинг кўтарилиши ҳамда туз тўпланиши механик таркиби оғир бўлган тупроқларга нисбатан секин давом этади ва аксинча, механик таркиби оғир бўлган тупроқларда капилляр сув кўтарилиши ҳамда туз тўпланиши тез содир бўлади [2,3].

И.Н. Фелициантнинг фикрига кўра, бу ҳудудларнинг тупроқ қоплами гидрогеологик босқичларни ўз бошидан кечирган. Дарё қирғоқларининг қуриши ҳамда грунт сувларининг чуқурлашуви натижасида гидроморф тупроқлар-ўтлоқи-тақир тупроқларга айлана бошлаган.

Орол денгизини қуриб бориши натижасида суғориладиган зонадаги гидроморф тупроқларнинг катта қисми автоморф тупроқлар пайдо бўлиш босқичига ўтган. Бу тупроқлар шаклланган ҳудудлардаги янги босқичда ривожланаётган тупроқларни морфогенетик белгилари ўрганилганда, тупроқ профилида аввалги гидроморфизм белгиларининг сақланиб қолганлиги, яъни занг доғлари, кўкимтир ботқоқланиш белгилари, ил заррачаларини тупроқнинг қуйи қисмларига ювилиб тушганлиги, гипс ва карбонатларни ювилганлиги каби кўплаб белгилар аниқланган. [4,3].

Қорақалпоғистон Республикаси Жанубий Оролбўйи ҳудудларида турли тупроқлар тарқалган бўлиб, уларнинг ўзига хос пайдо бўлиш шароитлари юқорида кўриб ўтилди. Суғориладиган тупроқларнинг мелиоратив ҳолати республика бўйича энг оғир шароит ва ҳолат дейилса хато бўлмайди.

Қорақалпоғистон Республикаси Жанубий Оролбўйи ҳудудида жойлашган туманларнинг барчасида суғориладиган тупроқлар турли даражада шўрланган, ҳатто айрим туманларда тарқалган суғориладиган тупроқларнинг барчаси тўлиқ шўрланган. Қўнғирот ва Мўйноқ туманларини шунга асос қилиб айтишимиз мумкин.

Қўнғирот тумани. Туманда жами суғориладиган ерлар 38592,0 гектар бўлиб, шундан 36289,4 гектари (94,0 %) турли даражада шўрланган. Шўрланмаган тупроқлар 2302,6 гектарни, яъни туман суғориладиган ерларининг 6 % ни ташкил этади (6-жадвал). Кучсиз шўрланган тупроқлар туман суғориладиган ерларининг 14022,9 гектарини ташкил этади, бу туман суғориладиган ерларининг 36,3 % га тенг. Ўртача шўрланган тупроқлар 10734,6 гектар, бу туман суғориладиган ерларининг 27,8 % ни ташкил этади. Шўрланиш типи, асосан, хлорид-сульфатли ва сульфатли. Кучли шўрланган тупроқлар майдони 3665,3 гектарга тенг, бу туман суғориладиган ерларининг 9,5 % ни ташкил этади.

6-жадвал

Кўнғирот тумани суғориладиган тупроқларининг шўрланганлик даражасига кўра тавсифи

Шўрланиш даражаси	Жами суғориладиган ерлар	Шўрланмаган	Кучсиз	Ўртача	Кучли	Жуда кучли
Майдони, гектар ҳисобида	38592,0	2302,6	14022,9	10734,6	3665,3	7866,6
Майдони, % ҳисобида	100	6,0	36,3	27,8	9,5	20,4

Шўрланиш типи, асосан, хлорид-сульфатли ва сульфатли. Жуда кучли шўрланган тупроқлар 7866,6 гектарда тарқалган, бу туман суғориладиган ерларининг 20,4 % ни ташкил этади. Шўрланиш типи, асосан, хлорид-сульфатли ва сульфатли.

Мўйноқ тумани. Ушбу туманнинг суғориладиган тупроқларининг мелиоратив ҳолати нафақат Қорақалпоғистон Республикаси, балки Ўзбекистоннинг бошқа вилоят тупроқларидан мелиоратив оғирлиги билан фарқ қилади. Жумладан, туманда жами суғориладиган ерлар 25073,0 гектар бўлиб, улар тўлиқ тарзда (100 %) турли даражада шўрланган. Шунингдек, шўрланиш даражалари орасида кучсиз шўрланган тупроқлар мавжуд эмас (1-жадвал).

1-жадвал

Мўйноқ тумани суғориладиган тупроқларининг шўрланганлик даражасига кўра тавсифи

Шўрланиш даражаси	Жами суғориладиган ерлар	Шўрланмаган	Кучсиз	Ўртача	Кучли	Жуда кучли
Майдони, гектар ҳисобида	25073,0	-	-	8112,1	11996,8	4964,1
Майдони, % ҳисобида	100	-	-	32,4	47,8	19,8

Ўртача шўрланган тупроқлар майдони 8112,1 гектарга тенг, бу 32,4 % ни ташкил этади. Шўрланиш типи, асосан, хлорид-сульфатли ва сульфатли. Кучли шўрланган тупроқлар 11996,8 гектарга тенг, бу туман суғориладиган ерларининг 47,8 % ни ташкил этади. Шўрланиш типи, асосан, хлорид-сульфатли ва сульфатли. Жуда кучли шўрланган тупроқлар майдони 4964,1 гектарга тенг, бу 19,8 % ни ташкил этади. Шўрланиш типи, асосан, хлорид-сульфатли ва сульфатли. Шўрланиш даражаларига кўра айтиш мумкинки, туман суғориладиган тупроқларининг мелиоратив ҳолатини яхшилаш учун нисбатан сув ва иқтисодий сарф юқори бўлади, шунинг учун уларнинг ечимини топиш учун илмий ёндашув талаб этилади [5].

ХУЛОСА

Ҳозирги вақтда Қорақалпоғистон Республикасида тарқалган тупроқлар турли даражада шўрланган. Асосий майдонлари суғориладиган тупроқларининг мелиоратив ҳолати оғир бўлган ҳудудлардир.

Ҳар қандай тупроқда сувда эрийдиган тузлар маълум миқдорда бўлади. Улар тузларнинг таркиби ва шўрланиш даражасига қараб ўсимликларга турлича таъсир кўрсатади. Уларнинг миқдори ортиқча бўлганида экинларнинг ўсишига, ривожланишига ва ҳосилдорлигига зарарли таъсир қилади. Тузлар ўсимликларга захарли ва осмотик таъсир кўрсатиши билан фарқланади.

Биз олиб бораётган тадқиқот майдонимиздаги тупроқлар анализ натижаларидан шундай хулосага келиш мумкинки, бу тупроқларда ўртача шўрланишга чидамли айрим ўсимликларни етиштирса бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Димо Н.А. Почвенные исследования в бассейне р. Амударья за 1914 год. Ежегодник отдела земельных улучшений. ч.П. Петербург. 1915.С. 17 - 23.
2. Ковда В.А. и др. Закономерности процессов соленакопления в пустынях Арало - Каспийской низменности. / Труды Почвенного института АН СССР, 1954. С. 288 -294.
3. Рамазонов Б.Р. Орол бўйи худудларининг тупроқ қоплами ва тупроқ хоссаларининг саҳролашиш таъсирида ўзгариши (Қорақалпоғистон Республикаси тупроқлари мисолида. Биол.фан. фал.док. Тошкент - 2019. Б. 26.
4. Турсунов Л. Почвенные условия орошаемых земель западной части Узбекистана. Ташкент.1981. С. 3-15-6., Рамазонов Б.Р. Орол бўйи худудларининг тупроқ қоплами ва тупроқ хоссаларининг саҳролашиш таъсирида ўзгариши (Қорақалпоғистон Республикаси тупроқлари мисолида. Биол.фан. фал.док. Тошкент - 2019. Б. 32.
5. Рузметов М.И., Жабборов О.А., Қўзиёв Р.Қ., Абдуллаев С.А., Жабборов З.А., ва бошқалар.”Ўзбекистон суғориладиган ерларининг мелиоратив ҳолати ва уларни яхшилаш”. Тошкент. “Университет” нашриёти. 2018 йил: 23-33 б

ПАРТИЯВИЙ ТИЗИМЛАРНИНГ НАЗАРИЙ ВА МЕТОДОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИГА ДОИР

Б.М. Нажмидинов

Ўзбекистон миллий университети мустақил изланувчиси

Сиёсий тизимда ўзининг тутган ўрни ва мавқеи жиҳатидан давлат ҳокимиятидан кейинги ўринни сиёсий партиялар эгаллайди. Сиёсий партиялар бевосита ҳокимияти учун курашади ва давлат бошқарувини янгилашга ўз ҳиссасини қўшади.

Инглиз сиёсий арбоби Жон Болингброк “партия авваламбор коррупцияга қарши курашиш учун керак, партиянинг бош вазифаси халқни коррупция тизимига қарши бирлаштиришдир” дея фикр билдирган эди.

Партия ва партиявий тизимларга доир ҳозирги давр воқелигига энг яқин қарашни М. Вебер очиб берган. У “партиялар аъзоликка қабул қилишнинг ихтиёрийлигига асосланган, ўз олдига фаол аъзоларининг моддий фойда ёки шахсий имтиёзлар олиш учун маънавий ва моддий шароитлар яратиш ҳамда ўз раҳбарияти учун сиёсий ҳокимиятни эгаллаш мақсадини кўзлаган жамоат ташкилотидир” [1, 50-56] деган эди.

Ўтган тарихий даврлар тажрибаси сиёсий партияларнинг ташкил этилиши ва партиявий тизимлар шаклланишининг тўрт белгиси борлигини кўрсатди:

1. Ҳар қандай партия у ёки бу мафкура ҳамда дунёқараш ташувчисига эга бўлади.
2. Партия бу – сиёсатнинг барча даражаларида, яъни маҳаллий даражадан то халқаро даражаларда фаолият кўрсатаётган аъзоларнинг бирлашмаси, ташкилоти бўлиши лозим.
3. Партиянинг мақсади – ҳокимиятга сайловлар орқали эришиш ва уни амалга ошириш эканлиги.

4. Ҳар бир партия унга овоз беришдан тортиб то мазкур партияга фаол аъзо бўлишгача бўлган жараёнларда халқ томонидан қўллаб- қувватланишга эришиш учун ҳаракат қилади.

Умуман олганда, сиёсий партиялар манфаатлар гуруҳларининг энг аҳамиятлисидир, яъни у манфаатларнинг ҳокимиятга дахлдор бўлган қисмини расмийлаштиради, аъзоларининг манфаат ва эҳтиёжларини давлат институтларига етказиб туради. Шунингдек, халқ оммаси партия воситасидагина ўзининг гуруҳий манфаат ва талабларини ҳокимиятга етказа олади. Партиялар ҳокимият сиёсий йўлини ўз манфаатларига мослаштириш ёки ўзига муқобил, тўғри келмаган ўзгаришларга эътирозлар билдириш мақсадларида уни танқид қилиб туриш ҳам мумкин. Сиёсий партиялар илғор мамлакатларда бир неча юз йиллардан бери демократиянинг асосий институти сифатида фойдаланиб келинади.

Сиёсий партияларнинг аҳамияти шундаки сайловлар пайтида кўрсатилаётган номзодлар истеъдодли, талантли, халқ ўртасида обрў топган кишилардан иборат бўлиши лозим.

Жаҳон миқёсида сиёсий партияларнинг ривожланиши ҳар хил кечади. Бу ривожланиш ҳар бир давлат ёки миллат тарихи, руҳияти, ижтимоий – сиёсий тажрибасидан келиб чиқиб, миллий хусусиятлари турлича бўлиши мумкин.

Партияларнинг ўз функцияларини амалиётда бажаришларининг асосий усули, бу – сайловлар кампанияси даврида партия давлатнинг қонун чиқарувчи органларига сайланишлари учун ўз номзодларини кўрсатишларидир. Бу номзодларнинг сайланишларига эришиш учун партия фаоллари аҳолининг кўпчилик қисмини ўз томонига эргаштириши, сайловчилар ўртасида ташвиқот ва тарғибот ишларини олиб бориш лозим. Айниқса, бу даврда жамоатчилик фикрига таъсир қила олиш қобилиятига эга бўлиш партиянинг энг асосий мақсадидир.

Партия ва нодавлат ташкилотлар демократик давлатларда сиёсий тизимнинг асосий элементи ҳисобланади. Ушбу фикрдан келиб чиқиб айтиш

мумкинки, давлат ва жамият сиёсий тизимида сиёсий партиялар қуйидаги функцияларни бажаради:

- ижтимоий гуруҳлар манфаатларини ифода этади ва кўрсатади;
- ижтимоий қатламларни бирлаштиради ва фаоллаштиради;
- партиянинг ғояларини шакллантиради;
- сиёсий тизимни элементларини ва умумий тамойилларини, унинг тузилмасини шакллантиришда иштирок этади;
- ҳокимият учун ва давлатни бошқариш дастурларини тузишда фаол иштирок этади ва кураш олиб боради;
- ҳокимият лавозимларига, жамоат ташкилотларига кадрларни тайёрлаш ва уларни кўрсатиш бўйича фаолият юритади.

Партиявий тизимни бошқа меъёр ва хусусиятларга қараб ҳам муайян тарзда таснифлаш мумкин. Жумладан, сиёсий партиялар бўйича машҳур чет эллик олимлар Вейнер ва Ла Паломбаралар сиёсий партияларни қуйидагича таснифлаганликларини кўриш мумкин:

- сиёсий тизим нуқтаи назаридан келиб чиқиб, демократик, авторитар ва тоталитар партиялар;
- ҳукмрон ижтимоий қадриятларга қараб, социалистик ва буржуазия партиялари;
- давлат ва партиялар ўртасидаги муносабатлар характерига биноан рақобатдош ва норақобатдош сиёсий партиялар.

Сиёсатшунос Ж. Сартори эса партиялар ўртасидаги мафкуравий қутбланишга асосланган, янада мураккаб типологияни таклиф қилади. Унинг фикрича, “бир партиявийлик” (моноидеологик) ва “атомлашган” (мафкуравий моҳиятига кўра ўта қутбланишган) тизимлар доирасидан ўрин олиб етти партиявий тизим турини фарқлаш мумкин. Оралик турлар эса (“гегемон партия”, “устун партия”, “икки партиявийлик”, “чегараланган плюралистик” ва “радикал плюралистик” каби) мафкуравий плюрализмнинг турли даража ва

кўринишларини ифодалайдиган бир ёки бир нечта партияларнинг фаолиятида акс этади [2, 125].

Партиявий тизимлар типологияси меъёрларидан бири – партиялар миқдорининг қанча бўлишлиги билан ўлчанишидир. Бир партиявийлик тизим авторитар ва тоталитар жамиятлар учун хосдир. Бундай режимда партия бутун сиёсий ҳокимиятни ўз тасарруфига олади, шунингдек у жамиятга ўз тазйиқини ўтказишга интилади [3, 61].

Бипартизм (икки партиявийлик) тизимида эса умумий, тўғридан-тўғри сайловлар натижасида парламентда кўпчилик ўринни эгаллаган иккита катта партиялардан биттаси ҳокимият тепасига келади. Бу тизимда шаклланган ҳукумат ўз фаолиятининг белгиланган муддатигача кафолатли ҳолатда яшайди ва барқарорликка эга бўлади. Шунингдек, жамиятдаги фуқароларнинг манфаат ва эҳтиёжлари тўлароқ қондирилиб борилади.

Бипартизм тизимидаги мамлакатларда сайловлар учун сарф – харажатлар ҳам бирмунча кам бўлади. Бу тизимда кўп жихатдан бир-бирига ўхшаш иккита гомоген, кучли партия ўзаро рақобатлашади. Лекин, ҳар бир партиянинг жамият ва давлат тараққиёти масалаларида мустақил нуқтаи назари бўлади. Шу билан бирга, ҳар бир партия яқка ҳолда ҳокимиятни бошқаришга интилади, ўзидан олдинги партиядан мерос қолган эски тартибларни қатъий сақлайди.

Бу тизим давлатни бошқарувчанлик хусусиятини яхшилаб, сиёсий воқийликка мос равишдаги бақамтилилиги билан ажралиб туради, сиёсий демагогияни чеклаб, ижтимоий – сиёсий келишувга замин яратади.

Бипартизм тизимида ҳокимиятни битта партия бошқариб, бошқарув давридаги хато ва камчиликларни бошқа партияларга тўнкаб қўйиш учун йўл қўйилмайди. Бипартизм тизими Англия, АҚШ, Австралия ва бошқа давлатларда ҳукм суриб келмоқда.

“Икки ярим партиявийлик” тизимига амал қилувчи жамиятда эса иккита кучли ва таниқли партиялардан ташқари учинчи партия ҳам сиёсий майдонда фаолият кўрсатади. Ана шу иккита партиядан қайси бирининг муваффақият

қозониши учинчи партиянинг улардан қайси бири билан ҳамкорлик қилишига боғлиқ. Бу тизимда, асосан, коалицион ҳукумат тузилади. Германия Федератив Республикасидаги Германия социал – демократик партияси (ГСДП), Христиан–демократлар иттифоқи (ХДИ), Христина социал иттифоқи (ХСИ, ҳудуди Бавария) ва Озод демократия партияси (ОДП) фаолияти бу тизимга мисол бўла олади. Агар Озод демократия партияси (ОДП) ҳар икки партиядан қайси бири билан ҳамкорлик қилса, ўша партия ҳокимият тепасига келади [4, 220-224].

Агар жамиятнинг сиёсий кенгликларида учта ёки ундан ортиқ партия фаолият кўрсатса, бу ижтимоий-сиёсий манзара кўп партиявийлик тизими дейилади. Лекин мазкур партияларнинг ҳар бири сайловда сезиларли овоз олишга эришган бўлиши лозим. Бу тизимда бирон-бир партиянинг парламентда доимий тарзда кўп ўринларга эга бўлиши қийин кечади.

Кўп партиявийлик муҳолифат партияларнинг самарали фаолият кўрсатиши учун шарт-шароит яратиб берса, бипартизм уларни сиёсий сахнадан бутунлай улоқтириб ташлайди. Кўп партиявийлик тизимида идора қилувчи партиялар номини олган асосий партиялар ўз сайлов дастурига эга бўлганлари билан барибир ҳокимиятни ўзлари мустақил бошқара олмай, коалицион ҳукуматда иштирок этади. Лекин улар қисқа давр ичида миллий ва халқаро манфаатларга мос ўзгаришлар қилишга мойил бўлади.

Хулоса қилиб айтганда, сиёсий партиялар ва хусусан, партиявий тизимларнинг назарий ва амалий жиҳатлари бир қатор фанлар доирасида ҳамда жаҳондаги етакчи олимлар ва мутахассислар томоиндан ўрганилиб келинмоқда. Бу борадаги мажуд билим ва қарашлар замонавий босқичда янада бойиб, такомиллашиб бораётганлигини таъкидлаб ўтмоқчимиз.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Вебер М. Избранные произведения: Пер. с нем. / Сост., общ. ред. и послесл. Ю.Н. Давыдова; Предисл. П.П. Гайденко. – М.: Прогресс, 1990. – С. 50-56.
2. Sartori G. Parties and Party Sestems. A Framework for Analysis. Vol.1., - N.Y., 1976. – P. 125.
3. Қирғизбоев М. Партология. – Тошкент: Академия, 2007. – Б. 61.
4. Шмачкова Т.В. Политичесие партии мира. – М.: 2002. – С. 220-224.

KORRUPSIYA – JAMIYATNING TANAZZULI

Anorboyeva Mehribonu Asqar

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, 3-bosqich talabasi

Kandaxorova Madina Ishratovna

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada korrupsiya, uning oldini olish hamda unga qarshi kurashish masalalari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Korrupsiya, korrupsiya bo‘yicha dunyo reytingi.

Аннотация. В данной статье рассматривается коррупция, ее профилактика и борьба с ней.

Ключевые слова: Коррупция, мировой рейтинг коррупции.

Annotation. This article discusses corruption, its prevention and the fight against it.

Keywords: Corruption, world ranking of corruption

Korrupsiya – jamiyatni turli yo‘llar bilan iskanja oladigan dahshatli illat, jamiyatning tanazzuli hisoblanadi.

Korrupsiya ¹⁵ (lotincha: corruppo - aynish, poraga sotilish) – mansabdor shaxsning o‘z mansabi bo‘yicha berilgan huquqlarni shaxsiy boyish maqsadlarida bevosita suiiste‘mol qilishidan iborat. Mansabdor shaxslarning o‘z vakolatlari va huquqlaridan o‘zlarining shaxsiy manfaatlari yo‘lida qonunchlik va axloq qoidalariga zid ravishda foydalanishini anglatadi. Korrupsiya juda

¹⁵ Uz.m. Wikipedia.org

qadim tarixiy ildizga ega bo'lib, qadimgi qabilalarda qabila sardorlariga ma'lum mavqega ega bo'lish maqsadida sovg'alar berish sifatida, dastlab oddiy ko'rinishda namoyon bo'lgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashgan ilk davlat bu Shumer davlatidir. XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib, jamiyatning davlat boshqaruviga aralashuvi yuzaga kela boshlagan. 1787-yilda qabul qilingan AQSh konstitutsiyasida pora olish AQSh prezidentini impechmentga tortish mumkin bo'lgan ikki jinoyatning biri sifatida ko'rsatib o'tilgan.

Qadimgi yunon faylasufi Aristotel aytganki "Har qanday davlat tizimida–qonunlar va boshqa farmoyishlar orqali ishni shunday tashkil qilish kerakki, unda mansabdor shaxslarni noqonuniy yo'l bilan boyishga yo'l qo'ymaslik lozim" degan. Fransuz mutafakkiri Sharl Montese esa bu borada "Asrlar tajribasidan ma'lumki, har qanday hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan shaxs, uni suiste'mol qilishga moyil bo'ladi va u ma'lum bir maqsadga erishmaguncha shu yo'nalishda yuradi" degan fikrlarni bildirdi.

Prezident tomonidan joriy tilda Oliy Majlisga yo'llangan Murojaatnomasida "Korrupsiyaga ¹⁶ qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, "halollik vaksinasi" bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlarini bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o'tishimiz kerak" deb bejizga ta'kidlamaganlar va bu borada nafaqat O'zbekiston balki butun dunyo birgalikda kurash olib bormoqdalar. Ularga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin: Singapurdagi Korrupsiya holatlarini qidirish byurosi (Corrupt Practices Investigation Bureau) yoki Koreya Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mustaqil komissiyasi (Anti – Corruption and Civil Rights Commission) bunga misol bo'ladi. Ammo korrupsiya eng og'ir jinoyat hisoblanib, unga eng og'ir, o'lim jazosi beriladigan davlatlarda ham, baribir

¹⁶ Xs. uz

korrupsiya to'liq yo'q bo'lib ketmagan. Korrupsiya bo'yicha natijalar dunyo bo'yicha, 180 davlat orasida ¹⁷;

Daniya	Yangi Zelandiya	Finlyandiya	Singapur	Shvetsiya	Shveysariya	Norvegiya
88	87	85	85	85	85	8

Kanada	Lyuksemburg	Shimoliy Koreya	Yaman	Janubiy Sudan	Suriya	Somali
81	81	14	14	13	13	10

Sobiq ittifoq mamlakatlarining 2018-yilni Korrupsiyani qabul qilish indeksidagi o'ri (Taqqoslash uchun, ball va o'ri)

Estoniya	Litva	Latviya	Gruziya	Belarus	Armaniston	Moldova	Ukraina
73 ball	59 ball	58 ball	58 ball	44 ball	35 ball	33 ball	32 ball
18- o'rin	38- o'rin	41-o'rin	41- o'rin	70- o'rin	105- o'rin	117- o'rin	120- o'rin

Qozog'iston	Qirg'iziston	Rossiya	Ozarboyjon	Tojikiston	O'zbekiston	Turkmaniston
31 ball	29 ball	28 ball	25 ball	25 ball	23 ball	20 ball
124- o'rin	132- o'rin	138- o	152-o'rin	152- o'rin	158 -o'rin	161- o'rin

2012- yildan buyon faqat 20 mamlakat, jumladan Estoniya va Kot- d'lvuar o'z reytingini yaxshilay oldi, ammo 16 mamlakat, Avstraliya, Malta va Chilining reytingi tushdi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki ,korrupsiya har bir jamiyatda yomon illat, jamiyatga xavf-xatar keltiruvchi, jamiyatning tanazzuli hisoblanadi. Mamlakatimizda ham siyosiy, ham iqtisodiy islohotlarni hayotga tatbiq etish paytida korrupsiya jiddiy to'siq bo'layotgani jamoatchilikni tashvishga solmoqda. Korrupsiya va milliy taraqqiyot–yurt taqdiri, mamlakat kelajagi uchun dolzarb ahamiyat kasb

¹⁷ Lite/ www.gazeta.uz

etadi. Chunki mustamlakachilik davrda yo‘qotilgan moddiy hamda ma‘naviy boyliklar o‘rnini qayta tiklash, iqtisodiyotni rivojlantirish, milliy o‘zlikni asrash yo‘lida kecha-yu kunduz mehnat qiladigan davr keldi.¹⁸ Qayerda korrupsiya bor ekan, xoh u rivojlangan, xoh qoloq davlat bo‘lsin o‘sish sur‘ati keskin pasayib, iqtisodiy–moliyaviy inqirozga olib keladi. Shuning uchun taraqqiyot kushandasi, xavfsizlikka tahdid tug‘diruvchi ushbu xavfli illatga qarshi kurashish faqatgina tegishli organlarning emas, balki barchaning ishi bo‘lishi lozim. Shundagina biz korrupsiya xavfini bartaraf etgan bo‘lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Internet saytlari:

1. [Https: Uz.m. Wikipedia.org](https://uz.m.wikipedia.org)
2. [Https: Xs. uz](https://xs.uz)
3. [Https: Lite/ www.gazeta.uz](https://www.gazeta.uz)
4. [Https:\\tuit.uz](https://tuit.uz)

MAHALLIY SOYA NAVLARINING BOKIMYOVIIY JARAYONLARIGA FUSARIUM OXYSPORUM FITOPOTOGEN ZAMBURUG‘I TA‘SIRINI O‘RGANISH

¹⁸ <https://tuit.uz>

Nodira Mamadaliyeva,

Nizomiy nomidagi TDPU Tabiiy fanlar

fakulteti "Kimyo va uni o'qitish metodi-kasi" kafedrası dotsent v.b., PhD

Eshchanova Dilzoda

2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada yurtimizda ekilayotgan dukkakli don ekinlari orasida soya o'simligi va unga turli xil zamburug'larning ta'siri o'rganilganligi haqida so'z boradi

Annotation: this article will talk about the study of the soybean plant and the influence of various fungi on it among the leguminous grain crops that are being planted in our country

Аннотация: В данной статье рассказывается о соевом растении среди выращиваемых в нашей стране бобовых культур и о влиянии на него различных грибов

Kalit so'zlar: soya, fusarium, oxysporum, fitopotogen, zamburug', dukkak, oqsil, tuproq unumdorligi.

Bugungi kunda yer yuzi axolisini oziq-ovqat maxsulotlar bilan to'la to'kis taminlash muxim masalalardan biri xisoblanadi. Bu borada ko'pchilik davlatlarda turli ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar olib borilmoqda. Respublikamizda oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish hajmi yildan yilga ortib bormoqda. Bu oziq-ovqat turlarini yanada ko'paytirish, xalqimizni unga bo'lgan talabini qondirish, va qishloq aholisini daromadlari va turmush darajasini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston sharoitida sug‘oriladigan maydonlaridan yil davomida 2-3-marta hosil olish imkoniyatini hisobga olib, takroriy ekin sifatida o‘zining tarkibida yuqori sifatli oqsil saqlaydigan va mavjud oqsil tanqisligi muammosini ijobiy hal etadigan qishloq xo‘jaligi ekinlari turi va navlarini to‘g‘ri tanlash o‘ta muhimdir. Shuni inobatga olgan xolda takroriy ekin sifatida dukkakli don ekinlar maydonlarni ko‘paytirish maqsadga muvofiqdir. Xar yili respublikamizda 1.5 mln gektar bug‘doy ekilib 6 mln dan ortiq don olinadi. Ko‘plab ilmiy tajribalar va ilg‘or fermer xo‘jaliklarida turli tuproq iqlim sharoitida bir mavsum davomida o‘rtacha 75-80 s.dan yuqori va sifatli don hosili olib kelinmoqda. Demak, kuzgi bug‘doydan bo‘shagan maydonlarda dukkakli don ekinlari maydonlarini kengaytirish evaziga avvalo, aholini to‘yimli va sifatli mahsulotlar, chorva hayvonlarini esa vitamin, mineral moddalarga boy ozuqa bilan ta‘minlash imkonini beradi. Dukkakdoshlar (Leguminosae) oilasiga mansub bo‘lib orasida daraxt, buta, yarim buta, bir yillik va ko‘p yillik o‘tlarni uchratishimiz mumkin. 1985-yildan beri Xalqaro dukkakli o‘simliklar bazasi (International Legume Database and Information Service, ILDIS) da dukkakdoshlar oilasi 946 avlodi birlashgan 24505 turni o‘z ichiga oladi. Bu oila vakillariga qishloq xo‘jaligi ekinlaridan no‘xat, soya, yasmiq, mosh, loviya kabi o‘simliklari kiradi. Bu o‘simliklar doni tarkibida 19-30% oqsil, 4-7% moy, 47-60% azotsiz ekstraktiv moddalar, 2,4-12,8% kletchatka, shuningdek 0,2-4,0% V vitamini, hamda boshqa mineral tuzlar mavjud. Hozirgi kunda yer yuzida dukkakli-don ekinlari 135 mln. gektar maydonga ekiladi. Dukkakli-don ekinlari orasida mosh ekiladigan maydon hajmi jihatidan jahonda soyadan (dunyo bo‘yicha soya maydoni 74 mln gektarga yaqin) keyin ikkinchi o‘rin (25 mln gektarga yaqin) ni egallab, uchinchi o‘rinda no‘xat (dunyoda jami 10 mln gektarga yaqin) maydonlarda ekilib kelinmoqda.

Respublikamizning turli hududlaridagi sug‘oriladigan dalalarida dukkakdoshlar (Leguminosae) oilasi vakili soya o‘simliklari ekilgan dalalari fitosanitar nazoratdan o‘tkaziladi. O‘simlik organlarida kasallik simptomlari borligi ya‘ni ildiz, ildiz bo‘g‘zi chirish, barglarning dog‘lanishi, poyaning so‘lish va xar xil dog‘lar bilan kasallanganligi kuzatish mumkin. Bunday muammolar nafaqat bizda balki dunyoning

turli soya o'simligi ekiladigan hududlarida kuzatilmoqda. Masalan Xitoyning janubi-g'arbiy qismida soya o'simliklari muxim ahamiyatga ega. Ammo kuchli yog'ingarchilik yuqori namlik va past haroratlar ekilgan soyaning pishib etish va yig'ib olishdan oldingi bosqichlarida puch po'choq va urug'larning yomonlashishiga olib keladi. Bu muammo bo'yicha patogenlik testlari shuni ko'rsatdiki, Fusariumning barcha turlari soya navi urug'lari uchun patogendir. Fusarium kasallik urug'larning unib chiqish tezligi, ildiz uzunligi va urug'ning vazni sezilarli darajada pasaygan, Bundan tashqari, soya dukkakililarida Fusarium turlarining xilma-xilligi geografik kelib chiqishi va soya navlariga ko'ra ham sezilarli darajada farq qilgan. Shunday qilib, joriy tadqiqot natijalari soya ekinlari tizimida soya po'stlog'ining parchalanishini boshqarish va qarshilik ko'rsatish uchun foydali bo'lgan. Hozirda Xitoy hukumati hisobotiga ko'ra, soya mahsulotlariga bo'lgan ichki talabning ortib borgan bosimi tufayli 2020 yilda soya ekiladigan maydonlar taxminan 10 million gektarga oshgan.

Bizning yurtimizda ham bunday muammolar kuzatilgan albatta va tajribalar o'tkazilgan. Bunda laboratoriya sharoitida o'stirilgan soya navlari fiziologik belgilardan barglardagi umumiy suv miqdori barglarning suvni ushlab xususiyati transpiratsiya jadalligi barglardagi xloroplast pigmentlari miqdori metodlari orqali aniqlangan. Tajribalar natijasida asosan *Fusarium culmorum*, *Fusarium oxysporum*, *Alternaria alternata*, *Fusarium solani*, *Aspergillus niger*, *Alternaria sp*, *Fusarium spp*, *Trichoderma sp* *Penissulium sp* *Mucor sp* zamburug'lari ajratilib tur tarkiblari o'rganilgan.

Xulosa o'rnida ta'kidlash kerakki, Fusarium zamburug'ining morfologik, sistematik, biologik, bioximik, fiziologik, genetik hususiyatlarini Respublikaning barcha xududlardagi ekstremal sharoitida namoyon bo'lishini o'rganish uchun fundamental tadqiqotlarni olib borish kerak. Kasallikka qarshi kurashni ilmiy tashkillashtirish uchun almashlab ekish sharoitida zamburug'larning turlar tarkibini aniqlash va patogen turlar populyatsiyalarini kamaytirishni qonuniyatlarini ochish zarur. Almashlab ekish sharoitida ekinzorlarda o'tkaziladigan agrotexnik tadbirlarni

me'yorl va muddatlarini ilmiy asoslab, kasallikga qarshi biologik kurash choralarini amalga oshirish kerak. Respublikaning barcha xududlardagi eksterimal sharoitida uchraydigan Fusarium zamburug'ining agressiv formalarini aniqlab, ulardan hosil qilingan infeksiyon fonlarda soyaning kasalliklarga chidamli navlar yaratish bo'yicha seleksiya ishlarini yo'lga qo'yish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Broggi LE, González HHL, Resnik SL, Pacin A. Alternaria alternate prevalence in cereal grains and soybean seeds from Entre Rios, Argentina. *Rev Iberoam Micol.* 2007;24(1):47.
2. Clare MM, Melis R, Dereta J, Laing M, Buruchara RA. 2010. Identification of sources of resistance to Fusarium root rot among selected common bean lines in Uganda. *Journal of Animal & Plant Sciences* 7, 876-891.
3. https://www.researchgate.net/publication/294698672_Screening_of_microfungi_from_soybean_Glycine_max_L_seeds
4. Beknazarov B.O. O'simliklar fiziologiyasi. // Toshkent. 2009. B. 536.

AL-XORAZMIY ASARLARINING AMALIY AHAMIYATI HAQIDA

Ummatova Mahbuba Axmedovna

Qo‘qonDPI matematika kafedrası katta o‘qituvchisi

Mamatqulov Abdurahim Tursunboyevich

Danğara tumani, 23-maktab tarix fani o‘qituvchisi

Bugun biz tarixiy bir davrda xalqimiz oldiga ezgu va ulug‘maqsadlar qo‘yib tinch osoyishta hayot kechirayotgan, avvalambor o‘z kuch va imkoniyatlariga tayanib demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurish yo‘lida ulkan natijalarni qo‘lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz.

Bugungi kunda odamzotning ilm-fan va zamonaviy texnologiyalar borasida erishayotgan yutuqlarini kuz oldimizga keltirar ekanmiz, beihiyor anna shu bobokalonimiz misolida bunday yuksak marralarga erishishda o‘zbek halqining ham munosib hissasi borligidan qalbimiz iftihorga to‘ladi. Ayni vaqtda biz ulug‘siymolarimizning shuhratiga mahliyo bulish bilan cheklanib qolmayapmizmi degan haqli savol tugiladi. Anna shunday buyuk zotlarning faoliyati, jahon tarixidagi urni va ahamiyati, bugungi hayotga tasiri haqida jamoatchiligimizga, yosh avlodlarga yetarlicha ma‘lumot yetkazib beryapmizmi, degan masala barchamizni o‘ylantirishi kerak.

Masalaga shu ko‘z bilan baho berib, nima uchun butun dunyo ahli buyuk ajdodlarimizning merosini tan olishini, bu ulug‘zotlar nima hisobidan bunday yuksak etirofga sazovor bo‘lganini, buning tub omillari, sabablari nimada ekanini har tomonlama chuqur o‘rganib, aniq dalillar asosida ilmiy-ommabop va ma‘rifiy ko‘rsatuvlar, maqola va risolalar yaratilyaptimi-yo‘qmi, yaratilayotgan bo‘lsa, ular bugungi talablarga javob beradimi, degan savolni o‘z-o‘zimizga berishimiz lozim. Barchamizga ma‘lumki, yaqin tariximizda va bugungi kunda ma‘naviy hayotiimizda munosib o‘rin egallagan olimlarimiz haqida hujjatli filmlar, maqola va risolalar yaratib, ularning timsolida xalqimizning qanday yuksak intellektual salohiyatga ega ekanligini ko‘rsatib bersak, bu hech shubhasiz, yoshlarimiz qalbida

o'z aql-idroki, o'z kuchiga ishonch tuyg'usini oshiradi, eng muhimi ular uchun hayotda uziga xos ibrat namunasi bo'lib xizmat qiladi.

Mashhur olim Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy asli xorazmlik bo'lib, uning tug'ilgan va vafot etgan yili aniq ma'lum emas. Olimlarning tekshirishlariga asosan, Xorazmiy 783 yillar atrofida tugilgan va 850 yillarda vafot etgan deb taxmin qilinadi.

Xorazmiy yoshligidanoq o'tkir zehni va mehnatsevar bo'lgan. U o'qish, yozishni tez o'rgandi va ko'pincha o'z ustida mustaqil ishlab, fan asoslarini egallashga qattiq intildi. Ayniqsa u matematikani qiziqish bilan o'rgandi. Xorazmiy tabiat qonunlarini o'rganishga, kuzatishlar olib borishga, chet tillarni o'rganishga qiziqdi. U o'z ona tilidan tashqari fors, arab, sanskrit (qadimiy hind tili), yunon tillarini o'rgandi. U yoshligida O'rta Osiyoning ko'p shaharlarida bo'lib, bu shaharlarning tarixi va geografiyasini o'rgandi. Xorazmiy davlat ishlarini bajarish va ilmiy tekshirishlar maqsadida Bulg'or va Vizantnya mamlakatlariga ham borib kelgan.

Mashhur olim Xorazmiy o'z asarlari bilan o'rta asrlarda va undan keyingi davrlarda ham fan olamida katta shuhrat qozondiki, uning al-Xorazmiy nomi tillardan-tillarga, kitoblardan-kitoblarga o'tib «algo-rifm» so'ziga aylanib qoldi; bu so'z hozirgi vaqtda matematikada, ma'lum qoida bo'yicha bajariladigan hisoblash uslubini bildiradi.

Xorazmiy algebra fanidan birinchi bo'lib yaratgan asari «Al-jabr val-muqobala» bilan algebra faniga asos soldi va uning asosiy tushunchalari, mazmuni va qoidalarini belgilab berdi. Algebradan yozilgan bu asar, o'sha zamondagi butun sharq mamlakatlarida va lotin tiliga tarjima qilingani tufayli G'arbiy Evropada ham bir necha asr davomida algebradai asosiy qo'llanma bo'lib keldi. Mashhur matematiklar Fibonachchi, Tartalya, Kardano, Ferrari va boshqalar Xorazmiyning matematikaga doir asarlaridan foydalanganlar.

Arifmetika sohasida Xorazmiyning «Hind hisobi haqida qisqacha kitob» nomli asari, umuman fan tarixida juda katta rol o'ynadi; chunki Xorazmiyning bu asari

orqali barcha sharq mamlakatlarining xalqlari, keyinchalik bu asar lotin tiliga tarjima qilganligi tufayli Evropa xalqlari ham hozirgi o'nlik pozision sanoq sistemasi bilan tanishdilar.

Yuqorida bayon etilgan asarlardan tashqari, Xorazmiy «Astrolyabiya» («Asturlub»), «Quyosh soati», «Tarix haqida», «Musiqqa haqida», shuningdek medisina, etnografiya, kalendar masalalariga doir asarlar ham yozgan. Ammo olimning bu asarlarning ayrimlari bizgacha etib kelmagan. Xorazmiyning kalendar to'g'rigida yozgan asari yaqinda Hindistonda topildi va 1948 yilda Haydarobodda nashr etildi. Ana shu asarlar nomining o'zidayoq Xorazmiyning ilmiy tafakkuri benihoya kengligi, qomusiy alloma ekanligi, nafaqat davrning balki hamma zamonlarning eng buyuk matematik va tabiatshunos olim ekanligini ko'rsatadi. Muhammad Muso al-Xorazmiyning bugungi avlod hozirgi zamon matematika, astronomiya, geografiya va tarix fanlarining asoschisi sifatida e'zozlaydi. Jahon ilm ahlining Xorazmiy o'zining arifmetik asari orqali butun dunyoga hind raqamlarini va ularga asoslangan o'nli sanoq hisoblash sistemasini tarqatdi. Bunga qadar Yevropada rim raqamlari ishlatilar, Sharqda esa taqamlarni so'zlar yoki harflar bilan ifoda etishar edi. Bunda hisoblashlarni bajarish nihoyarda noqulay kechar edi. Yangi usulning afzalligi juda tez tushunib yetildi va butun jahonga tarqaldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. M.Ahadova. O'rta osiyolik mashhur olimlar va ularning matematikaga doir ishlari. Toshkent. "O'qituvchi". 1983.
2. H.Nazarov, Q.Ostonov. Matematika tarixi. Toshkent. "O'qituvchi". 1996.
3. Shukurovich, Madrahimov Shuhratjon, and Madrahimova Mahfuza Ahmedovna. "Measures For Monitoring And Evaluation Of Power Activity In Higher Education." *JournalNX*: 423-426.
4. Madrakhimov, Shukhrat Shukurovich, and Mahfuza Akhmedovna Madrakhimova. "A HERO WHO SAW THE WAR!." *75-летию Победы Великого народа посвящается: Люди. События. Факты.* 2020.
5. Madrakximova, Mahfuza Akxmedovna, and Maftuna Islomjon qizi Yakubjonova. "CRITERIA OF MONITORING AND EVALUATION FOR EDUCATIONAL ACTIVITIES." *Scientific Bulletin of Namangan State University* 1.6 (2019): 346-347.

Abdirazakova Ayjahan

Kegeyli tumani 9-maktab o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ona tili ta'limi bolalarning tafakkur faoliyatini kengaytirish, erkin fikrlash, o'z g'alar fikrini tinglash, o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda ravon bayon eta olish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqot qilish imkonini beradigan mahoratdir. Jamiyat. Va malakalarini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Tafakkur, tarbiya ilmi, ifoda, orfografiya, deduksiya, metodika, mashqlar, nazariya;

Ona tili darslari to'rt guruhga bo'linadi: yangi materialni o'rgatish va mustahkamlash, o'rganilganlarni takrorlash va malaka hosil qilish, bilim va malakalarni umumlashtiruvchi darslar, bilim va ko'nikmalarni tekshirish.

Yangi materialni o'rgatish va mustahkamlash darslari o'quv jarayonining eng katta qismini egallaydi. Bu turdagi darsning asosiy vazifasi o'quvchilarga fonetik, leksik, so'z yasaliş qoidalari, tilning grammatik jihatlari, imlo qoidalari, imlo, tinish belgilari va metodikasini o'rgatish va ularni mustahkamlashdan iborat. Yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonida quyidagi vazifalar hal qilinadi:

- o'rgatilgan grammatik bilimlarning asosiy maqsadini tushunish, bu bilimlarning nutq faoliyatidagi o'rnini tushunish;

- mavzu bo'yicha bilimlarning umumiy qurilishini idrok etish;

- o'rganilgan bilimlarni esga tushirish yo'lini, amaliyotda qo'llash usulini o'zlashtirish. Yangi bilimlarni o'rgatishda deduksiya va induksiya usullari qo'llaniladi. Amaldagi dastur va darsliklarda yangi bilimlarni asosan induksiya usulida o'rgatish nazarda tutilgan. Ma'lumki, ayirma usulida umumiydan xususiyga o'tadi. Induksiya usulida xususiyydan umumiyga o'tadi.

Tilshunoslik nazariyasida nutq tushunchasi ma'lum bir til hamjamiyatida qabul qilingan ifoda vositalari tizimi hisoblangan mavhum til tushunchasiga va tilning konkret, biroz umumiyroq tushunchasiga qarama-qarshi qo'yiladi. Ijtimoiy mavjudlikning (hayotning) eng xarakterli ko'rinishlari. Boshqa odamlarning xulq-atvori va faoliyatiga ta'sir qilish uchun ma'lumot va xabarlarini etkazish uchun xizmat qiladigan asl nutq (tashqi nutq), ya'ni eshitish organlari tomonidan qabul qilinadigan til belgilarining artikulyatsiyasi ko'rinishidagi nutq (ovoz yozish uskunalari yordamida yozib olinadi va takrorlanadi). Yoki yozma ravishda. Shartli aks ettirish shaklida namoyon bo'ladi.

Asl nutq («tashqi nutq») bilan bir qatorda, ichki nutq ham mavjud. U ma'ruzachining bilishiga yordam beradigan turli masalalarni muhokama qilish va hal qilishga qaratilgan. Ichki nutq tashqi nutq asosida, tovush yoki yozuvdan foydalanmasdan, faqat ovozli nutqda so'zlarning aniq tasvirlari bilan sodir bo'ladigan jarayonlar shaklida amalga oshiriladi. Yozma nutqning og'zaki nutqdan farqi shundaki, u birmuncha shakllangan, so'zlar sinchkovlik bilan tanlangan, grammatik jihatdan tushunarli, lekin murakkab, og'zaki nutqqa xos bo'lgan ohang, mimika, qo'l harakatlarini bevosita ishlatib bo'lmaydi. Nutqning monologik (qarang: Monolog) va dialog (qarang Dialog) turlari mavjud.

Nutq aloqa-aralashuv funktsiyasidan tashqari, poetik vazifa kabi boshqa funktsiyalarni ham bajarishi mumkin. Nutqning alohida shakli o'qishdir.

Har bir shaxsning nutqi individualdir va o'ziga xos xususiyatlarga ega; lekin tilning asosiy unsurlari – lug'at va grammatik tuzilma faqat alohida shaxslarga tegishli bo'lmay, balki umumiydir, ya'ni umuman olganda muayyan til jamoasiga tegishlidir. Nutq inson tafakkuri, uning ongi bilan chambarchas bog'liq. Kishining fikrlari nutqda shakllanadi va mavjuddir. Nutq tufayli va nutq asosida individuallik doirasidan chiqib, jamiyat mahsuliga aylangan borliqni umumiy, mantiqiy kontseptual tafakkurni abstrakt tarzda aks ettirish mumkin bo'ladi. Nutqning shaxs psixikasining boshqa tomonlari, uning sezgilari, idroki, xotirasi, tafakkuri, his-

tuygʻulari, irodasi va boshqalarning namoyon boʻlishi va harakatlanishida, shaxs ongining rivojlanishida katta ahamiyatga ega.

Qoʻllanish sohasiga koʻra nutqning badiiy nutq, ilmiy nutq, rasmiy nutq kabi shakllari mavjud. Har qanday shaklda va har qanday holatda ham aniqlik, ravonlik, soddalik, taʼsirchanlik nutqning eng muhim xususiyatlari boʻlib qolishi kerak.

Boshlangʻich sinflar metodologiyasiga bogʻlangan nutqqa oid mashqlarning quyidagi turlarini kiritish mumkin:

- 1) berilgan savolga keng, mukammal javob;
- 2) oʻqilgan asarni tahlil qilish, grammatik materialni oʻrganish; oʻquvchilarning soʻz boyligini faollashtirish bilan bogʻliq turli xil matn mashqlari;
- 3) muntazam kuzatuvlarni qayd etish, ob-havo kundaligini yuritish;
- 4) oʻqilgan matnni turli xil variantlarda ogʻzaki takrorlash;
- 5) berilgan mavzu, rasm, kuzatish, boshlanish yoki yakunlovchi hikoya, reja yoki syujet asosida oʻquvchilarning ogʻzaki hikoyasi;

Manbalar:

1. SH. Sariev. Developing speech in literacy classes. //Start. Tal. Magazine. Tashkent, 1997. #4. Page 23.
2. Y.K.Babansky. Methods of teaching in the modern general education school. T.: Okheti, 1990.
3. Oʻ. Tolipov, M. Usmonbekova. Practical foundations of pedagogical technologies. T.: Science, 2006.
4. Q. Abdullaeva, S. Rahmonbekova. «Mother language lessons» (a guide for 1st grade teachers). T.: 1999.
5. Q. Abdullaeva et al. Literacy teaching methodology. T.: Teacher 1996.

YOSH BASKETBOLCHILARDA KUCH SIFATINI O‘YIN MASHQLARI YORDAMIDA RIVOJLANTIRISH

O‘qituvchi: **Umbetova Mamura Abduvakilovna**

O‘qituvchi: **Kubeysinova Ulbolsin Tursunbayevna**

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

Chirchiq

e-mail: mamuraumbetova1986@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada keskin o‘zgaruvchan vaziyatlar hamda raqib qarshiligi ta’sirida to‘pni urib yugurish harakatlarini bajarishda yoshbasketbolchilarda kuch sifatini harakatli o‘yinlar va o‘yin mashqlari yordamida rivojlantirish samaradorligi tajriba asosida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *texnik, taktik, kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamkorlik, egiluvchanlik, yugurish, uzatish, ilish.*

Аннотация: в данной статье на основе опыта выявлена эффективность развития качества силы у юных баскетболистов с помощью динамических игры и игровых упражнений при выполнении действий удара по мячу и бега под влиянием сопротивления соперника.

Abstract: In this article, on the basis of experience, the effectiveness of developing the quality of strength in young basketball players with the help of dynamic games and game exercises was revealed when performing the actions of hitting the ball and running under the influence of the opponent’s resistance.

Basketbol o‘z mohiyati va mazmuni bilan sport o‘yinlari tarkibiga mansub bo‘lib, keskin o‘zgaruvchan yo‘nalishlar bo‘ylab favqulotli vaziyatlar hamda raqib qarshiligi ta’sirida to‘pni urib yugurish, harakat davomida yoki sakrab to‘p uzatish – ilish va savatga tashlash kabi texnik–taktik usullar bilan farqlandi. Shuning uchun

ham basketbolga o'rgatish, unga xos bo'lgan texnik–taktik ko'nikmalarni shakllantirishda aksariyat o'yin mashqlaridan foydalaniladi. Basketbolga o'rgatish tajribasi, ayniqsa yosh basketbolchilar tayyorlash amaliyotidan ma'lumki, shu sport turiga xos mashg'ulotlarda asosan turdosh va ixtisoslashtirilgan harakatli o'yinlar qo'llaniladi. Chunki bunday o'yinlar hatto murakkab texnik–taktik ko'nikmalarni ham nisbatan osonroq, tezroq va samarali o'zlashtirish imkonini yaratadi. Texnik–taktik ko'nikmalar hamda harakatli o'yinlarning turi va mazmunidan qat'iy nazar ular barcha jismoniy sifatlari (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamkorlik, egiluvchanlik)ni rivojlantiradi. Demak, basketbolchilarni tayyorlashda turdosh va ixtisoslashtirilgan harakatli o'yinlardan umumli foydalanish texnik–taktik mahoratni ham, jismoniy sifatlarni ham jadal shakllantiradi. Basketbolga xos turdosh va ixtisoslashtirilgan harakatli o'yinlarning muhim hamda ustivor xususiyatlari shundan iboratki, bunday o'yinlar obrazli, syujetli bo'lgani, ularda turli rollarga (ovchi, quyon, bo'ri va h) bo'linib ishtirok etish toliqishni tormozlaydi, ishtirokchilar obrazga kirib ketib, ijobiy emotsional holat yuzaga keladi, motivatsiya kuchayadi va ular charchash xissini sezmaydi. Agar texnik–taktik ko'nikmalarni shakllantirish va jismoniy sifatlarni rivojlantirish uchun stereotip yoki standart mazmunli mashqlar (yugurish, sakrash, sakrab to'p bilan texnik usulni bajarish va h) surunkasiga takrorlanaversa asab torlari taranglashadi, ruhiyat salbiy tomonga o'zgara boshlaydi.

Ishning maqsadi. Yosh basketbolchilarda kuch sifatini o'yin mashqlari yordamida rivojlantirish samaradorligi ilmiy-pedagogik tajriba asosida o'rgatishdan iborat.

Ishning vazifalar:

1. Yosh basketbolchilarda kuch sifatini qiyosiy baholash.
2. Kuch sifati ko'rsatkichlarini harakatli o'yinlar yordamida shakllantirish imkoniyatlarini o'rgatish.

Yosh basketbolchilarda jismoniy tarbiya o'quvchilarning jinsiga, yoshiga, jismoniy tayyorgarligini hisobga olgan holda aniqlanadi.

- 1) Devor oldida qo'llarga tayangan holda, qo'llarni bukib-yozish (marotaba).

	«a'lo»	«yaxshi»	«qoniqarli»
11 yosh	5	4	3
12 yosh	6	5	4

2) Bosh ustidan ikki qo'lda, to'ldirma to'pni (1 kg) otish, (metr).

«a'lo» «yaxshi» «qoniqarli»

	«a'lo»	«yaxshi»	«qoniqarli»
11 yosh	12	10-11	7-8
12 yosh	13	11-12	8-9

3) Oyoqlar elka kengligida turgan holda, o'tirib-turishlar (marotaba).

«a'lo» «yaxshi» «qoniqarli»

	«a'lo»	«yaxshi»	«qoniqarli»
11 yosh	13-15	10-12	8-9
12 yosh	15-18	13-14	10-12

4) Tennis to'pini otish (metr).

	«a'lo»	«yaxshi»	«qoniqarli»
11 yosh	25	20-22	18-20
12 yosh	30	20-25	19-21

Ishning maqsadi yosh basketbolchilar kuch sifatini rivojlantirishda o'yin mashqlari, harakatli o'yinlarning ahamiyatini aniqlash bo'yicha murabbiylarning fikrini o'rganishdan iborat.

Buning uchun sport maktablarida basketbol bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan murabbiylar fikri o'rganildi.

Basketbol nazariyasi va uslubiyatiga oid ilmiy ma'lumotlarga e'tibor berilsa shu narsa ravshan bo'ladiki mashg'ulot jarayonida, jumladan kuch sifatini rivojlantirishda harakatli o'yinlar nafaqat samarali vosita sifatida tan olingan, balki ular ixtisoslashgan standart, katta hajmli yoki katta shiddatli yuklamalar ta'sirini yengillashtiruvchi vosita bilan xizmat qilishi e'tibor etilgan. Shuning uchun murabbiylar fikrini bilish muhim ahamiyatga ega.

Ishimizda ishtirok etadigan sportchilardan kuch sifatini aniqlab beruvchi, quyidagi mashqlar yordamida tadqiqot o'tkazdik:

Yosh basketbolchilarning so'nggi ko'rsatkichlari (marta)

Tadqiqot guruhi					Nazorat guruhi			
№	I.SH	To'pni uzoqlikka otish (m)	To'pni archasimon olib yurish (5x6), (sek.)	3 ochkoli zonadan to'p otish (10 urinish)	I.SH	To'pni uzoqlik a otish (m)	To'pni archasimon olib yurish (5x6), (sek.)	3 ochkoli zonadan to'p otish (10 urinish)
1.	X.I.	19	28	8	S.N.	17,8	28	8
2.	U.M.	17,2	30	7	U.K.	16,5	30	7
3.	A.F.	16,7	29	9	G.V.	16,8	26	8
4.	I.P.	16	27	7	N.T.	17	29	9
5.	E.R.	17	31	8	Sh.R.	16,4	30	8
6.	Ya.K	19,9	27	8	Yu.B	17	29	6
Jami		63,4	103,2	28,2		60,9	103,2	27,6

o'tkazilgan pedagogic tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sport maktablarida s turi asosida shug'ullangan 11-12 yoshli basketbolchilarda maxsus jismoniy sifatlar etarli darajada o'zgarmagan. Aynan shu sifatlarni rivojlantiruvchi mashqlarni va harakatli o'yinlarni o'z tarkibiga kiritgan mashg'ulotlar tadqiqot guruhida kuch sifatini ko'rsatkichlarini samarali o'sganligini ko'rsatib berdi.

Xulosa va amaliy tavsiyalar

Mavzu bo'yicha qayd etilgan adabiyotlar tahlili shu narsani e'tirof etishga imkon beradiki, malakali basketbolchilar tayyorlashda kuch sifatlari va ularni turli o'yin malakalarga ixtisoslashgan turlari shu malakalari samarali ijro etishda muhim ahamiyatga ega ekan. Dastlabki o'rgatish endigina shug'ullanayotgan yosh

basketbolchilar mashg'ulotlar kuch sifatini rivojlantiruvchi mashqlar va harakatli o'yinlar yetarli darajada qo'llanmasligi aniqlandi. Binobarin, tanlab olingan mavzu haqiqatan ham dolzarb ekanligi o'z ifodasini topdi. Ilmiy adabiyotni tahlili shundan dalolat beradiki, basketbol mashg'ulotlarini tashkil qilish va o'tkazish chog'ida xalq harakatli o'yinlar etarli darajada qo'llanilmaydi. Respublikamizda esa bu xanuzgacha muammo bo'lib turmokka. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xalq harakatli o'yinlari hamma fazilatlar, qobiliyatlar, sifatlarni tarbiyalash bilan bir qatorda aqliy va harakat ko'nikma xamda malakalarining shakllanishida asosiy o'rinlarni egallaydi. Xalq harakatli o'yinlari basketbol seksiyasida shug'ullanuvchi yosh basketbolchilarga mo'ljallangan dasturdagi mashqlar bilan ko'shib olib borilganda jismoniy sifatlar rivojlanganligi aniqlandi. Basketbol mashg'ulotlariga xalq harakatli o'yinlarining kiritilishi o'quvchilarni jonlantiradi, ular o'yinlarni qiziqish va ehtiros bilan qabul qildilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Miradilov B., Karimov B., Umbetova M. Sport pedagogik mahoratini oshirish (basketbol). // O'quv qo'llanma. T., 2017.
2. Нестеровский Д.И. Теория и методика баскетбола. // Учебное пособие для студентов вузов. М.: "Академия", 2004. – 336с.
3. Казоқов Р.Т., Джўрабаев А.М., Юлдашева К.А. ЎЗБЕКИСТОНДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШИ.//”SPORT MENEJMENTI VA MARKETINGI: MUAMMOLAR, TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR”1,237-240.
5. Джўрабаев А.М., Махмудов А.И. МУВОЗАНАТ МАШҚЛАРИНИНГ АНАТОМО-ФИЗИОЛОГИК ВА БИОМЕХАНИК ХАРАКТЕРИСТИКАСИ. // “МИЛЛИЙ СПОРТ ТУРЛАРИ, ЭТНОСПОРТ ВА УНИНГ НАЗАРИЙ-АМАЛИЙ МУАММОЛАРИ” ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН, 1, 594.

6. Buriyev, B. U., & Muxiddinova, F. A. (2022). O „zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti talabalarining psixologik va jismoniy tayyorgarligini sport yakka o„yinlari orqali shakllantirish. *ILMIY TADQIQOTLAR SAMMITI*, 1(1), 145-149.

7. YOSHLARDA SALBIY O‘ZGARISHLARNI KELTIRIB CHIQRUVCHI TASHQI TA’SIRLARNING IJTIMOY, PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK JIHATLARI Esonova Dildora Normurodovna Buriyev Bobonazar O‘roqovich 2022/10/21// "YOSH SPORTCHILARNI PSIXOLOGIK JIHATDAN TAYORLASH" 441. 2. 405,406,407

8. The advantage of forming a volleyball-specific jumping ability in the order corresponding to the technical techniques FZ Ibragimov Eurasian Journal of Sport Science 2 (1), 173-177

9. Modern content and concept of digital economy KA Urinovich, RO Qobiljonovich, RS Baxtiyorvich, MM Abdulakhatov ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal 11 (11), 829-832

10. Buriyev, B. U., & Djurabo‘yev, A. M. (2022). Yosh voleybolchilar texnik va taktik mahoratlarini takomillashtirish va jismoniy tayyorgaliklarin amalga oshirish uslub va tamoyillari. *Jismoniy tarbiya sport mashg‘ ulotlari nazariyasi*, 1(1), 145-147.

O‘TISH DAVRIDA YOSHLARNI QADDI QOMATINI TO‘G‘RI RIVOJLANISHIDA SPORTCHA YURISHNING AHAMIYATI

Bo‘riyev Bobonazar O‘roqovich, Aminova Nilufar Shuxrat qizi

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

Chirchiq, O‘zbekiston

e-mail: bobonazar87@gmail.com

Tadqiqotning dolzarbligi. Bugungi kunda yoshlarda sog‘lom turmush tarzini ko‘nikmalarini shakllantirish, yoshlarni ta‘lim tarbiya olishidagi muammo va to‘siqlar butun dunyodagi global muammolardan biridir. Eng muhimi butun dunyoning dolzarb muammolariga aylanib borayotgan iqlim o‘zgarishi, sifatsiz istemol qilinadigan taomlarning ko‘payishi, tabiiy maxsulotlar o‘rniga suniy tez pishar va chala tayyorlanayotgan taomlarni hamda gazli, alkagol mahsulotlarini istemol qilish, Zamonaviy texnologiyalarni rivojlanayotganligi sababli kam harakatlarni kelib chiqishi yoshlarda ortiqcha vazn to‘planishi, tez ulg‘ayish, tez qarish, hamda turli xil kasalliklarga chalinishiga olib kelishi hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Xozirgi globallashuv davrida kam harakatlilikni oldini olish, sifatsiz hamda tabiiy bo‘lmagan maxsulotlardan tiyilish, shaxsiy gigiena qoidalariga amal qilish barchamiz uchun muhimdir. Salomatlik insonning birinchi va eng muhim ehtiyojidir. Insonning baxtli faol uzoq umr ko‘rishi hayotining muhim tarkibiy qismidir. Har yosh inson o‘z salomatligini yaxshilash uchun kurashishi kerak. Erta yoshdan boshlab faol hayot tarzini olib borish, jismoniy tarbiya va sport bilan yoshlikdan, muntazam shug‘ullanishi, shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilish, bir so‘z bilan aytganda, salomatlikning haqiqiy uyg‘unligiga oqilona yo‘llar bilan erishish lozimligi dolzarb masaladir.

Tadqiqot maqsadi. Yoshlarni yengil atletikaning “Sportcha yurish” turi orqali salomatlikni mustahkamlash.

Tadqiqot ob'ekti. 16-18 yoshli o'g'il qizlar

Tadqiqotni vazifalari: a) Yoshlarni sportcha yurish bilan tanishtirish

b) Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish

Sog'lom turmush tarziga amal qiladigan ko'plab odamlar qaysi sport turlari borligini yaxshi biladilar. Yengil atletikaning "Sportcha yurish" turi Olimpiya sport turlaridan biri bo'lib, uning xususiyati doimiy yordamning mavjudligidir. Ushbu texnikani odatiy yurishdan farqi qadam uzunligi, shuningdek oyoqlarning belgilash xususiyati bilan ajralib turadi. Atletik yurish salomatlikni yaxshilash deb ham atash mumkin. Chunki u barcha organlar va tizimlarning ishiga ijobiy ta'sir qiladi. Ushbu sport turi bilan shug'ullanganda inson birinchi o'rinda vazinni yuqotib, mushaklar kuchaytiriladi.

Sportcha yurish, odatdagi yurishdan tik holatda tayanilayotgan oyoqni, albatta tug'ri holda, tizza bukilmasdan yurish bilan yugurishdan harakatning tayanch bosqichi bulmasligi (tavonni bosish shartligi) bilan ajralib turadi. Sportcha yurish tezligi odatdagi yurishdan 2-2,5 barobar yuqori buladi. Bunda katta (105-115 sm) va tez-tez (minutiga 180-200 ta) qadam tashlash bilan erishiladi.

Musaboqalar stadion yulkasida va asfalt yulaklarda o'tkaziladi. Erkakalar 10-50 km (rasmiy xalqaro musaboqalarda 20 va 50 km), o'smirlar 3-10 km; ayrim mamlakatlarda ayollar 3-20 km masofada musaboqalashadi.

Sportcha yurish musaboqalari birinchi bulib Buyuk Biritaniyada, Kanada, AQSH, Shvetsiya, Fransiya, Germaniya mamlakatlarida o'tkazila boshlangan. 1908 yil dan Olimpiada o'yinlari dasturiga kiritilgan.

Atletik yurishning asosiy talabi bir oyoq sirt bilan aloqa qiladi va tananing proektsiyasi vertikal holatga o'zgaradi. Tajribali sportchilar Sportcha yurish bilan yugurishni farqini ajrata oladi.

Ishlayotganda, sportchi tegib turgan joyga birdaniga ikkala oyog'ini qo'ya olmaydi va harakat paytida yurish bir oyoqni tashkil qiladi.

Aslida yurish bu qadamning almashinuvi, sportchining doimiy yer bilan aloqadaligi.

Sportcha yurishda quyidagi qoidalarga rioya qilish muhim:

1. Oldinga qaratilgan oyoq vertikalgacha yer bilan aloqa qilishdan butunlay tekislanadi.

2. Yurush texnikasi sudyalardan tomonidan masofadan turib baholanadi. Katta hakamni o'z ichiga olgan holda ular 9 kishi buladi.

3. Hakamlar sportchilarga sariq kartochka yordamida ogohlantirish e'lon qilish huquqiga ega. Bir tomonda to'liqinli garizontal chiziq, ikkinchisida esa 150 graduslik burchakda bir-biriga bog'langan ikkita segment.

Sportcha yurish bilan shug'ullanganda barcha organlar va tizimlarning ishiga ijobiy ta'sir qiladi. Ushbu sport turi bilan shug'ullanganda inson birinchi o'rinda vazinni yuqotib, mushaklar kuchaytiriladi. Nafas olish, qon aylanish tizimlari me'yorida ishlaydi. Sportcha yurish uchun stadion yulkasi, asfalt yulaklar yoki istirohat bog'lari yaxshi samara beradi. Yurishda eng qulay vaqt erta tongda yoki kechki salqinda yurish foydali hisoblanadi. Sababi inson toliqib qolmasligi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Buriyev, B. U., & Djurabo'yev, A. M. (2022). Yosh voleybolchilar texnik va taktik mahoratlarini takomillashtirish va jismoniy tayyorgaliklarin amalga oshirish uslub va tamoyillari. *Jismoniy tarbiya sport mashg'ulotlari nazariyasi*, 1(1), 145-147.

2. Yoshlarda salbiy o'zgarishlarni keltirib chiqaruvchi tashqi ta'sirlarning ijtimoiy, pedagogik va psixologik jihatlari Buriyev Bobonazar O'roqovich "yosh sportchilarni psixologik jihatdan tayorlash" 441 (2), 405,406,407

3. Buriyev, B. U., Muxiddinova, F. A. (2022). O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti talabalarining psixologik va jismoniy tayyorgarligini sport yakka o'yinlari orqali shakllantirish. *ILMIY TADQIQOTLAR SAMMITI*, 1(1), 145-149.

4. Buriyev, B. U., Kadirov, R. R. (2021). Роль и место спортивных и подвижных игр в общей структуре учебно-производственной практики. 2021 yildao'tkazilgan XXXII yozgi Olimpiya, 1(1), 100-103.

5. Buriyev, B. U., Qodirov, R. R., Kazoqov, R.T. (2021). Jismoniy tarbiya va sportda axborot kommunikatsiya texnologiyasining tuzilishi va tamoyillari. Ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning innovatsion usullari, 5(5), 555-559.

**YOSHLARDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI
SHAKLLANTIRISHDA JISMONIY TARBIYA VA TABIATNING
SOG‘LOMLASHTIRUVCHI KUCHLARINING O‘RNI**

Adilov Nuriddin Sag‘dillayevich

Islom karimov nomidagi toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent

Djurayeva Nodira Ikromaliyevna

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitet, Chirchiq

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda yoshlarda sog‘lom turmush tarzini ko‘nikmalarini shakllantirish, yoshlarni ta‘lim tarbiya olishidagi muammo va to‘siqlar butun dunyodagi global muammolardan biridir.

Xozirgi globallashuv davrida kam harakatlilikni oldini olish, sifatsiz hamda tabiiy bo‘lmagan maxsulotlardan tiyilish, shaxsiy gigiena qoidalariga amal qilish barchamiz uchun muhimdir. Ayniqsa yoshlarni salomatligini mustahkamlash, ular bilan muntazam jismoniy mashg‘ulotlarni olib borish, ularda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish masalalari bugungi kunda dolzarblik kasb etmoqda.

So‘ngi paytlarda hayot sur‘ati tezlashdi, odatiy stereotiplar o‘zgardi, inson faoliyati jarayonidagi psixoemotsional yuklamalari o‘sdi. Buning hammasi harakat faolligi etishmasligi zamirida kechmoqda. Shuni e‘tirof etish joizki, katta hajmdagi mashg‘ulot yuklamalari, gipodinamiya kabi, moslashish jarayonlarining zo‘riqishiga va aholining turli xil ijtimoiy-demografiya guruhlarining, jumladan xotin-qizlarning salomatlik holati yomonlashishiga olib keladi. Salomatlik insonning birinchi va eng muhim ehtiyojidir. Shunday ekan inson baxtli faol uzoq umr ko‘rishi hayotining muhim tarkibiy qismidir.

Ishning maqsadi: Yoshlarda jismoniy tarbiya va tabiatni sog‘lomlashtiruvchi kuchlari orqali sog‘lom turmush tarzini shakllantirish.

Ishning asosiy qismi: Yoshlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy tarbiya hamda tabiatning sog‘lomlashtiruvchi kuchlari (Quyosh nuri, suv, havo) to‘g‘risida bayon etiladi.

Sog‘lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya sog‘lom turmush tarzining asosiy omillaridan biriga aylanmoqda. Uning asosiy maqsadi organizmni har tomonlama rivojlantirish, uni turli xil jismoniy va aqliy yuklamalardan toliqqandan so‘ng tiklantirish, chiroyli qomadni saqlab qolishdir. Hozirgi kunda internet saxifasidagi Jahon sport ensiklopediyasidagi ma‘lumotiga ko‘ra, 8000 ta mahalliy sport turlari va o‘yinlar mavjud. Jismoniy tarbiya va sport bilan yoshlikdan muntazam shug‘ullanishning inson uchun ko‘plab foydali jihatlari aniqlangan. Tongda qilingan ertalabki gimnastika mashqlari kun davomida insonlarda yaxshik ayfiyatni taminlab beradi. Ochiq havoda yugurish mashqlari, ortiqcha vazn yig‘ishdan asraydi, yurak-qon aylanish tizimini funksiyasini samaradorigini oshiradi.

- Vazn yig‘ish va vazn yo‘qotishga yordam beradi
- O‘pka rivojlanadi, nafas olish yaxshilanadi
- Mushak to‘qimalari rivojlanadi
- Chidamlilik ortadi
- Yurak-qon tomir tizimining chidamliligini rivojlantiradi,
- Shlaklar tanadan chiqariladi.

Yoshlar uchun quyosh nurining foydalari Quyosh bizga eng yaqin yulduzdir. Quyosh yuzi Yer yuziga o‘xshab qattiq va mustahkam emas. Buning isboti oddiy: Quyosh yuzining harorati 6000°S ni tashkil etadi. Bunday haroratda har qanday metal va tosh ham gazga aylanadi, shu sababli Quyoshni gaz shari deyish mumkin. Aslida Quyosh 75% vodorod gazi va 25% geliydan tashkil topgan. Quyosh materiyani energiyaga aylantiradi. Quyoshdagi shu energiya vodorodning geliyga aylanish termoyader reaksiyalar asosida vujudga keladi.

Quyoshdan keladigan nur Yerga yetib kelganda, katta qismi atmosfera qobig‘ida tutilib, qolgan qismi Yer sirtiga yetib keladi. Bu nurlarni “oq nurlar” deb

yuritiladi. Ushbu nurlar prizma orqali kuzatilganda yetti xil rangga ajralishi, bundan tashqari, ultrabinafsha, infraqizil nur ham borligi ma'lum.

Aynan infraqizil nurlar tanada qon aylanishi yaxshilanishiga xizmat qiladi. O'z navbatida, organizmdagi barcha hayotiy jarayonni faollashtiradi, kayfiyatni ko'taradi, tetiklik va quvvat bag'ishlaydi. Depressiyadan qutilishga ko'maklashadi, shuningdek, og'riq qoldirish xususiyatiga ham ega.

Ultrabinafsha nurlar esa Quyosh nurlari spektorning atigi 5 foizini tashkil etadi. Lekin bu ko'rsatkich ortib ketse, inson hayotiga xavf solishi mumkin. Aslida ultrabinafsha nurlar immun tizimi me'yorida ishlashini ta'minlaydi, kasalliklarga sabab bo'luvchi bakteriyalarga qarshi kurashadi, tananing endokrin tizimini yaxshilaydi. Quyosh nurlari inson tanasida D vitamini hosil bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu vitamin insonning suyaklari mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Yoshlar uchun ochiq (toza) havoning foydalari. Havo turli gazlardan tashkil topgan aralashma — azot, kislorod, karbonat angidrid, vodorod, suv bug'lari va hokazolardir. Fanning aniqlashiga ko'ra, havoning bunday tarkibi 50 mln. yildan ko'proq vaqt barqaror bo'lib keldi. Yer yuzini o'rab olgan havoning vazni 5000 trillion tonnaga boradi. Yer kurrasidagi har bir jon boshiga 2,5 mln.t. havo to'g'ri keladi. Ekologik muvozanat buzilishi natijasida, keyingi 100 yil davomida 245 mln.t. yo'qotildi, uning o'rniga esa 360 mlrd.t. karbonat angidrid hosil bo'ldi. Keyingi yillarda havoning tarkibida karbonat angidrid miqdori ancha ko'paydi. Bu hodisa sayyoramiz uchun jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin, shundan iqlim o'zgarishi o'simliklardagi hayotiy jarayonlar, ya'ni ularning hosildorligi kamayishi kabilarda ko'rish mumkin. Havoda ekologik muvozanat buzilishining asosiy sababi uning ifloslanishidir.

Barcha mehnat jamoalari, turar joylarda shunday ahloq normalarini yaratish kerakki, bunda atmosfera havosini saqlash muhim ekanligini har bir kishi his etsin.

Ana shunda bizning tabiat, havo o'z tozaligini saqlaydi hamda hozirgi va kelajak avlodlarni quvnoq, farovon yashashi uchun xizmat qiladi.

Sof, musaffo havo, kislorodning mo‘l-ko‘lligi: hayot, salomatlik, mehnat qilish qobiliyati va uzoq umr ko‘rish qudratli manbaidir. Kislorodsiz moddalar almashinuvi izdan chiqadi, yaxshi hayotni tasavvur etib bo‘lmaydi. Musaffo havo - bu hayot va sog‘iiq manbaigina emas, balki cheklanmagan miqdorda tabiat yetkazib berayotgan dorivor hamdir. Mana shuning uchun ham istiqomat va xizmat qilinadigan joylarda havo musaffo, toza bo‘lmog‘i kerak.

Shifokorlarning ta’kidlashicha, yayov yurish, serharakatlilik inson salomatligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, quyoshli kunlarda va ertalab ochiq havoda sayr qilish har birimiz uchun g‘oyat foydali ekan. Sayr uchun kunning eng qulay vaqti ertalab soat 8:00 dan 11:00 gacha, yoz kunlari kechki 18:00 dan keyindir. Ushbu tavsiyalarga amal qilish chaqaloqlar va yosh bolalar uchun juda muhim bo‘lib, ochiq havodagi sayr bolani chiniqtirish bilan birga organizmda D vitamini ishlab chiqarilishini kuchaytiradi.

Agar organizmda D vitamini yetishmovchiligi kuzatilsa, bolaning kalsiy va fosfor elementlariga bo‘lgan ehtiyoji qondirilmaydi. Bu esa, o‘z navbatida raxit xastaligini keltirib chiqaradi, – deydi M.Irismetov. – Ko‘pincha ushbu kasallik kech kuz va qish oylarida tug‘ilgan bolalarda uchraydi. Sababi, bu fasllarda tug‘ilgan bola uchun quyosh nuri yetarli bulmaydi. Bolaning rivojlanishi, xususan, suyakning o‘shishi va mustahkam bo‘lishi uchun organizmga kalsiy va fosfor elementlari zarur bo‘ladi. D vitamini esa kalsiy va fosforning ichakdan so‘rilishi, ularning suyak, mushak va boshqa a‘zo to‘qimalariga yetib borishini boshqaradi.

Shu bois, D vitaminiga boy oziq-ovqatlar – mol go‘shiti, ayniqsa, baliq, tuxum hamda jigar mahsulotlarini iste’mol qilish juda ham foydali. Go‘dakka qo‘shimcha mahsulotlar berilmaydigan davrda ona D vitaminiga boy mahsulotlar, kalsiyga to‘yingan oziq-ovqat: sut va sut mahsulotlari, turshak, loviya, xurmo, ko‘k piyozlarni muntazam iste’mol qilsa, ushbu moddalar ona suti bilan birga farzandiga o‘tadi va uning sog‘lom bo‘lishiga zamin yaratadi.

Malumot uchun, Prezidentimizning «Aholining sogʻlom ovqatlanishini taʼminlash boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida»gi qaroriga muvofiq, 2021 yil 1 iyundan boshlab 6-23 oylik bolalar uchun uy sharoitida tayyorlangan ovqatlarni boyitish maqsadida mikronutriyent kukuni bilan, 6 oylikdan 5 yoshgacha boʻlgan bolalar “A” vitamini bilan, 2-10 yoshdagi bolalar gelmintoz profilaktikasi boʻyicha maxsus preparatlar bilan bepul taʼminlanadigan boʻldi. Shuningdek, 2022 yil 1 iyuldan boshlab homilador va bola emizuvchi ayollar hamda 3-15 yoshdagi bolalarga yod preparati, 35 yoshgacha tugʻish yoshidagi ayollar temir va foliy kislotasi preparati bepul beriladi.

Yoshlar uchun suvning foydalari. Inson organizmining 2/3 qismi suvdan iborat. Katta yoshli inson kuniga 2 litrdan kam boʻlmagan miqdorda suv ichishi kerak. Biroq hamma ham bunga amal qilavermaydi. Bu esa hayot, salomatlik, goʻzallik va ozish uchun muhimdir! Bu haqida zdorovejka.ru’da taqdim etilgan foydali maʼlumotlarni eʼtiboringizga havola qilamiz.

Suv inson organizmining barcha hujayralari uchun ozuqa hisoblanadi. Aynan suv har bir organning katta qismini egallaydi. Masalan, qondagi suv miqdori - 90 foiz boʻlsa, miya - 85 foiz, mushaklar - 75 foiz, jigar - 65 foiz, suyaklar - 28 foiz, yogʻtoʻqimalari esa 25 foiz suvdan tashkil topgan. Organizmdagi barcha kimyoviy reaksiyalar suv ishtirokida boʻladi.

Chanqoq hissi organizmga yordam kerakligidan dalolat beradi. Shu bois inson faqat organizmi talab qilgandagina emas, har doim - suv ichgisi kelsa-kelmasa, uni suv bilan taʼminlab turishi kerak.

Aksariyat odamlar kundalik meʼyorning bor-yoʻgʻi 1/3 qismini isteʼmol qilganliklari uchun ham, koʻp kasalliklar rivojlanadi.

Oʻzimizni yomon his qilsak, odatda buni charchoq yoki stresslar, vitaminlar yetishmovchiligi va boshqa sabablar bilan izohlaymiz. Vaholanki, organizm shu tariqa oddiy suvga ehtiyoj sezayotgan boʻladi, zero organizm suvsiz toʻlaqonli ishlay olmaydi.

Germaniyadagi bolalar oziqlanishini o'rganuvchi ilmiy-tadqiqot instituti izlanishlari natijasida ma'lum bo'lishicha, 1 yoshdan 4 yoshgacha bo'lgan bolalar kam suyuqlik ichishar ekan. Bola bu yoshda deyarli 1 litr suyuqlik ichishi kerak, bu taom bilan iste'mol qilinadigan suyuqlikdan tashqari. Biroq bolalar bundan kam suv ichishar ekan. Bolalar ichishi uchun eng optimal suyuqlik - bu toza ichimlik suvi.

Suvning o'rnini ichimliklar bilan to'ldirish mumkinmi? Suvga aralashtirilgan mevali va sabzavotli sharbatlar organizmning suyuqlikka bo'lgan talabini qondiradi, biroq ularda kaloriyalar mavjud. Sut va shakarli ichimliklarni o'zlashtirish uchun esa organizmga oddiy suv kerak bo'ladi. Choy, qahva va alkogol yengil peshob haydovchi ta'sirga ega, shuning uchun ulardan keyin suyuqlik o'rnini to'ldirish uchun organizmga suv kerak bo'ladi. Suvdek qadrli suyuqlik o'rnini hech nima bosa olmaydi!

Ko'pincha siz kuniga 1,5-2 litr suv ichish uchun eshitishingiz mumkin. Biroq, bu bayonot butunlay to'g'ri emas. Bundan tashqari, barchamiz suvning tanamizga qanday foydasi borligini aniq bilishmaydi.

Birinchi, suv minerallar va ayrim birikmalarning asosiy hal qiluvchi hisoblanadi. Bu ko'p miqdordagi kimyoviy reaksiyalarning an'anaviy yo'llari uchun zarur bo'lgan suyuq muhitdir. Shunday qilib kun davomida siz ozgina suyuqlik ichsa, zaiflik, tahdid, samaradorlik va e'tibor kamayishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Buriyev, B. U., & Djurabo'yev, A. M. (2022). Yosh voleybolchilar texnik va taktik mahoratlarini takomillashtirish va jismoniy tayyorgaliklarin amalga oshirish uslub va tamoyillari. *Jismoniy tarbiya sport mashg' ulotlari nazariyasi*, 1(1), 145-147.
2. Yoshlarda salbiy o'zgarishlarni keltirib chiqaruvchi tashqi ta'sirlarning ijtimoiy, pedagogik va psixologik jihatlari Buriyev Bobonazar O'roqovich "yosh sportchilarni psixologik jihatdan tayorlash" 441 (2), 405,406,407

3. Джўрабаев А.М., Махмудов А.И. Мувозанат машқларининг анатомо-физиологик ва биомеханик характеристикаси. // “миллий спорт турлари, этносспорт ва унинг назарий-амалий муаммолари” халқаро илмий-амалий анжуман, 1, 594

4. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM Part 24 NOVEMBER 2022 COLLETIONS OF SCIENTIFIC WORKS Washington, USA 25th Том 2 Номер 24 Страницы 312 Издатель USA, WASHINGKTON.

5. The effectiveness of planning the training loads of discus throwers in the annual training process ZK Yusupova.

6. Казоқов Р.Т., Джўрабаев А.М., Юлдашева К.А. ЎЗБЕКИСТОНДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШИ.//”SPORT MENEJMENTI VA MARKETINGI: MUAMMOLAR, TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR”1,237-240.

INKLYUZIV TA'LIMGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Sitora Eshmamatova,

KUIT magistranti

Annotatsiya: maqolada inklyuziv ta'limga qo'yiladigan talablar to'g'risida fikr yuritilgan va metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, inklyuziv, talab, bilim, ko'nikma, malaka.

Аннотация: в статье вкзмишлино о трибование про инклизоивной образование и дано методиские рекоминдациее по данному вапросу.

Ключевые слова: образование, инклизив, требование, знание, навька, умение.

Annatation: the article discusses the requirements for inclusive education and gives methodological recommendations

Key words: education, inclusive, demand, knowledge practice, skill.

O'zbekistonda ta'lim sifatiga erishish vazifalari amalga oshirilmoqda. Bu borada "Yangi O'zbekistonning tarqqiyot strategyasi"da belgilangan vazifalar asos bo'lmoqda[1]. Shu jihatdan imkonyati cheklangan ta'lim oluvchilarni inklyuziv ta'lim shakli bilan qamrab olish dolzarb hisoblanadi. Bu o'rinda e'tiboringizni iklyuziv ta'limga qo'yiladigan *talablar* taxliliga tortamiz.

1. Iklyuziv ta'lim bilan qamrab olish talabi. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida mamlakat ta'lim tajribasida ilk bor iklyuziv ta'limni tashkil etish belgilab qo'yildi[2]. Mazkur qonunning 20-moddasi "Iklyuziv ta'lim" deb nomlangan bo'lib mazkur ta'lim shakliga quyidagicha talab qo'yilgan: "Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkonyatlarining hilma-hilligini

hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ya'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan". Demak, bu o'rinda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

-inklyuziv ta'lim nogironligi bo'lgan ta'lim oluvchilarni qamrab oladi;

-bunday ta'lim turi bilan nogironligi bo'lgan ta'lim oluvchilarga teng imkoniyatlar yaratiladi;

-bu ta'lim turi asosiy e'tiborini ta'lim oluvchilar bilan individual tarbiyalashga qaratiladi.

Bu talablar xalqaro ta'lim dasturlarida belgilangan talaablariga mos tushadi[3]. Shu sababli mazkur talablar oliy pedagogic ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilar tomonidan chuqur o'zlashtirilishi taqazo etiladi.

2. Inklyuziv ta'limni amalga oshirish talablari. Ushbu qonunga ko'ra, mamlakatimizda inklyuziv ta'lim quyidagi yo'nalishlar asosida amalga oshirilishi talab darajasida belgilangan:

-jismoniy nuqsoni bor bolalarni o'qitish;

-aqliy nuqsoni bor bolalarni o'qitish talabi;

-sensor (sezgi, his-tuyg'usi va ko'rish qobilyatida) nuqsoni bor bolalarni o'qitish;

-ruhiy nuqsoni bor bolalarni o'qitish.

Bu talablar asosida inklyuziv ta'lim individual tarzda tashkil etiladi. Misol uchun, ruhiy nuqsoni bor bolalarni o'qitishda o'qituvchi psixolog, tibbiyot xodimi kabi mutaxassislar bilan hamkorlik qiladi. Shu sababli inklyuziv ta'lim turini amalga oshirish talablari "Inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida Nizom"da belgilab qo'yilgan.

3. Inklyuziv ta'limga qo'yiladigan pedagogik talablar. Ta'limning boshqa turlari bilan farqli o'laroq, inklyuziv ta'limga o'ziga xos pedagogic talablar qo'yiladi. Ayni paytda, bu talablar mavjud me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asoslanadi. Shu jihatdan inklyuziv ta'limga qo'yiladigan pedagogik talablarning asosiylari quyidagilardan iborat:

- bola huquqlarining ustuvorligi;
- insonparvarlik;
- bola bilan yakka tartibda ishlash;
- bilimlar majmuini berishda bolaning imkoniyatlarini hisobga olish;
- bolaning savodxonlik, bilim, ko'nikma va malakalarini talab darajasida shakllantirish.

Mazkur pedagogik talablar oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilar tominidan "Pedagogika nazariyasi va tarixi", "Maxsus pedagogika", hamda "Pedagogik mahorat" o'quv fanlari vositasida o'zlashtiriladi. Shunindek, inklyuziv ta'lim maktabgacha, boshlang'ich, umumiy o'rta v professional ta'lim bosqichlari shaklida tashkil etiladi va amalga oshiriladi. Shu sababli inklyuziv ta'lim o'quv dasturlari va o'quv adabiyotlari maxsus ishlab chiqiladi. Masalan, ko'zi ojiz ta'lim oluvchilar uchun Brayl alifbosida o'quv adabiyotlari nashr etilishi pedagogik talablardan birini tashkil qiladi.

4. Inklyuziv ta'limga qo'yiladigan psixologik talablar. Inklyuziv ta'limni tashkil etish va amalga oshirishda asosiy e'tibor psixologik talablarga qaratiladi. Bunday talablarning negizida ma'naviy va estetik talablar ham o'z ifodasini topadi. Shu jihatdan inklyuziv ta'limga qo'yiladigan asosiy psixologik talablar quyidagilardan iborat:

- alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning ruhiy imkoniyatlarini hisobga olish;
- bu toifa ta'lim oluvchilarda o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantirish;
- mazkur toifa ta'lim oluvchilarda ko'tarinki ruhni shakllantirish;
- ushbu toifa ta'lim oluvchilarni psixoterapiya qonunyatlariga asosan ruhiy tarbiyalash.

Bu talablar asosida inklyuziv ta'lim psixologik qonunyalarga asosan amalga oshiriladi. Demak, oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilar inklyuziv ta'limni amalga oshirishning psixologik asoslari bilan qurollanishi muhim hisoblanadi.

E'tibor berilsa, mamlakatimizda inklyuziv ta'limga nisbatan huquqiy, ijtimoiy, pedagogik va psixologik talablar belgilangan. Shu sababli bo'lajak o'qituvchilar uchun quyidagilarni tavsiya etish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- a) Inklyuziv ta'limning huquqiy asoslarini chuqur o'rganish;
- b) Inklyuziv ta'limning ijtimoiy asoslarini o'zlashtirish;
- c) Inklyuziv ta'limning pedagogik qonunyalari bilan qurollanish;
- d) Inklyuziv ta'limning psixologik asoslarini chuqur bilish.

Bunday yondashuv kelgusida o'qituvchilarning zaruriyat tufayli inklyuziv ta'lim bilan shug'ullanishlariga asos yaratadi.

Shunday qilib, inklyuziv ta'limga qo'yiladigan talablar mamlakatimiz ta'lim tizimida o'ziga xos xususiyatlariga egaligi bilan diqqatni tortadi. Bu masala bo'yicha ilmiy va amaliy tadqiqotlar yaratish dolzarb bo'lib turibdi.

Adabiyotlar:

1. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. //www.ziyo-net.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. //www.ziyo-net.uz.
3. Jumanova F. va boshq. Umumiy pedagogik asoslari.-Chirchiq,2021

IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNING INKLYUZIV TA'LIMGA MOSLASHUVCHANLIGINI OSHIRISHDA PSIXOLOGIK YORDAM

Eshmamatova Sitora

KUIT magistranti

Annotatsiya: Maqolada Imkonyati cheklangan bolalarning inklyuziv ta'limga moslashuvchanligini oshirishda psixologik yordam masalasi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Inklyuziv, ta'lim, moslashuv, bilim, ko'nikma, malaka.

Аннотация: В статье анализируются вопросы помощи адаптации детей инклюзивного обучения в процессах образования.

Ключевые слова: Инклюзив, образование, адаптация, знание, умение, навык.

O'zbekistonda imkonyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'lim bilan qamrab olish va ularning moslashuvchanligini ta'minlash ta'lim siyosatining asosiy yo'nalishlaridan birini tashkil etadi. Mamlakatda imkonyati cheklangan bolalar deganda quyidagilar nazarda tutiladi:

- 1) Jismoniy jihatdan cheklanganlar;
- 2) Aqliy jihatdan cheklanganlar;
- 3) Sensor jihatdan cheklanganlar;
- 4) Ruhiy jihatdan cheklanganlar[1].

Ushbu toifa bolalar inklyuziv ta'lim vositasida o'qitiladi. Shu sababli bolalarning mazkur ta'lim turiga moslashishi muhim masala hisoblanadi. Bu o'rinda ana shu masalaning psixologik yordam taxliliga e'tiboringizni tortamiz.

1. **Ruhiy muolaja.** Imkonyati cheklangan bolalarning ta'limga moslashuvini ularning ruhiy muolaja bilan ta'minlanishi muhim ahamiyatga ega. Ruhiy muolaja

bolalarda o'ziga ishonch va bilim olishga bo'lgan qiziqishini uyg'otuvchi harakatlar majmuidir[2]. Shu jihatdan ruhiy muolaja quyidagi mutaxasislarning hamkorligi asosida oilada yoki maxsus ta'lim muassasasida amalga oshiriladi:

- o'qituvchi;
- maktab tibbiyot hodimi;
- maktab psixologi;
- taklif etiladigan mutaxasis.

Mazkur guruh imkonyati cheklangan bolalarda muntazam ravishda (oyida bir marotaba) ruhiy muolaja amalga oshiradi. Uning natijalari maxsus Daftarga qayd etib boriladi. Ruhiy muolaja natijasida imkonyati cheklangan bolalar inklyuziv ta'lim jarayoniga moslashtiriladi. Agar ruhiy muolaja to'g'ri amalga oshirilsa, bolada jismoniy, aqliy, sensor, va ruhiy sog'lomlashish yuzaga keladi.

2. Ruhlantirish. Imkonyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'lim jarayoniga moslashtirishda ularni ruhlantirish muhim amaliy ahamiyatga ega. Buning uchun o'qituvchi va maktab psixologi hamkorlikda suhbat vositasida bolani ruhlantiradi. Ruhlantirishda quyidagilarga e'tibor berish kerak;

- 1)Bolaning qiziqishlarini aniqlash;
- 2)Bolada o'zgalarga nisbatan to'g'ri munosabatlarni shakllantirish;
- 3)Bolada maqsad-muddaoni tarkib toptirish.

Bunday tadbir har o'quv yili boshida amalga oshiriladi va buning natijasida bolada ruhlanish paydo bo'ladi. Aynan ruhlanish jismoniy nuqsoni bo'lgan bolalarni o'ziga bo'lgan ishonchni uyg'otadi, aqliy nuqsoni bo'lgan bolalarda ko'tarinki ruhni paydo qiladi, sensor nuqsoni bo'lgan bolada tushunish hissini tarkib toptiradi va ruhiy nuqsoni bo'lgan bolada mo'tadillikni shakllantiradi. Shu sababli psixolog olimlar imkonyati cheklangan bolalarni ruhlantirish-ularni o'qishga jalb etishning muhim vositasi ekanligini ta'kidlashadi[3].

3.Ruhiy tarbiyalash. Imkonyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limga moslashtirishda ruhiy tarbiyaning ahamiyati beqiyosdir. Chunki, aynan ruhiy tarbiya

bu toifa bolalarning ta'lim olishidagi muhim asos hisoblanadi. Shu jihatdan ruhiy tarbiyani amalga oshirishda quyidagilarga asoslanish kutilgan samarani beradi:

- 1) Imkonyati cheklangan bolaning ruhiy darajasini aniqlab olish;
- 2) Mutaxassis ishtirokida bolaga ruhiy davolar berish;
- 3) Muntazam ravishda bolaning ruhiy holatini kuzatib borish.

Shu jihatdan jismoniy nuqsoni bo'lgan bola bilan ruhiy tarbiya maxsus ta'lim muassasasida amalga oshiriladi, aqliy nuqsoni bo'lgan bola bilan ruhiy tarbiya psixolog tomonidan amalga oshiriladi, sensor nuqsoni bo'lgan bola bilan ruhiy tarbiya tibbiyot hodimi ishtirokida muntazam ravishda amalga oshirilib boriladi va ruhiy nuqsoni bo'lgan bola bilan amalga oshiriladigan ruhiy tarbiyada psixologik vositalarga tayanadi.

E'tibor berilsa, jismoniy, aqliy, sensor va ruhiy imkonyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limga moslashtirish mutaxassislarining amaliy faoliyat doirasiga kiradi.

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, bugungi kunda imkonyati cheklangan bolalarning inklyuziv ta'limi nodavlat ta'lim muassasalarida ham amalga oshirilmoqda. Shu jihatdan bu toifa bolalarning inklyuziv ta'limga moslashtirishda davlat ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilish maqsadga ,uvofiq hisoblanadi. Chunki inklyuziv ta'lim mas'ulyatli jarayon bo'lib, uni amalga oshirishda davlat ta'lim muassasasi mutaxassislari asosiy shaxslar sifatida belgilanadi.

Inklyuziv ta'limning xususyatlaridan biri asosan psixologik qonunyalarga asoslanishidir. Chunki imkonyati cheklangan bolalarda psixologik muammolar nisbatan yuqori darajda bo'ladi. Shu sababli bu jarayonda psixologik qonunyalr, usullar va vositalarga asoslanish birlamchi hisoblanadi.

Bizning yondoshuvimizga ko'ra, imkonyati cheklangan bolalarning inklyuziv ta'limga moslashtirish ishini tajribali mutaxassislar tomonidan amalga oshirilishi kutilgan samarani beradi va bu borada belgilangan hududlarda mutaxassislar guruhlarining faoliyat yuritishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib, jismoniy, aqliy, sensor va ruhiy imkonayti cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limga moslashishini oshirishda ilmiy, amaliy va metodik tayyorgarlikka

ega mutaxasislarning ishtirok etishi kutilgan samarani beradi. Bu masala bo'yicha oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini tarkib toptirish dolzarb bo'lib turibdi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.//www.ziyo-net.uz.
2. Psixologiya. Slovar.-Moskva, 2003
3. Kollektiv. Psixologiya. Uchebnik.-Moskva, 2017

COVID-19 BILAN KASALLANGAN BEMORLARDA KANDIDOZNI KECHISHI VA KLINIKASI

Nazarov Abbas Uralovich,
assistent EMU UNIVERSITY

Raxmatova Yulduz Tolipovna,
shifokor Ginekolog.

E-mail: bizning1007@gmail.com

COVID-19 bilan bog‘liq bakterial, virusli va zamburug‘infektsiyalari COVID-19 kasalligi yallig‘lanishga qarshi belgilarning ko‘payishi bilan bog‘liq bu sezuvchanlikni oshiradi bakterial va zamburug‘ infektsiyalariga .Candida zamburug‘lari (Candida albicans, Candida glabrata, Candida krusei, Candida tropicalis) eng keng tarqalgan turlari shilliq pardalar, teri, nafas olish yo‘llari,ovqat hazm qilish trakti va siydik yo‘llarida zararlanish bilan kechadi.

Candida zamburug‘lari opportunistik patogenlardir, shuning uchun ular turli xil infektsiyalarni keltirib chiqarishga imkon beruvchi virulent omillarga ega, ayniqsa immunitetning pasayishi sharoitida .Bunday sharoitda Candida qo‘zg‘atishi mumkin teri kasalliklari (surunkali teri kandidozi), shilliq pardalarning shikastlanishi (og‘iz kandidozi, vulvovaginal kandidoz (VVC)), shuningdek ichki organlarning jiddiy shikastlanishi - invaziv kandidozlar kuzatiladi.

Ko‘pgina tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, ular orasida og‘ir COVID-19 bilan og‘rigan bemorlarda zamburug‘infektsiyasining eng keng tarqalgan turlari bo‘lgan C. albicans, C. auris, C. glabrata, C. parapsilosis, C. tropicalis va S. cerevisiae bilan zararlanish kuzatiladi. Kasalxonaga yotqizilgan bemorlarning COVID-19 biln kasallangan bemorlarda antibakterial dorilarni qabul qiladi va bu Candida va kandidozning tezlashishiga ham hissa qo‘shishi mumkin. SARS-CoV-2 tufayli

epiteliya shikastlanishi ham mavjud, Candida ning bazal membranaga biriktirilishiga yordam beradi, bu shilliq qavatlarining kandidozini yanada rivojlanishiga olib keladi. Kasallikning patogenezini sabab bo'lgan xamirturushli zamburug'lar patogenning shilliq qavat yuzasiga yopishishini, keyinchalik uning kolonizatsiyasini va to'qima tuzilmalariga kirishini o'z ichiga oladi, epiteliy to'sig'ini, qon tomir devorini engib o'tish va tomirlarga kirib borish, bu gematogen tarqalish va organlarning shikastlanishiga olib keladi. To'qimalarning shikastlanish chuqurligiga qarab, yuzaki va invaziv mikroblar farqlanadi. Masalan, og'irroq COVID-19 bilan kasallangan bemorlarda shilliq qavatining yanada jiddiy shikastlanishlari kuzatildi og'iz bo'shlig'i (yara, eroziya, papulyar toshmalar, yoriqlar va boshqalar). Opportunistik infeksiyalar, stress, immunitetni susaytirish, vaskulit va ikkilamchi giperyallig'lanish reaksiyasi COVID-19 bilan og'rikan bemorlarda og'iz bo'shlig'idagi yaralarni xosil qiluvchi omillar keltirib chiqaradi. Bunday hollarda eng ko'p aniqlangan tashxis stomatit, kandidoz, vaskulit, nekrotizan periodontal kasallik va boshqalar.

Vulvovaginal kandidoz

Zamburug'infeksiyalarini o'z vaqtida tashxislash va davolash COVID-19 bilan kasallangan bemorlarda ijobiy klinik natijaga erishish uchun eng muhimi bemorlarda erta taqshxislash va o'z vaqtida davolash muolajalarini boshlash. Hozirgi vaqtda invaziv kandidozni davolash uchun nisbatan yangi yarim sintetik antifungal dorilar guruhi qo'llaniladi. Shuningdek terapiyada flukonazol, vorikonazol, posakonazol ishlatiladi. Imidazollar bilan ifodalangan eng keng tarqalgan dorilar klotrimazol, ketokonazol va mikonazoldir. Triazolalar - flukonazol va itrakonazol.

Ketokonazol keng sintetik antifungal agent mahalliy foydalanish uchun ta'sir spektri. Rendinglar fungitsid va fungistatik ta'sirga qarshi dermatofitlar va xamirturush va xamirturushga o'xshash qo'ziqorinlar (*Candida spp.*). Preparat stafilokokklar va streptokokklarga qarshi ham faoldir. Uni qo'llash uchun ko'rsatmalar o'tkir va takroriy vaginal kandidozni davolash, qo'ziqorin paydo bo'lishining oldini olish. Shuni ta'kidlash kerakki *C. albicans*ga nisbatan topikal preparatlarning samaradorligini baholash ayniqsa muhimdir, chunki bu mikroorganizm VVC ning

asosiy qo'zg'atuvchisi hisoblanadi. VVC ni davolash etarli miqdorda mavjudligini talab qiladi

